3/2024

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Uchinchi son)

Toshkent – 2024

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:

Govxar Raxmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo	**t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
2. Zohidjon Islomov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
3. Shorustam Shomusarov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
4. Durdona Lutfullayeva	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
5. Komiljon Rahimov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
6. O‘ktam Mavlonov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
7. Xolida Alimova	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
8. Aftondil Erkinov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
9. Albert Burxanov	**t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
10. Samal Tuleubaeva	**f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
11. Sayfullo Mullodjanov	**t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
12. Zilola Xudoyberganova	**f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;**
13. Akram Habibullayev	**t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;**
14. Murtazo Saidumarov	**f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi;**

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Mirqosimova Marg‘uba Mirqobilovna
“So‘z yo‘li”ga xos lirik “men” ifodasi 4

Shoaliyeva Nargiza Kakhramanovna, Hojjatulloh Javoniy
Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlari 15

Saydumarov Murtazo G‘oziyevich
“Kavkaz arsloni” – Imom Shomilning kurashi va uning Makka va Madinadagi hayoti 28

Sayidiraximova Nasiba Sayidmaxamadovna
“Madaniyatlararo muloqot” fanining ilmiy asoslanishi va unda “kommunikatsiya” tushunchasining o‘rni 37

Kodirova Mukaddas Tog‘ayevna
Ingliz biznes diskursida idiomalarning roli 48

Karimova Shaxloxon G‘aniyevna
Boshlang‘ich ta’limda nutqiy masalalarga e’tibor 58

TARIX

Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich
Turkistonning Rossiya mustamlakasi davri xaritalariga doir 67

Ismatullayev Farhodjon Odiljonovich
Xalqaro munosabatlar tizimida Samarqand shahrining o‘rni 83

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
XIX asrning ikkinchi yarmida Kaspiyorti hududida Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari manfaatlarining to‘qnashuvi 93

Ochilova Gulmira Mardonovna
Turkiston jadidlaridan Shokir Muxtoriyning faoliyati va uning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga nisbatan qarashlari 102

Isaqov Rustamjon O‘ktamjon o‘g‘li
Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasida etnografik tadqiqot guruhlarining tashkil etilishi 111

Usmanov Ibrahim Sobirovich
Уникальный ранний источник по исламскому социальному праву 121

“SO‘Z YO‘LI”GA XOS LIRIK “MEN” IFODASI

THE LYRICAL EXPRESSION OF "I" SPECIFIC TO "SO‘Z YO‘LI"

ЛИРИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ «Я», СПЕЦИФИЧЕСКОЕ ДЛЯ «SO‘Z YO‘LI»

Mirqosimova Marg‘uba Mirqobilovna,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi professori,
Pedagogika fanlari doktori
Tel.: +998 90 321-61-32

Annotatsiya: O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “So‘z yo‘li” nomli tanlangan asarlari ikkinchi jildini keyingi yillarda yozgan she’rlari tashkil etgan. To‘plamdagi hazrat Abu Homid G‘azzoliy hikmatlari, sharq adabiyotining ulug‘ namoyandalari Mavlono Rumiy, Hofiz Sheroziy g‘azallari, Aleksandr Pushkin, zamonaviy rus she’riyati darg‘alaridan Andrey Voznesenskiy, Aleksandr Faynberg asarlaridan qilgan tarjimalari ham o‘rin olgan. Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “So‘z yo‘li” nomli tanlangan asarlariga kirgan she’rlari hamda Farida Afro‘z ijod namunalari tahlili orqali bugungi o‘zbek she’riyatiga daxldor uslubiy xususiyatlar, she’riyatga xos tendensiyalar yoritilgan. She’rlarda “men” so‘zini qo‘llash orqali shoir o‘zining ichki dunyosi, shaxsiy tuyg‘ulari va hayotiy tajribalarini o‘quvchilarga taqdim etadi. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek she’riyatida lirik tafakkur tarzining davom etishi va shoirning o‘ziga xos uslubiy yondashuvini aks ettiradi. “So‘z yo‘li” asarida shoir o‘zining ruhiy kechinmasi jarayonlari va ichki kurashlarini ko‘rsatadi, bu esa zamonamiz muammolari va insoniy hissiyotlar bilan bog‘liq. Farida Afro‘zning ijodida esa hayotiy muammolarni o‘zgacha lirik uslub bilan ifodalash, shaxsiy topilma va badiiylikni birlashtirish tendensiyalari ko‘zga tashlanadi. Ushbu tahlil orqali she’riyatimizning rivojlanish dinamikasini va o‘ziga xos yondashuvlarni aniqlashga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: *she’riyat, lirik qahramon, janr, uslub, mahorat, tendensiyalar, insoniy tuyg‘ular, hayotiy muammolar, an’analar.*

Annotation: The second volume of the selected works of the People’s Poet of Uzbekistan Sirojiddin Sayyid entitled “So‘z yo‘li” is composed of the poems he wrote in the following years. The collection includes the wisdom of Hazrat Abu Hamid Ghazzali, the poems of Maulana Rumiy, Hafiz Shiraziy – great figures of Eastern literature, translations of the works of modern Russian poets Alexander Pushkin,

Andrei Voznesensky, and Alexander Feinberg. The article highlights the stylistic features of today's Uzbek poetry, the trends specific to poetry through the analysis of the poems of the People's Poet of Uzbekistan, Sirojiddin Sayyid, included in the selected works entitled "So'z yo'li" and the works of Farida Afroz. By using the word "I" (myself) in the poems, the poet presents his inner world, personal feelings and life experiences to the readers. This, in turn, reflects the continuation of the lyrical way of thinking in Uzbek poetry and the poet's unique methodological approach. In "So'z yo'li" the poet shows the processes of his spiritual experience and internal struggles, which are related to the problems of our time and human emotions. In the work of Farida Afroz, the tendency to express life problems with a unique lyrical style, to combine personal findings and artistry is noticeable. Through this analysis, an attempt is made to determine the dynamics of the development of Uzbek poetry and specific approaches.

Keywords: *poetry, lyrical hero, genre, style, skill, tendencies, human feelings, life problems, traditions.*

Аннотация: Второй том избранных произведений народного поэта Узбекистана Сирожиддина Саййида под названием «Сўз йўли» составлен из стихотворений, написанных им в последующие годы. В сборник вошли мудрость Хазрата Абу Хамида Газзали, стихи Мауланы Руми, Хафиза Ширази – великих деятелей восточной литературы, переводы произведений современных русских поэтов Александра Пушкина, Андрея Вознесенского и Александра Файнберга. В статье освещаются стилистические особенности сегодняшней узбекской поэзии, тенденции, характерные для поэзии, через анализ стихотворений народного поэта Узбекистана Сирожиддина Саййида, вошедших в избранные произведения под названием «Сўз йўли», и произведений Фариды Афроз. Используя в стихотворениях слово «я» (сам), поэт представляет читателям свой внутренний мир, личные переживания и жизненный опыт. Это, в свою очередь, отражает продолжение лирического образа мышления в узбекской поэзии и уникальный методологический подход поэта. В «Сўз йўли» поэт показывает процессы своего духовного опыта и внутренней борьбы, которые связаны с проблемами современности и человеческими эмоциями. В творчестве Фариды Афроз заметна тенденция выражать жизненные проблемы уникальным лирическим стилем, сочетать личные находки и артистизм. Посредством этого анализа делается попытка определить динамику развития узбекской поэзии и специфические подходы.

Ключевые слова: *поэзия, лирический герой, жанр, стиль, мастерство, тенденции, человеческие чувства, жизненные проблемы, традиции.*

KIRISH

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “So‘z yo‘li” nomli tanlangan asarlari ikkinchi jildini keyingi yillarda yozgan she’rlari tashkil etadi. To‘plamdagi hazrat Abu Homid G‘azzoliy hikmatlari, sharq adabiyotining ulug‘ namoyandalari Mavlono Rumiy, Hofiz Sheroziy g‘azallari, Aleksandr Pushkin, zamonaviy rus she’riyati darg‘alaridan Andrey Voznesenskiy va Aleksandr Faynberg asarlaridan qilgan tarjimalari ham o‘rin olgan. Ayni damda, shoirning mumtoz adabiyotimiz an’analarini davom ettirib, o‘ziga xos uslub va ohangda bitgan “Yaxshilik eskirmagay” (“Qirq hadis”), “Shamnoma”, “Ko‘ngil sohili” kabi turkumlari diqqatimizni tortadi. “Shamnoma”ning yozilish sabablarini shoirning o‘zi quyidagicha izohlaydi: “Bu to‘rtliklarni men osmondan olib yozmadim. Bolalikda, rahmatli momomdan ko‘p eshitganim, yangalarimga aytadigan “Qiliqning issig‘i – baxting isirig‘i” yoki “Ayol – erkakning vaziri” degan gaplardan tortib to hozirga qadar, Toshkentning Eski jo‘va bozorida “Do‘mboqqina handalaklardan olib keting” degan opaxonning so‘zlarigacha – hammasi o‘zimga tanish, qadrli, ko‘nglimga, hayotimga daxldor kechinmalardir. Ularda nomlar, ismlar bor: ulug‘ zotlarning, ustozlarimizning nomlari, yana boshqa nomlar. Tilga olish bahonasida men bu zotlar oldidagi uzib bo‘lmas qarzimni nazarda tutganman. “O‘choqdagi o‘t boshqa-yu yurakdagi o‘t boshqa” deganlaridek, bu yozganlarim – balki mening yana bir urinishim, ko‘ngilga tomon yana bir chog‘lanishimdir. Yozilmagan katta she’rlarning parchalaridir, balki kunlarim, tunlarimning bo‘laklaridir”. (Sirojiddin Sayyid, 2008)

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ijodi o‘zining badiiy ifoda jarayoni va san’ati bilan ko‘plab tadqiqotchilarni qiziqtirgan. Uning she’rlari nafaqat mavzusi, balki uslubi, stilistik xususiyatlari va madaniy konteksti borasida ham chuqur tahlil etilgan. Ushbu adabiyotlar tahlilida Sirojiddin Sayyid ijodini o‘rganishga yaqindan e’tibor qaratgan olimlar va adabiyotshunoslarning maqolalarini taqqoslaymiz.

Sirojiddin Sayyidning “So‘z yo‘li” she’rlar to‘plami uning ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Farida Afro‘z o‘z asarida Sirojiddin Sayyid she’rlari orqali ifodalangan tasvirlar va hissiyotlarni tahlil etgan va bu asarlar orqali shoirning o‘ziga xos ovozi va tarjimai holi haqida qimmatli ma’lumotlar taqdim etadi. M.Mirqosimova “So‘z iztiroblari” monografiyasida Sirojiddin Sayyidning badiiy tilini va badiiy usullarini yanada chuqurroq o‘rganishga harakat qilgan. U, shuningdek, Sirojiddin Sayyid ijodida jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berishga qaratilgan fikrlarni beradi. Jumladan, tadqiqotchi, Sirojiddin Sayyid she’rlari orqali o‘quvchini tarbiyalashning ahamiyatini ta’kidlaydi, bu esa 2024-yilda bo‘lib o‘tgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama qilingan edi.

Yana bir muhim tadqiqot Fayzullayeva Ra’no tomonidan olib borilgan bo‘lib, u Sirojiddin Sayyid ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analarini o‘rganadi. Bu ma’lumotlar shoir asarlarini yanada madaniy kontekstda tahlil qilishga yordam beradi. Shoirning “Onamning kulchalari” nomli she’ri lingvokulturologik nuqtai nazardan o‘rganilib, bu asarda mintaqaviy til va madaniyatning muhimligi ko‘rsatilib, she’rning chuqur ma’nosi ochib beriladi. Gulnoza Oripova esa Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz mushtarakliklarni tahlil etgan va uning asarlaridan kelib chiqib, mumtoz adabiyot va zamonaviy ijod o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatgan. Bu tahlil, shuningdek, shoir ijodidagi yangi yondashuvlarni ko‘rsatib beradi (Otaqulova A., 2023).

Sherzod Jo‘rayev O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning ijodini arab tiliga tarjima qilinishini tadqiq etish orqali Sirojiddin Sayyid she’rlarining universalizmini ochib beradi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar shoirning asarlarini turli madaniyatlar va tillarda qabul qilinishi masalasini o‘rganishga yordam beradi (Jurayev Sh., 2024).

Hozirgi paytda Sirojiddin Sayyid ijodida lingvopoetik tahlil yo‘nalishi ham bir qator olimlar tomonidan o‘rganilmoqda, bu sohada olib borilgan tadqiqotlar shoirning dastlabki matnlaridan ko‘ra, uning uslubiy xususiyatlariga e’tibor qaratadi, bu esa yosh avlod o‘quvchilarni badiiy ijodga jalb qilishda ahamiyatlidir (Otaqulova A., 2023).

Ta’kidlash joizki, Sirojiddin Sayyid ijodi o‘zining xilma-xilligi hamda badiiy uslubi jihatdan tadqiqotlarni davom ettirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Uning ijodiga oid adabiyotlar o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rin olgan muhim masalalar, ya’ni xalq og‘zaki ijodi an’analari, lingvokulturologik kontekstlar va badiiy pedagogika kabi yo‘nalishlarda davom ettirilmoqda. Shoir ijodi nafaqat o‘zbek adabiyotining asosiy qismiga kiradi, balki xalqimiz madaniyati va merosini anglashda muhim rol o‘ynaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning she’rlari tahlilini amalga oshirish va uning ijodida ifodalangan badiiy va madaniy jihatlarni aniqlashdir. Shu bilan birga, shoirning asarlarini o‘rganishda zamonaviy adabiyotshunoslik uslublaridan foydalanish ham tadqiqotning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Jumladan, maqolani yozishda quyidagi uslublardan foydalanildi:

- Badiiy tahlil: Sirojiddin Sayyidning she’rlari uslubiy jihatdan tahlil qilindi, uning tasviriy vositalari va strukturaviy xususiyatlariga e’tibor qaratildi.
- Lingvistik tahlil: She’rlarda ishlatilgan so‘zlar, mantiqiy va sintaktik tuzilmalar maxsus tahlil qilindi. Bu usul orqali shoirning til va madaniyatga bog‘liqlik darajasi o‘rganildi.
- Lingvokulturologik tadqiq: Shoir ijodining madaniy kontekstda o‘rganilishi va uning xalq og‘zaki ijodi an’analariga taalluqli jihatlari ko‘rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolani tadqiq etish jarayonida quyidagi she’rlar tanlab olindi va undagi ifodalarga diqqat qaratildi. Xususan, ayni ko‘ngil izhori shoirning quyidagi to‘rtliklarida yanada yorqin ifodasini topgan:

Mening Vatan ichra vatanlarim bor
Mangu zavol bilmas chamanlarim bor.
Termiziylar yanglig‘ xazinalarim,
Buxoriylar kabi ma’danlarim bor.

* * *

Men bunda har dildan navolar oldim,
Har giyoh, har guldan sabolar oldim.
Oq fotiha oldim oppoq tog‘lardan,
Azim chinorlardan duolar oldim. (Sirojiddin Sayyid, 2008: 194)

“Rayhonlar bargidan siyoh olgan” shoir qalbi har hisdan o‘z ruhida bir giyoh ungani, “yurtning turna ko‘zli buloqlaridan” ko‘ngil ko‘zi ochilgani, nigohlari tiniqlashganini his etadi. Kimdir umr bo‘yi qasr quradi, kimdir mol-dunyo yig‘ish bilan ovora. Kimdir jabr qilmish va topmish jafo. Bu dunyoda hatto so‘z ham sotildi, begona ham, do‘st ham sotildi... kechirilgan umr esa tushlarga aylandi...

“Yomg‘irlar yig‘lashib sel bo‘ldi, ona,
Sog‘inchlar birlashib yil bo‘ldi, ona.
To‘planib-to‘planib barcha og‘riqlar,
Mening ko‘kragimda dil bo‘ldi, ona...

* * *

Aytmangiz, biz uzoq manzilga ketdik,
Na daryo va na yo sohilga ketdik.
O‘zga manzillardan izlamang bizni,
Yoronlar, biz dilga, biz dilga ketdik” (Sirojiddin Sayyid, 2008: 203)

Shoir dil yo‘li ko‘ngil tomon olis safarga chog‘lanar ekan, bu manzilga yetguncha go‘yo ming yil taraddudlangani, talpingani, “ming yil yo‘l yurganini” e’tirof etadi. Kuy tinglab, “ko‘ngil nayi” esayotgan manzillar, gul husniga maftun ko‘ngil ra’yidan, mehr-u muhabbat yo‘lidan ketgan shoir “bir umrlik ko‘ngil payidan ketdik”, - deya o‘z ko‘ngil yo‘liga ishora qiladi. Barchamizni o‘zligimizni tanishga, o‘z ko‘ngil yo‘limizni tayin etishga undaydi, og‘riqli savollar bilan tuyg‘ularimizni, xayollarimizni siljitadi:

“Dunyoga kelding-u ketgaysan qachon?
Ezgulik naqshini bitgaysan qachon?
Neki bor, yetishding yelib-yugurib,
Ey inson, o‘zingga yetgaysan qachon?”

“Rumiydan bir kosa”, “Xayyomdan bir jom” olib, toqat izlab, ko‘ngil yo‘li aro kezayotgan shoir mudroqlikdan kechishga, “shabnamday bir toza g‘am”, dard ila yashashga, ko‘ngil manzaralari ortidagi hikmatlar ma’nosini uqishga intiladi:

“Olis yulduzlarda qanday xabar bor?
Oyning gardishida qanday xatar bor?
Mangu xavotirday aylanar falak,
Bir kun hammamizga katta safar bor...

* * *

Ulug‘ Oybeklar-u G‘afur G‘ulomlar
Nechun ulug‘ erdi, ulug‘ kalomlar?
Chunki ulug‘ erdi bu zotlarda qalb,
Qalbda ulug‘ erdi dard-u alamlar” (Sirojiddin Sayyid, 2008: 233)

O‘z umrini “ko‘ngil yo‘liga” burgan shoir sog‘inchlarini, og‘riqlarini, kamlik va kemtiklarini ham so‘z yo‘li aro bitiklarida – “Shamnoma”-yu “g‘amnoma”sida izhor etar ekan, o‘tadigan kun – umrimizning “ko‘ngil tomon bir safari”, har on – “kunimizning bir gavhari”, har otadigan tong – “Ollohning bizlarga xushxabari” ekanini ta’kidlaydi. Zotan, insonlik a’moli, otayotgan oppoq tong, qarshimizdagi uzun kun va tun barchamiz uchun ko‘ngil tomon burilishga, ko‘ngil yo‘liga safar qilish, ko‘ngil manzaralari ortidagi ma’nolarni uqish uchun yana bir imkon, fursat demakdir. Ko‘ngil yo‘li esa shoir uchun so‘z yo‘li, so‘z iztiroblari-yu quvonchlariga to‘liq, bepoyon, olis, mashaqqatli yo‘l...

Uyqashdir bu yo‘lning shom-u sahari,
Xabarlari bisyor, ko‘pdur xatari.
Ey do‘st, Fariduddin Attordin o‘rgan,
Eng uzoq safardir ko‘ngil safari.

Shoir goh bu yo‘lning “tufroq yanglig‘ so‘qmoqlaridan, goh toshqin sel, ko‘kdagi chaqmoqlaridan” o‘tib, ko‘ngil yo‘lida darbadar kezadi, o‘zini “ko‘ngil devorining xasi”day, goh shabnam qo‘ngan yaproqday his qiladi. Dasht-u sahro kezib, qay bir qirg‘oqlariga bosh urib, “axtara-axtara ko‘ngilni topganligi”ni e’tirof etadi. Shu dam daraxtlar bandida titroq, yaproqlar ichra xavotir, qoyalar aro junjikish, daryolarning shiddatla to‘lg‘onishini his etadi. Hatto yomg‘irlar ham “hasrat o‘chog‘idan to‘kilgan cho‘g‘”day issiq, kuydirguvchi. Bu manzara qanday ma’nolarni ifoda etadi?

O‘zini “hasrat o‘chog‘ida o‘tinga”, “qismat qirg‘og‘ida tutunga” qiyoslagan shoir ishqsizlik qirg‘og‘iga yetib kelganligini ayon etadi. Ishqsizlikdan mung‘aygan, dardsizlikdan nurab borayotgan “ko‘ngil yo‘li”ga qarab shoir ko‘zlariga mung, ko‘ngliga “qirov to‘shaldi”. Bu manzaraga dosh berolmagan shoir ahvolni tuzatish ilinjida “yaproqlardan uy quradi”, maysadan xona, “shudring va yulduzdan o‘rnatdi

oyna”. “Osmondan zangori darchalar ochib”, “guldan eshik qildi, dildan ostona”. Shu damda “shoir tanida yaproq bo‘ldi dard, ko‘ngil jahonida tuproq bo‘ldi dard”. Zero, so‘z yo‘li, ko‘ngil yo‘li dardsizlar uchun begona. Ko‘ngilni dard chekib izlash, dard ila topish va yaratish mumkin. Dard esa bedor, yaratuvchi, mehr-muhabbatga, ezgulikka baxshida ko‘ngilda yashaydi. Binobarin, so‘z yo‘li ezgu tuyg‘ular va maqsadlar yo‘lidir. Shu bois shoir o‘zi tanlagan so‘z yo‘lini dil yo‘li, “ko‘ngil sohili” deb ataydi. So‘z yo‘llarida ungan chechaklarini esa siz-u bizga, shoir dardlariga hamdard ko‘ngil egalariga taqdim etib, bu dunyo yo‘llari eltguvchi so‘nggi, yagona manzilga yorug‘ yuz bilan yetib borishga undaydi.

“Yaxshilik eskirmagay” (“Qirq hadis”) to‘plami avvalgi “Ko‘ngil sohiliga jo ma’no va manzaralarning badiiy-falsafiy jihatdan teran talqiniy davomiyligini ta’minlagan. Sakkiz va o‘n ikkilik misralar orqali shoir insoniy burch va mas’uliyat, ezgulik, ma’rifat, yaxshilik, ona yurtga, xotiralarimizga sadoqat tuyg‘ulari mohiyatini, ma’no qirralarini falsafiy yo‘sinda poetik talqin etishga erishgan:

... Har kim bu dunyoda qilganlariga
Yarasha ajr ila mukofot ko‘rgay.
Oqargan sochlaring mahshar kunida
Nur bo‘lib yo‘llaring yoritib turgay (Sirojiddin Sayyid, 2008: 235)

Shunisi diqqatga sazovorki, keltirilgan hadislar va hikmatlar ma’nosi sakkizlik va o‘n ikkilik misralarga singdirilganidan tashqari shoir xilma-xil tashbehlar, metafora, metonimiya, poetik ko‘chimlardan foydalanib, g‘oya ta’sirchanligini ta’minlashga erishgan. Qofiya tartibi b-b yoki a-b; a-b tarzida kelib, o‘ziga xos ohangni yuzaga keltirgan. “Insonga bir vodiy to‘la mol-u dunyo berilsa, u ikkinchi vodiyning ham berilishini xohlashi” haqidagi hadis mazmuni “nafs” sarlavhali har biri to‘rt alohida misradan tarkib topgan sakkizlikda o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, “Xudo aytadiki”, “Baxtsizlik”, “Foydali yomg‘ir” kabi sakkizliklar orqali shoir odamlarni insofga, ezgu va foydali amallarga undaydi; “O‘lim”, “Meros”, “Sadaqa”, “Odam tanasidagi idish” kabi to‘rt va oltilikdan tashkil topgan misralarga jo ma’nolar esa umrning g‘animatligi, befoyda so‘zdan sukut yaxshiroq ekani, xulq-u odobdan ulug‘roq meros yo‘qligi, Ollohdan foydali ilm so‘rash, fursatni g‘animat bilish, qalb va axloq go‘zalligiga erishishiga da’vat etadi.

“Imoratlar quring, soling qasrlar,
Istang olam kezib, baxshilik qiling.
Neki qilsangiz ham qay kasb, amalda
Avval duo oling, yaxshilik qiling...”

“Qirq hadis”ni o‘qir ekanmiz, sinovlar dunyosidagi o‘z hayotimizni sarhisob etish, amallarimiz nechog‘lik ezgulikka xizmat qilishi haqida o‘ylash, mehr ko‘rsatish,

go‘zallikni qadrlash, chanqagan insonga suv tutish, mung‘aygan odamlarga ko‘mak berish, noumidlar uchun umid chiroqlarini yoqish, tuyg‘usizlarga his-tuyg‘u ulashish istagi tug‘iladi. Zotan, so‘z inson dilining ko‘rki, libosidir. So‘z yo‘li esa mehr-muhabbat, ezgulik, go‘zallik, rostlik, mas’ullik, hikmat yo‘lidir. Shoir aytmoqchi:

“Bu olam yashnagay ezguliklardan
Toki insonlarda qalb va hikmat bor,
She’r ham yaralmagay bekorga asli
She’rda rasulullоh aytgan hikmat bor.”

Sirojiddin Sayyidning “So‘z yo‘li” asari so‘nggi davr o‘zbek she’riyatiga xos yangicha shakliy izlanishlar, xilma-xil mavzular va g‘oyalar mujassamligida o‘ziga xos ohanglarni olib kirayotganidan dalolat beradi. Janrlar rang-barangligi, an’anaviy va yangicha ifoda yo‘llaridan, shakllaridan mahorat bilan foydalanish natijasida o‘ziga xos falsafiy mushohada bilan tasvirning jozibaliligi, musiqiylik, sodda va ravon ifoda tarzi lirik qahramon kechinmalarini, ruhiy evrilishlarini poetik talqin yoki ichki nutq vositasida yoritish imkonini bermoqda. His-tuyg‘u, kechinma va poetik fikr uyg‘unligidan yuzaga kelgan lirik obraz o‘z “men”ini, o‘z ko‘ngil olamiga xos manzaralarni tasavvur etib, anglashga undaydi. O‘zini o‘z ko‘ngli orqali taniydi. “So‘z yo‘li” ham kitobxonni ruhiyat kengliklariga, ko‘ngil manzaralari jo bo‘lgan tuyg‘ular olamiga olib kiradi.

She’rda shakl ixchamligi, g‘oyaning esa falsafiy ko‘lamdorligi ta’minlanishi taniqli shoira Farida Afro‘z ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoiraning “Tasbeh”, “Ushshoq” kabi she’riy to‘plamlariga xos xususiyatlar keyingi yillardagi ijodida yanada to‘la-to‘kis namoyon bo‘lmoqda. To‘rtliklar (Azim Suyun, Sirojiddin Sayyid), ikkiliklar, hatto birlik she’rlar (Tohir Qahhor, Faxriyor, Ulug‘bek Hamdam, Tursun Ali) qatori bugungi she’riyatda inson ruhiyatini, qalbdagi kechinmalarni shaklan qisqa uchliklarga joylashtirib, tagma’noni davr o‘zbek she’riyatiga xos shakliy qisqalikka quyma, mantiqiy shiorlar orqali ifodalash tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday izlanishlarni mahorat bilan uddalayotgan Farida Afro‘zning uchlik tasbehlarini o‘qigan kitobxon matn tagma’nosini o‘zi ta’sirlangan holatda hissiyotlari, o‘y-kechinmalariga monand uqib oladi. Shunisi ajablanarliki, shoira o‘ttiz uch tasbehdan to‘qson to‘qqiz misrali shoda yaratib, o‘z dunyosiga xos rangin holatlardan falsafiy-ruhiy mantiq asosidagi badiiy umumlashmalar kashf qilishda foydalangan. Uchliklarning ichki qurilishi, ohangi, bo‘g‘inlar soni, mazmuni turlicha bo‘lsa-da, ularni yagona shodaga birlashtirib turuvchi lirik “men” olami, tuyg‘ulari, hukm-xulosalari, mushohadalari, alam-o‘kinch, afsus-nolalari Yaratganga munojot shaklida yaxlitlashadi va mantiqan birlashadi. Yagona shodani tashkil etuvchi uchliklar ohangini turoq tartibi, vazn yo qofiya emas, ko‘proq “men” ruhiyatidagi evrilishlar shiddati va “sen” ni anglash mashaqqati yuzaga keltiradi. Lirik “men” olamini, uning turfa kinoyalari ortidagi

ma’nolarni o‘zligini idrok etish barobarida “sen”ga ba’zan “uchinchi odam”ga murojaat qiladi. Poetik to‘xtamlar, tuyg‘ular ziddiyatidan, insonni anglash yo‘lidagi ikkilanishlar, yo‘qotishlar, aldanishlar, iztirobli og‘riqlar zarbini kitobxonga yuqtiradi.

Yig‘lasam gar sen uchun emas,
O‘zim uchun ham yig‘lamadim, yo‘q.
Peshonamni o‘qidim, xolos.

***

Telefonning dastagi botdi,
Yonib ketdi qulog‘im lov-lov.
Sinib tushdi tilla baldog‘im.

***

Sovib ketdi havolar birdan,
Quyoshni kim o‘g‘irladi, kim?
Kimga kerak muzlagan bag‘ir?!

***

Shukrki, sen boqiy emassan, hayot!
Xayriyat, sen borsan, o‘lim!..
Yaxshiyamki, yutib turasan, Yer!

***

Tariq ekdim chumchuqdan qo‘rqmay,
Qo‘rquvlarim tariqdek sochdim.
To‘ying endi, nokaslar.

***

Men ham adashib “Haqman!” dedim.
Sen ham telbalarcha “Haqman!” deding.
Haq esa hayron (Farida Afro‘z, 2007: 66)

Shoira “men” ruhiyati manzaralarini chizishda davom etib, har bir holat mohiyatini anglashga yo‘llovchi vaziyat yaratadi. Bu vaziyatdan foydalana olsakkina tasbehlar ta’mini – ma’nolar mag‘zini tuyamiz, olamni hissiy anglash orqali turfa jilolarda tasavvur qilamiz, natijada jozibador tuyg‘ularga sherik bo‘lamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sirojiddin Sayyid ijodini tadqiq etish, uning she’rlari va badiiy ifodasi haqidagi bilimlarni kengaytirish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot, “So‘z yo‘li” she’rlar to‘plami va boshqa muhim asarlari orqali shoirning estetik qirralarini va uning ijodida aks etgan madaniy an’analarni anglashga hissa qo‘shadi. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan badiiy, lingvistik va lingvokulturologik usullar shoir ijodining o‘ziga

xosligini va tarjimai holini ochib berishda muhim rol o‘ynadi. Unga oid adabiyotlar va ilmiy tahlillar tufayli shoirning xalqqa bo‘lgan munosabati, hayotiy g‘oyalari va insoniy hissiyotlarni ifoda etishidagi ustunliklari aniqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, Sirojiddin Sayyid ijodiga nisbatan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Sirojiddin Sayyid asarlarini o‘rganish va tahlil qilish jarayonida muayyan metodologik yondashuvlar birlashtirilishi tavsiya etiladi, masalan, badiiy va lingvistik usullar jamlanmasi;

2. Shoir ijodini yangi avlod o‘quvchilariga tanishtirish, ularni badiiy ijodga jalb qilish maqsadida darslik va o‘quv qo‘llanmalarida uning asarlari ko‘proq berib borilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, Sirojiddin Sayyid ijodi milliy adabiyotimizning qimmatbaho xazinasidir va uning badiiy olami yashirin qirralarini o‘rganish, kelajak avlod uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu tadqiqot an’anaviy va zamonaviy adabiyotshunoslikdagi muhim masalalarga qo‘shimcha ruh berishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sirojiddin Sayyid. (2008) “So‘z yo‘li”. She’rlar to‘plami. 2-jild. – Toshkent: Sharq. – 193 b.

2. Farida Afro‘z. (2007) Tasbeh. – Toshkent: Sharq. – 66 b.

3. Mirqosimova M. (2010) So‘z iztiroblari. Monografiya. – Toshkent. – 180 b.

4. Mirqosimova M. (2024) Kitobxon o‘quvchini tarbiyalash. Din psixologiyasining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

5. Mirqosimova M. (2022) Badiiy pedagogika – yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish omili sifatida. TDPU Ilmiy Axborotnomasi, 9-son. – B. 35-41.

6. Fayzullayeva, Ra’no (2024) Sirojiddin Sayyid ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari. O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami.

7. Otaqulova, Adiba (2023) Sirojiddin Sayyid “Onamning kulchalari” she’rining lingvokulturologik tadqiqi // Economy and Innovation jurnali, J. 34.

8. Oripova, Gulnoza (2022) Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz mushtarakliklar // International scientific journal of Biruni. Vol. 1, Issue 2.

9. Jurayev, Sherzod (2024) O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning ijodi va “Onamning kalishlari” she’rining arab tiliga tarjimasi // Educational Research in Universal Sciences, J. 3.

10. Otaqulova, Adiba (2023) Sirojiddin Sayyid “Mening to‘rtliklarim” she’rining lingvopoetik tahlili // Golden brain, J. 1, 11-son.

REFERENCES:

1. Sirojiddin Sayyid. (2008) “So‘z yo‘li”. She’rlar to‘plami. 2-jild. – Toshkent: Sharq. – 193 b. (In Uzbek)
2. Farida Afro‘z. (2007) Tasbeh. – Toshkent: Sharq. – 66 b. (In Uzbek)
3. Mirqosimova M. (2010) So‘z iztiroblari. Monografiya. – Toshkent. – 180 b. (In Uzbek)
4. Mirqosimova M. (2024) Kitobxon o‘quvchini tarbiyalash. Din psixologiyasining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi. (In Uzbek)
5. Mirqosimova M. (2022) Badiiy pedagogika – yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish omili sifatida. TDPU Ilmiy Axborotnomasi, 9-son. – B. 35-41. (In Uzbek)
6. Fayzullayeva, Ra’no (2024) Sirojiddin Sayyid ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari. O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. (In Uzbek)
7. Otaqulova, Adiba (2023) Sirojiddin Sayyid “Onamning kulchalari” she’rining lingvokulturologik tadqiqi // Economy and Innovation jurnali, J. 34. (In Uzbek)
8. Oripova, Gulnoza (2022) Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz mushtarakliklar // International scientific journal of Biruni. Vol. 1, Issue 2. (In Uzbek)
9. Jurayev, Sherzod (2024) O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning ijodi va “Onamning kalishlari” she’rining arab tiliga tarjimasi // Educational Research in Universal Sciences, J. 3. (In Uzbek)
10. Otaqulova, Adiba (2023) Sirojiddin Sayyid “Mening to‘rtliklarim” she’rining lingvopoetik tahlili // Golden brain, J. 1, 11-son. (In Uzbek)

ALISHER NAVOIYNING TASAVVUFIY QARASHLARI

ALISHER NAVAI'S VIEWS ON SUFISM

ВЗГЛЯДЫ АЛИШЕРА НАВАИ НА СУФИЗМ

Shoaliyeva Nargiza Kakhramanovna,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n.
Tel.: +998 98 127-30-06
nshoaliyeva74@mail.ru
ORCID: 0000-0002-7314-0093

Hojjatulloh Javoniy,
Alzahra universiteti, Ilohiyot fakulteti,
Dinlar va tasavvuf kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mir Alisher Navoiy musulmon olamida XV asrning atoqli, mashhur shoiri va mutafakkiri hisoblanadi. Navoiy asarlaridan so'fiylik ta'limotini ko'plab topish mumkin. Navoiy o'z asarlarida tasavvufiy ilmga ko'plab murojaat qilgan. So'fiylar hamda Islom ta'limoti Islom jamiyatida azaldan muhim o'rin tutib kelgan. Bu ta'limotlar odamlarning idroki va botiniga ta'sir ko'rsatib, insonparvarlik xatti-harakatlarining asosi bo'ldi. So'fiylar, shoir va mutafakkirlar tasavvufiy ta'limotlarni taqdim etish orqali odamlarning tafakkuri va faollik darajasini yuksaltirishga harakat qilganlar. Alisher Navoiy hijriy X asrning ko'zga ko'ringan musulmon shoiri va mutafakkirlaridan biri sifatida, uning qarashlarida, asarlarida yaqqol ko'rinib turadiki, u o'z davri jamiyatida hukmronlik qilgan an'ana, islom ta'limoti va madaniyatidan to'liq xabardor bo'lgan. Ammo uning asarlarida tasavvufiy ta'limotlar bormi? Uning asarlarida qaysi so'fiylik ta'limotiga ko'proq urg'u berilgan? Tasavvufiy tushunchalarni qayta talqin qilishda uning ahamiyati va hissasi qanday? Shoir g'azallarida maqom va holatlarni (Maqomot va Ahvol) hamda ko'plab tasavvufiy unsurlarni ishlatgan. Navoiy tasavvufiy istilohotlar yordamida, riyokorlikni tanqid qilish, ilohiy ishq tushunchasini tushuntirish, xudbinlik moyilligidan xalos bo'lish, qayg'ulardan qutulish, Xudoga yaqinlik, fano va shuhudni izohlaydi. Ushbu maqolada Navoiy asarlarida keltirilgan tasavvufiy ta'limotlar, xususan, amaliy tasavvuf davri va uni to'la namoyon etuvchi tavba tushunchasidan tortib, fano (yo'qlik) tushunchasigacha ifodalashga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: *Mir Alisher Navoiy, tasavvufiy ishq, maqom, holat, sadoqatdagi ishtiyoq.*

Annotation: Mir Alisher Navoi is a well-known poet and thinker of the 15th century in the Muslim world. Sufism can be found in the works of Navoi. In his works, Navoi made many references to mystical science. Sufis and Islamic teachings have always occupied an important place in Islamic society. These teachings influenced the perceptions and hearts of people and became the basis for human behavior. Sufis, poets and thinkers tried to raise the level of thinking and activity of people by presenting mystical teachings. As one of the outstanding Muslim poets and thinkers of the 10th century Hijri, Alisher Navoi's views and works make it clear that he was fully aware of the traditions, teachings and culture of Islam that dominated the society of his time. But are there mystical teachings in his works? Which Sufi teaching is given more attention in his works? What is its significance and contribution to the rethinking of mystical concepts? In his poems, the poet used statuses and conditions (Maqamat and Ahval), as well as many mystical elements. Using mystical terms, Navoi criticizes hypocrisy, explains the concept of divine love, closeness to God, death and martyrdom, eliminates selfishness and sorrows. This article attempts to express the mystical teachings presented in Navoi's work, particularly from the period of practical mysticism and the concept of repentance, fully manifesting it, to the concept of fano (absence).

Keywords: *Mir Alisher Navoi, mystical love, status, case, eagerness in devotion*.

Аннотация: Мир Алишер Навои – известный поэт и мыслитель в мусульманском мире XV века. В творчестве Навои можно найти Суфизм, в его произведениях много элементов суфизма. Суфии и исламские учения всегда занимали важное место в исламском обществе. Эти учения повлияли на восприятие и сердце людей и стали основой гуманного поведения. Суфии, поэты и мыслители пытались поднять уровень мышления и активности людей, представляя мистические учения. Алишер Навои, как один из выдающихся мусульманских поэтов и мыслителей X века хиджры, в его взглядах и произведениях ясно видно, что он в полной мере осознавал традиции, учение и культуру ислама, господствовавшего в обществе его времени. Но есть ли в его произведениях мистические учения? Какому суфийскому учению уделяется больше внимания в его произведениях? Каково его значение и вклад в переосмысление мистических концепций? В его стихах поэт использовал статусы и ситуации (Макамат и Ахвал), а также множество мистических элементов. С помощью мистических терминов Навои критикует лицемерие, объясняет понятие божественной любви, избавляется от эгоизма, избавляется от скорбей, близости к Богу, смерти и мученичества. В данной статье предпринята попытка выразить мистические учения, представленные в творчестве Навои, в

частности, от периода практического мистицизма и концепции покаяния, полностью его проявляющей, до концепции фано (отсутствия).

Ключевые слова: *Мир Алишер Навои, мистическая любовь, статус, состояние, страсть в верности.*

KIRISH

Navoiyning dunyoqarashi bilan tanishish, uning so‘fiylar ta’limotini o‘ta puxta va sinchkovlik bilan egallaganini va o‘z asarlarida bu haqida fikrlar yuritganini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, u so‘fiylar ta’limotining eng quyi darajasi, ya’ni tavbadan tortib, tasavvufning eng yuksak darajalarigacha, ya’ni fano, vahdat (birlik), hayratni o‘z asarlarida, ayniqsa, she’rlari devonida o‘ziga xos va ta’sirchan ifodalaganining guvohi bo‘lamiz. Albatta, buning ajablanarli joyi yo‘q, chunki u Jomiyning shogirdlaridan bo‘lib, Hofiz, Sa’diy, Mavlaviyning qarashlari va ijodiga jiddiy e’tibor bergan. Uning o‘zidan oldingi salaflar izidan borishi adabiy uslubdagi mahoratini hamda irfoniy adabiyot bilan yaqinligini ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bir qancha tadqiqotchilar, xususan, S. G‘aniyeva, A. Erkinov, A. Hayitmetov, A. Mirzayev kabi tadqiqotchilar o‘z ilmiy asarlarida Alisher Navoiyning so‘fiylik haqidagi qarashlari haqida fikr bildirganlar. Ularda Navoiyning she’riyati va nasrida so‘fiylik an’analarini chuqur anglash va qadrlash, xususan, uning ishq, ma’naviyat va ilohiylik tabiati haqidagi g‘oyalarda namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Bu tadqiqotlarda Navoiyning falsafiy-ma’naviy qarashlariga, xususan, so‘fiylik orqali ichki osoyishtalik va ma’rifatga intilishga alohida e’tibor qaratilgan. Tasavvufning Navoiy tafakkuri va ijodiy faoliyatiga ta’siri ko‘rsatilib, shoirning so‘fiylik an’analari bilan chuqur aloqadorligi yoritib berilgan. Umuman olganda, bu tadqiqotchilar Alisher Navoiyning so‘fiylik haqidagi qarashlarini tushunishga katta hissa qo‘shgan. Bu olimlarning xulosalarini tahlil qilish va umumlashtirish orqali Navoiyning tasavvufga bo‘lgan qarashlari, uning ijodiy faoliyatiga ta’siri haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Navoiyning Foniy devoni g‘azallarini o‘rganish jarayonida tahlil, irfoniy-badiiy tahlil, qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Navoiyning forsiy tildagi g‘azallaridan baytlar keltirib, ularning atamalariga va ularning mazmun-mohiyatiga tushuntirish berishda nazariy jihatdan yondashish uslubidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Navoiyning so‘fiyona qarashlari, harakatlarining natijalari uni buyuk haqiqatni qabul qilishga yetaklaydi. Bugungi kunda diniy plyuralizm, bag‘rikenglik deb

ataladigan tushunchalar uning so‘fiylik nazariyasida o‘z rang-u bo‘yini ochib berdi. Navoiy Ka’ba va dayr o‘rtasida farq yo‘qligini ta’kidlaydi:

کعبه و دیر تفاوت نکند چون همه جا،
دیده بر روی تو و میل دلم سوی تو بود.

Ka’ba bilan dayrda tafovut yo‘q, chunki hamma joyda
Ko‘zim yuzingda-yu, dilim mayli senda edi (Devoni Foniy, 175-g‘azal, 154-bet)

U bugungi kun mutafakkiri va Mavlaviy nazariyasi kabi Ka’baga boradigan barcha yo‘llarni ochiq deb hisoblaydi:

باده ده ز آن که زهر خانه سوی حق راه است
اگر از گوشه مسجد و گر از کنج کنشت

Boda ber, chunki har uydan Xudo sari bir yo‘l bor,
Agar u masjid burchagi bo‘lsin, yo kaliso kunji. (Devoni Foniy, 108-g‘azal, 81-bet)

Uning so‘fiylik va estetik qarashi uni shu bosqichga yetaklaydiki, qiblaning yaqini faqat jon do‘stidir:

نیست جز دولت مرا قبله ی جان، ای زاهد
ساکن دیر و گر عازم بیت اللهم

Dayrda ham, masjidga ketayotgan bo‘lsam ham
Qiblai jonim do‘stdan boshqa emas. (Devoni Foniy, 334-g‘azal, 237-bet)

Va nihoyat, u orifni so‘zsiz, ishonchlilar ahlidan deb biladi va unga shubha ko‘zi bilan qaramaydi:

عارف آن دان که گر افلاک ز هم بشکافد
به شهودش نرسد شاییه نقص و قصور.

Agar falak ikkiga ayrilganda ham, e’tiqodiga
Nuqs-u zarar yetmasa, o‘sha kishini orif deb bil. (Devoni Foniy, 245-g‘azal, 189-bet)

Mavlaviy zikr etgan so‘fiy Navoiy nazariyasida ham to‘liq ifodalangan. Mavlaviy: “Yagona ishonchli panoh Hazrati Haqdir, boshqa panohlar muvaqqat (qulaguvchi)” degan edi.

هیچ کنجی بی در و بی دام نیست،
جز به خلوتگاه حق آرام نیست

Eshiksiz, tuzoqsiz biror makon yo‘q,
Haqning xilvatidan o‘zga yerda orom yo‘qdir. (Mavlaviy, 1381: 591)

Navoiy ham aytadiki:

به غیر باقی مطلق مجوی فانی از آن رو
که به هر دلبستگی دل نشاید آنچه نپاید (همان، غ 153: ص 143)

Ey, Foniy, boqiyi mutlaqdan o‘zgani izlama,
Chunki baqosi yo‘q narsa ko‘ngil bog‘lashga arzimaydi.

Pirovardida, Alisher Navoiyning so‘fiyona harakatlarining eng oliy maqsadi – vahdatdir. U bizning qarashlarimizni xatoning natijasi deb biladi:

من و مایی نبود در ره وحدت، هشدار
که من این ما و منی از عین خطا میبینم

Vahdat yo‘lida siz biz (degan so‘z) yo‘q, hushyor bo‘l,
Chunki men bu siz bizni ayni xato deb ko‘raman. (Devoni Foniy, 353-g‘azal, 247-bet)

Navoiy ham ko‘p so‘fiylar kabi o‘zining asl maskanini unutib, sarson-sargardonlik g‘amidan so‘z ochadi:

غربتی پیش من افتاد و عجب دور و دراز
که بشد منزل اصلی همگی از یادم (دیوان، غزل 319، ص 228)

Menga olisdan-olis musofirlik nasib bo‘ldi,
Asl manzilim hammasi yodimdan ko‘tarilib ketdi.

(Devoni Foniy, 319-g‘azal, 228-bet)

U bu dunyoning beqaror mohiyatiga ishora qiladi:

فانی چه شوی شیفته دهر که کونین
در دشت فنا جمله نمودار سراب است (دیوان، غزل 94، ص 115)

Ey Foniy, dunyoga nima uchun maftun bo‘lasan, holbuki,
Fano dashtida ko‘ringan barcha narsalar sarobdir.

(Devoni Foniy, 94-g‘azal, 115-bet)

U so‘fiylar singari dunyoni ishvagar makkora qari ayoldek, insonni esa uning asiri deb biladi:

بین سوی پیره زن عشوه گر دهر که چون
رستمانند زبونش، چه عجایب زالی است (دیوان، غزل 84، ص 109)

Ishva qiluvchi jahon kampiri tomoniga qara, uning
oldida Rustamlar mag‘lubdir, bu qanday ajoyib kampir ekan?

(Devoni Foniy, 84-g‘azal, 109-bet)

Navoiy dunyoning bevafoligidan yozg‘iradi:

چون بی وفاست غمکده دهر، می بیار
بودن در این سرای، دمی هوشیار چیست؟ (دیوان، غزل 90، ص 113)

Modomiki, bu g‘amxona dunyo bevafo ekan, may keltir,
Bu dunyoda bir dam hushyor bo‘lmoq nimaga kerak?

(Devoni foniy, 90-g‘azal, 113-bet)

Va so‘nggida dunyoning davlat-u iqboli barchasi xayol bo‘lib, bu olamdagi barcha o‘xshash silsilaning hammasi hechdir, deya uqtiradi. (Devoni Foniy, 91-g‘azal, 113-bet)

Navoiy o‘z tinglovchilarini vaqt qadrini bilishga chaqirib, vaqt insonlarning qayg‘u, umidlari va ishonchlari natijasi deb hisoblaydi:

نقد وقت آر به کف، ز آنکه پریشان وقت
پیر ره جمله ز آمال و امانی دانست (دیوان، غزل 117، ص 126)

Vaqtni g‘animat bil, negaki tariqat piri
Vaqt parishonligini amallar-u omonlikdan deb biladi.

(Devoni Foniy, 117-g‘azal, 126-bet)

Tasavvufdagi eng ko‘zga ko‘ringan istilohlardan biri vaqt bo‘lib, so‘fiylar vaqt hal qiluvchi ekanligini ta’kidlaganlar: Vaqt g‘olib tig‘dir (Tabriziy, 1398: 102). Deydilarki, “Vaqt qimmatli, uning qadrini hamma ham tushuna olmaydi” (Obodiy, 1347: 193). Xuddi shu ma’noda Alisher Navoiy ham vaqtdan unumli foydalanishga chorlaydi (Devoni Foniy, 23-g‘azal, 183-bet). Navoiy so‘fiylik an’analariga ko‘ra, odamlarni haqiqat izlashga chorlab, haqiqatga muvaffaqiyatsiz erishish mumkin bo‘lmasa-da, umidsizlikka tushmaslik, izlanish kerakligini aytadi:

اگرچه وصل بی توفیق ممکن نبود، ای فانی،
مشو نومید و در راه طلب سعی آنچه بتوانی کن (دیوان، غ 413، ص 277)

Ey Foniy, tavfiqsiz vasl mumkin bo‘lmasa ham,
Noumid bo‘lma, talab yo‘lida qo‘lingdan kelganicha urin!

(Devoni Foniy, 413-g‘azal, 277-bet)

U visol talabi oldida butun olamni arzimas deya ta’kidlaydi:

در طلب وصل پیش همت عاشق
دهرو در او هرچه هست، مختصر آید (دیوان، غ 179، ص 157)

Vasl talabi oshiq himmati oldida
Dunyo ham, undagi barcha narsalar ham ahamiyatsiz ko‘rinadi.

(Devoni Foniy, 179-g‘azal, 157-bet)

Navoiy qalbni poklash zarur ekanligini ta’kidlab, ezguligi bo‘lmagan har qanday qalbga inoyat harom deb hisoblaydi va g‘uborsiz qalbni ko‘zguga mengzaydi. (Devoni Foniy, 101-g‘azal, 118-bet). So‘fiylik an’analariga ko‘ra, tavba yuksalish yo‘lidagi birinchi qadamdir. Xoja Abdulloh aytadiki: “Tavba – davodir”. Tavba - yo‘l nishonasi, ezgulik yo‘lboshchisi, xazina kaliti, shafoatchi, ulug‘ vositachi, qabul sharti, saodat toji. Tavbaning ustuni uch narsadir: Qalbda tazarru, tilda uzr va yomonlikdan yiroqlik (Ansoriy, 1368: 18).

Navoiy tavba va hatto taqvo tushunchasini ham muhokama qilgan:

ای مغ بچه بس توبه شکستی و گنه بود
گر توبه ما را شکنی هست ثوابت (دیوان، غ 108، ص 121)

Ey mug‘bacha, ko‘p tavba ushatding, u gunoh edi,
Agar bizning tavbamizni ushatsang - senga savobi bor.

(Devoni Foniy, 108-g‘azal, 121-bet)

So‘fiylar ta’limotiga ko‘ra, tavbadan keyingi davr tazarrudir. Ansoriy aqidasiga ko‘ra, oriflarning tazarrusi Ungagina qaytishdir: “Faqat Allohgagina suyaning”. Tasavvuf ahlining uchta belgisi bor: Biri gunohdan yiroq bo‘lish, ikkinchisi hayo bilan itoatda bo‘lish, insonlik haqiqati bilan yolg‘iz qolishdir (Ansoriy, 1368: 19). Navoiy o‘z tinglovchilarini ham “tavba qilgan” deb ataydi. (Devoni Foniy, 78-g‘azal, 106-bet). So‘fiylar, tavba qilgandan so‘ng, inson o‘z xatti-harakatida ixlosini namoyon qilishi kerak, deb hisoblaydilar. Ular bu irodat (tariqatni irodat ham deydilar. Ya’ni irodani shayx irodasiga topshirishni botindagi asl haqiqatga yaqinlashtirgani sababli muhabbat shu’lasi deb atashadi. Shuningdek, irodat inson qalbida ishq uchqunlari sifatida tasvirlangan. (Guhareyn, 1368: 145-bet). Shu ma’noda irodat odatni rohat bilan tark etish hisoblangan. Navoiy irodatni do‘stning irodasini toblab va uni o‘z xohishidan ustun qo‘yish, deb biladi. (Devoni Foniy, 115-g‘azal, 125-bet).

So‘fiylik ta’limotiga ko‘ra, insonning nafs changaliga o‘ralashib qolishi uning hayotda to‘g‘ri yo‘ldan adashishiga sabab bo‘ladi. Nafs inson taraqqiyoti yo‘lidagi katta to‘siqdir. Shu boisdan ham, banda qachonki nafsini yer qa’riga ko‘msa, uning qalbi osmon cho‘qqilariga ko‘tariladi, deyilgan (Siroj Tusiy, 1394: 240). Navoiy ham “O‘zlik yuki og‘ir va yuksalishga to‘sqinlik qiladi, shuning uchun undan qutulish kerak”, deb ta’kidlagan. (Devoni Foniy, 352-g‘azal, 246-bet). Uning fikricha, inson toki o‘zligi bilan birga ekan, matlabiga yeta olmaydi, u haqiqat yo‘lini topishi uchun o‘zidan ozod bo‘lmog‘i kerak. (Devoni Foniy, 430-g‘azal, 286-bet). U ilm va tasavvufga erishish uchun insonning nafsini tark etishi zarurligini va nafsni tark etmagan kishi bu safarni yakunlay olmasligini ta’kidlaydi. (Devoni Foniy, 206-g‘azal, 171-bet). Albatta, Xudoning marhamati insonga nasib qilmasa, o‘zlik sahrosini kesib o‘tish qiyin, deb hisoblaydi. (Devoni Foniy, 210-g‘azal, 172-bet). Navoiy boshlang‘ich va an’anaviy ta’lim usullarini insonni o‘zlik yukidan ozod qilish yo‘li deb hisoblamaydi. U maktab o‘quvchilarini o‘zligini sevuvchi deb hisoblaydi:

خودبینی اهل مدرسه دانند فاینا (دیوان، غ 266: ص 200)

Ey Foniy, maktab o‘quvchilari takabburlik neligin biladilar

(Devoni Foniy, 266-g‘azal, 200-bet)

U o‘z davridagi va’zxonlarning so‘zlarini, din va ma’naviyat holatini tanqid qilib, da’vatchilarning va’zgo‘yligi xudbinlikdan boshqa narsa emas, deb hisoblaydi. Navoiy fikricha, voiz tushkun holatda, qush esa vahmda. (Devoni Foniy, 67-g‘azal, 100-bet). Va ularga voizning faryodiga quloq solmaslikni, buning o‘rniga mug‘anniyning kuyini tinglashni tavsiya etadi. (Devoni Foniy, 430-g‘azal, 286-bet). U voizlarning va’zlarini g‘ofillik sababi deb hisoblab, buni afsonaviy uyquga qiyos etadi. (Devoni Foniy, 13-g‘azal, 73-bet).

Shayxning va’z-u nasihatlari bilan ishq va maydan kechmayman, chunki uning so‘zlari goh afsona, goh afsundir, deya ta’kidlaydi. (Devoni Foniy, 63-g‘azal, 99-bet). Navoiy o‘z tanqidini davom ettirib, aql, ishq va xulq o‘rtasidagi doimiy ziddiyatga ham

ishora qiladi. Bu yo‘lda ilm-u amal ojizligi, Haq visoliga bog‘lanish yo‘li esa fano aqidasi ekanligini aytadi. U majnunlik va ishqni aql bilan topib bo‘lmaydigan narsa, deb biladi. (Devoni Foniy, 318-g‘azal, 227-bet).

Aql va ishq o‘rtasidagi ziddiyat hikoyasi so‘fiy adabiyotida juda yaqqol namoyon bo‘lib, Navoiy ham bunga e’tibor bergan:

Sarxush boshimiz aql doirasidan chiqib ketdi. (Devoni Foniy, 66-g‘azal, 100-bet).

Uning fikricha, dono keksa ham ishq qarshisida maktab bolasi kabidir. (Devoni Foniy, 46-g‘azal, 90-bet).

Navoiy o‘z davri va jamiyatining illatlariga to‘la e’tibor berib, ijtimoiy tanqidchi sifatida harakat qilgan. U o‘z jamiyatidagi illatlarni ikkiyuzlamachilik, zohidlik deb tanishtiradi. Munofiq do‘stlarga e’tibor bermaslik, tariqat yo‘lidan chin do‘st izlash kerakligini aytadi. Ammo bunday do‘st qayerda? (Devoni Foniy, 87-g‘azal, 111-bet). Munofiq ahlining oldiga bormang, chunki ularning oldiga borgan har bir kishi pushaymon bo‘ladi, deydi. (Devoni Foniy, 170-g‘azal, 152-bet). U shayx va ulamolarni ikkiyuzlamachi deb ko‘rgani uchun ularni tanqid qiladi: Shayx uchun munofiqlik xushdir. (Devoni Foniy, 48-g‘azal, 91-bet). Tariqat yo‘lida riyo chirkinligidan poklanmoqchi ekanligini bayon qiladi. (Devoni Foniy, 23-g‘azal, 79-bet). Tasbehning munchoqlarini sanaydigan munofiq Shayxga e’tiroz bildiradi. (Devoni Foniy, 34-g‘azal, 84-bet).

Zohidlik erishuvchining o‘tishi kerak bo‘lgan bosqichlardan biridir. Chunki Haq visoliga yetishish uchun kishi ozod bo‘lishi, dunyoni va undagi hamma narsani tark qilishi kerak. (Rejoyi Buxoroyi, 1364: 241). Shuningdek, zohidlik oxirat farovonligini ta’minlash uchun bu dunyoning ne’matlaridan voz kechish deb ta’riflangan. (Domodiy, 1367: 85, Jurjoniyda keltirilgan 1357: 87).

Navoiyning ta’kidlashicha, qiymatga ega bo‘lgan ko‘plab tushunchalar ma’lum vaqt o‘tishi bilan salbiylashib, o‘z ta’sirini yo‘qotgan. U zuhd tushunchasiga alohida e’tibor beradi. Buyuk so‘fiylar adabiyotida zohidlik ijobiy ma’noga ega bo‘lgan. Ansoriy dunyoda zohidlik alomatini uch narsa deb bilgan: o‘limni zikr qilish, boriga qanoat qilish va darveshlar bilan suhbatlashish. (Ansoriy, 1368: 25). Lekin Navoiy va Hofiz davrida bu tushunchalarda birmuncha o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Chunki Hofiz ham munofiq zohidlikni ulug‘laydi va deydiki: Gumroh pirlar – zohid shayxlar, bizni afsona qildilar. Alisher Navoiy o‘zining “Devon”ida qirq besh martadan ortiq zohidlik va uning tushunchalari haqida bahs yuritib, diniy va ijtimoiy kamchilik sifatida bu tushunchaga e’tibor bergan. U zuhd va ofiyatni afsona deb biladi. (Devoni Foniy, 64-g‘azal, 99-bet). U zohidlikni ayb deb biladi. (Devoni Foniy, 103-g‘azal, 119-bet). U zohidlik va taqvo bilan o‘z maqsadiga erishmaganini aytadi. (Devoni Foniy, 196-g‘azal, 165-bet). Navoiy riyokor zohidlikni mushkul vazifa deb biladi:

فانی اندر سیر اطوار طریقت هرچه دید، بود نیکو
لیکنش زهد ریایی شاق بود (همان، غ 151: ص 142)

Foniy, tariqatda qanday atvor va odatni ko‘rsa
Hammasi yaxshi, faqat zuhd-u riyo yomon va qiyin.

(Devoni Foniy, 151-g‘azal, 142-bet)

Navoiy zohidlikning salbiy tomonlarini qayta-qayta ifodalaydi. (Devoni Foniy, 337-g‘azal, 239-bet). Do‘stga erishish uchun to‘siq (Devoni Foniy, 200-g‘azal, 167-bet), insonlarda yuzlab kasalliklarni keltirib chiqaruvchi (Devoni Foniy, 131-g‘azal, 132-bet), riyokorlikning kelib chiqish sababi deya izohlanadi (Devoni Foniy, 181-g‘azal, 158-bet). Navoiy nazarida, zohidlik va taqvo ridosi qadrsizdir (Devoni Foniy, 267-bet, 200-g‘azal) va zohidlik insoniyat zulmatining manbasiga aylanadi:

مرا در خانقه زهد و خرد بس تیره می دارند
خوش آن رندی که در دیر مغان سرمست شیدا شد (دیوان، غ 152: ص 143)

Xonaqohda zuhd-u aql ta’bimni tirriq qiladi,
Mug‘lar dayrida mast va shaydo bo‘lgan rindga qanday yaxshi.

(Devoni Foniy, 152-g‘azal, 143-bet)

U hatto zohidlikni tushkunlikning sababi deb ataydi. (Devoni Foniy, 254-g‘azal, 193-bet) va zohid xonaqohining noni esa harom sanaladi (Devoni Foniy, 101-g‘azal, 118-bet), u vaqti-vaqti bilan zohidlikdan kechib xarobot makoniga borishni, sarmastlar davrasini maslahat beradi (Devoni Foniy, 66-g‘azal, 101-bet). Uning aytishicha, xarobotda zohidlik tan olinmaydi, shuning uchun uni olovga uloqtirish afzalroq: Bu zohidlik va taqvo libosini olovga tashlayman (Devoni Foniy, 12-g‘azal, 72-bet). Navoiy hatto taqvoning zulmati haqida gapiradi: Taqvo zulmatidan ko‘zlarim xira tortdi (Devoni Foniy, 378-g‘azal, 259-bet). Munofiq zohidlikdan esa suv bilan tahorat olish orqali poklanish mumkin (Devoni Foniy,149-g‘azal,141-bet). Dilimning maqsadi ikki yillik bodadan hosil bo‘ladi, nega endi Kavsar uchun qirq yil zuhd bilan qon ichaman, deydi (Devoni Foniy,183-g‘azal, 159-bet). U xonaqoh va riyokor zohidlikdan charchaganligini ochiqchasiga e’lon qiladi va mayxonaga yo‘l oladi. Aftidan, u dindorlikni hayratlanarli narsa deb hisoblab, tashqi ko‘rinishni tanqid qilgan:

دلم از خانقه و زهد ریایی بگرفت
راه میخانه کجا، ساقی عیار کجاست
مسجد و شیخ مرا جانب عجب افکندند
دیرکو، مغبیه شوخِ قدح خوار کجاست

Bu riyolik zuhddan va xonaqohdan ko‘nglim ozor topdi,
Mayxonaning yo‘li qayoqda va ayyor soqiy qaydadir?
Shayx bilan masjid meni takabburlik yo‘liga soldi,
Mayxona qayerda-yu, sho‘x mug‘bacha qaydadir?

(Devoni Foniy, 86-g‘azal, 111-bet)

Navoiy solikni zohidlik va riyokorlik uyidan uzoqlashishga ochiqdan-ochiq taklif qiladi, agar dayrga yuzlansa, Alloh u bilan birga bo‘ladi. (Devoni Foniy, 305-g‘azal, 221-bet). U mayni poklik va ozodlikning manbai, eski dardning davosi sifatida tasvirlaydi (Devoni Foniy, 297-g‘azal, 216-bet). Alisher Navoiy hatto shayx zohidligidan mayni afzal ko‘radi:

می ده که جرم ما به دو صد زاری و نیاز
زان زهد به که شیخ به عجب و ریا کند (همان، غ 158: ص 146).

May ber, ko‘p zor-u niyoz bilan qilgan gunohimiz
Shayxning takabburlik va riyo bilan qilgan savobidan yaxshiroqdir.

(Devoni Foniy, 158-g‘azal, 146-bet)

U o‘zini zohidlikdan pok deb biladi (Devoni Foniy, 361-g‘azal, 251-bet) va u o‘ta zukkolik va xushmuomalalik bilan deydiki:

هر شب به اهل زهد و ریا در نماز شب!
صد تفرقه به نعره مستانه افکنم (همان، غ 361: ص 251)

Har kecha mastona na’ra (urib), zuhd-u riyo ahlining
Kechki namozini yuz martalab buzib yuboraman.

(Devoni Foniy, 361-g‘azal, 251-bet)

Va nihoyat, mug‘bachadan madad so‘rab, biz dinni va zohidlikni tark qildik, bor mushkulot va tugunni yechgin, deydi (Devoni Foniy, 18-g‘azal, 76-bet).

Dastlab zohidlik ijobiy tushuncha edi, lekin Hofiz nazdida u voiz, shayx, muftiy, shahar imomi, mulku-l-hoj, qozi kabi salbiy timsollaridan biri bo‘lib, masjid, xonaqoh, ziyoratgoh, riyozatgohlar ahlidir. (Xurramshohi, 1367: 365) Alisher Navoiy Hofizning zohid va riyokor voizlarga shafqatsiz hujumini tanqid qiladi. U riyokor taqvosi sabab qalbi iztirob chekkan zohidni soxta yig‘lashdan yaxshiroq deb bilmaydi (Devoni Foniy, 248-g‘azal, 191-bet) va zohidlar tumorini ko‘plab afsonalarda tasvirlagan (Devoni Foniy, 164-g‘azal, 149-bet), ularni muqaddas hisoblamaydi, ularga duch kelganda tasavvufiy fikrlarni aytishdan saqlanishni aytadi (Devoni Foniy, 192-g‘azal, 163-bet). U zohidlarni yolg‘onchi, riyokor deb biladi (Devoni Foniy, 228-g‘azal, 181-bet), zohidning tavbasida esa poklik ko‘rmaydi:

چون صفا از توبه، اهل زهد را ظاهر نشد
چون بدین تکلیف رندان را مکلف می کنند (همان، غ 229: ص 182)

Zohidlarning tavba qilishdan ko‘ngillari yorishmaydi-yu,
Nima uchun shu xildagi taklif bilan rindlarning ko‘ngillarini xira qiladilar?

(Devoni Foniy, 229-g‘azal, 182-bet)

U zohidni sajdada ham haqiqatdan uzoq ko‘radi (o‘sha kitob, 62-g‘azal, 98-bet). Navoiy ham shayxlarning ikkiyuzlamachiligiga e’tiroz bildirib, ularning sharmandaligi zohidlik da’vosi tufaylidir, deb hisoblaydi:

شیخ کز میکده بردند به بازارش مست
دعوی زهد شدش باعث چندین تفضیح (همان، غ 136: ص 134)

Shayxni mayxonadan mast holida bozorga olib bordilar,
Toat-ibodat da'vosi uning shuncha sharmanda bo'lishiga sabab bo'ldi.

(Devoni Foniy, 136-g'azal, 134-bet)

U o'z ishining hisobini zohiddan farqlaydi va Yorning inoyatidan o'zini umidvor deb biladi (Devoni Foniy, 240-g'azal, 187-bet). Navoiy tasavvufiy kechinmalarga duch kelishni tariqatning sharti sifatida sanab o'tadi. Navoiy ham xuddi Hofiz singari zohidlarni ishq ahlini tushunishga ojizligini, ishqning tili boshqacha ekanligi, zohidlar bu til taronasini tushunmasliklarini ta'kidlab, shuning uchun ular sukut saqlagani ma'qulroq, deydi (Devoni Foniy, 395-g'azal, 267-bet). U sevgi mojarosi va zohidlik o'rtasida juda ko'p tafovutlarni ko'radi:

فرق ها هست به رسوایی عشق ای زاهد
کز تو نام نکو افتاد وز ما نام افتاد (همان، غ 166: ص 150)

Ey zohid, ishq rasvoligida farq bor,
Chunki sendan yaxshi nom ketdi-yu, bizdan or-nomus.

(Devoni Foniy, 166-g'azal, 150-bet)

Mir Alisher zohidlarni mayxonaga taklif etadi, chunki bu ularning bo'g'iq dimoqlariga shifo bo'ladi (Devoni Foniy, 133-g'azal, 133-bet). U soliklarning ichimligini zohidning ichimligidan farq qilib, o'zini sharobdan sarxush, zohidni esa Kavsar g'amida ko'radi (Devoni Foniy, 17-g'azal, 75-bet). Navoiy soliklarni sog'arga nom-u obro'sini to'kuvchi ofiyat izlayotgan odamlar deb hisoblamaydi (Devoni Foniy, 25-g'azal, 80-bet).

Mir Alisher xuddi Hofizga o'xshab, zamon dindorlarining xulq-atvorini tanqid qilgan. Bir tomondan, Alisher so'fiylarni madh etib, ularga ergashib, so'fiylar meni ma'naviy oziqlantirgan, yashirin sirlardan voqif etgan, deydi (Devoni Foniy, 226-g'azal, 180-bet). Azal tongining chiqadigan joyi darveshlar diydori bo'lib, abadiy naqdina xazinasi darveshlarning xazinasidir (Devoni Foniy, 58-g'azal, 180-bet). Lekin gohida so'fiylarni tanqid qilib, umrlarini dabdaba va riyokorlikda o'tkazganliklarini aytadi:

سپری کردند: از صوفی رعنا چه صفا چشم توان داشت
کش عمر گرامی همه در زرق و ریا رفت (همان، 100: ص 118)

Aziz umrning barchasini zarq-u riyo bilan o'tkazgan
Firibgar so'fiydan soflikni qanday kutish mumkin?

(Devoni Foniy, 100-g'azal, 118-bet)

Navoiy ham so'fiylar kabi tariqat va maqomot qadamlarini to'liq e'tirof etib, ularga e'tibor beradi, faqirlik mavqeini xulq uchun zarur deb biladi. Faqirlik tavsifi bayonida aytiladiki, faqirlik unvoni, faqirlik rasmi va haqiqati bo'lib, istaklarga qaramay turib unvoniga, zohidlik va haqiqatga qaramay rasmiga erishish imkonsizdir. Haqiqat ahli bor narsani molik-u mulk vositasida ko'radi. Faqirlar qashshoqligi ma'lum sabablarning bor yoki yo'qligiga qaramay o'zgarmaydigan o'ziga xos

xususiyatdir (Koshoniy, 1372; 375-bet). G‘azallarida “Foniy” taxallusini qo‘llagan Alisher faqirlik yo‘lida yurishga chorlaydi:

فانی به ره فقر درآ نکته مگو بیش
گر مرد رهی پیش میار این همه فن‌ها (دیوان نوایی، غ 30: ص 82)

Foniy, faqr yo‘liga kirgin-u ortiqcha bir nukta aytma,
Agar yo‘l mardi bo‘lsang bu hamma fanlaringni pesh qilma.

(Devoni Foniy, 30-g‘azal, 82-bet)

U o‘zini qashshoqlik mashaqqatlarini yengishda juda abjir, deb hisoblaydi (Devoni Foniy, 411-g‘azal, 276-bet). U faqirlik maqomini dunyoviy hukmdorlar maqomidan yuksak biladi:

کی به چشم آرم لباس و مسند شاهانه را
من که خواهم دلق فقر و گوشه میخانه را (همان، غ 13: ص 73)

Men faqirlik dalqi (libosi), mayxona burchagini istayman.
Shunday ekan, shohlik kiyimi va masnadini qachon ko‘zga ilaman?

(Devoni Foniy, 13-g‘azal, 73-bet)

U hamma narsadan kambag‘allikni afzal ko‘rib, yaxshi yoki yomon kunlardan qo‘rqmaydi, qayg‘urmaydi:

گردون اگر بود خوش و ناخوش چه غم، چو من
ز اقبال فقر هرچه به پیش آیدم خوشم (همان، غ 36: ص 251)

Gardun yaxshi va yomon bo‘lsa menga ne g‘am,
Faqirlik tufayli boshimga ne kelsa ham xushdir.

(Devoni Foniy, 36-g‘azal, 251-bet)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Alisher Navoiy fikrlarini ko‘rib chiqish uning suluk darajalari, bosqichlari va tasavvufiy maqomotdan to‘liq xabardor ekanligi haqidagi farazlarni isbotladi. U o‘z jamiyatining qusurlarini bilib, zohid riyokorligini va ikkiyuzlamachiligini tanqid qilgan. U o‘z asarlarida tavbadan fanogacha, ishqdan shuhudgacha, masjid-u xonaqohdan dayr-u Makkagacha kabi yuksak irfoniy tushunchalarni juda yaxshi talqinlar bilan taqdim etganligi tasavvuf ta’limotlarini puxta egallaganligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy mutafakkir sifatida ham, shoir sifatida ham, juda yuksak mahorat va saviyaga ega bo‘lganligi, nafaqat turkiy asarlarida, balki, fors tilida yozgan asarlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, devoni Foniyda o‘zidan oldin yashab ijod qilgan mashhur fors shoirlarining ijodi - Sanoiydan tortib, Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Mavlono Balxiy, Umar Xayyom va G‘ayralardan xabardor ekanligi, u zotlarning sara fikrlarini Navoiy turkona zavq bilan o‘z she’rlarida mujassam etgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1- انصاری، خواجه عبدالله، صدمیدان، به اهتمام قاسم انصاری، تهران، کتابخانه طهوری، 1368.
2- الفتی تبریزی، شرف‌الدین حسین بن احمد، رشف الالحاظ فی کشف الالفاظ یا فرهنگ نمادهای عرفانی در زبان فارسی، به تصحیح نجیب مایل هروی، تهران، انتشارات مولی، چاپ ششم، 1398.
3- جامی، عبدالرحمن، سه رساله در تصوف، لوامع و لوایح، با مقدمه ایرج افشار، تهران، انتشارات فرهنگ ایران زمین، 1360.
4- جرجانی، علی بن محمد (میرسید شریف)، تعریفات، قاهره 1357 = 1938.
5- خرمشاهی، بهاءالدین، حافظ نامه، تهران، انتشارات علمی و فرهنگی و انتشارات سروش، 1367.
6- خوارزمی، کمال الدین حسین، ینبوع الاسرار فی نصائح الابرار، به اهتمام مهدی درخشان، تهران، انتشارات انجمن استادان زبان و ادبیات فارسی، 1360.
7- دامادی، سید محمد، شرح بر مقامات اربعین، تهران، انتشارات دانشگاه تهران، 1367.
8- دیوان حافظ، به کوشش محمد قزوینی و غنی، تهران، زوار، 1367.
9- رجایی بخارایی، فرهنگ اشعار حافظ، تهران، انتشارات علمی، 1364.
10- سراج طوسی، ابونصر، اللمع فی التصوف، به تصحیح رینولد نیکلسون، ترجمه قدرت الله خیاطیان و محمود خورسندی، سمنان، انتشارات دانشگاه سمنان، چاپ دوم 1394.
11- سعدی، کلیات شیخ سعدی، به تصحیح محمدعلی فروغی، تهران، انتشارات علمی، 1354.
12- عبادی، قطب الدین ابوالمظفر منصور بن اردشیر، التصفیه فی احوال المتصوفه، به تصحیح دکتر، غلامحسین یوسفی، تهران، 1347.
13- کاشانی، عبدالرزاق، فرهنگ اصطلاحات عرفانی و تصوف (ترجمه اصطلاحات صوفیه)، محمد خواجوی، تهران، انتشارات مولی، چاپ سوم 1387.
14- کاشانی، عزالدین محمود، مصباح الهدایه و مفتاح الکفایه، تهران، موسسه نشر هما، 1372.
15- کلود واده، ژان، حدیث عشق در شرق، جواد حدیدی، تهران، مرکز نشر دانشگاهی، 1372.
16- گوهرین، سید صادق، شرح اصطلاحات تصوف، تهران، انتشارات زوار، 1368.
17- مولوی، جلال الدین محمد بلخی، مثنوی معنوی، به اهتمام نیکلسون، تهران، 1365.
18- نجم الدین کبری، الاصول العشره، ترجمه عبدالغفور لاری، به اهتمام نجیب مایل هروی، تهران، انتشارات مولی، 1362.
19- نوایی، امیرعلیشیر، دیوان امیرنظام الدین علیشیرنوایی، به اهتمام رکن الدین فرخ همایون، تهران، انتشارات اساطیر، چاپ اول، 1375.
20. Shoaliyeva, N. (2024) “Fariduddin Attar and Sufism literature” International Journal of Social Science and Human Research. Volume 07, Issue 01, January, DOI: 10.47191/ijsshr/v7-i01-88, Impact factor: 6.686, Page No: 688-691 https://ijsshr.in/v7i1/Doc/88.pdf
21. Shoaliyeva, N. (2024) “The pleasure of being human” Genius Journals Publishing Group, Brussels, Belgium, In volume 28 of Eurasian Research Bulletin, January, pp. 4-7. https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/5501

“KAVKAZ ARSLONI” – IMOM SHOMILNING KURASHI VA UNING MAKKA VA MADINADAGI HAYOTI

THE STRUGGLE OF IMAM SHAMIL – “THE LION OF THE CAUCASUS” AND HIS LIFE IN MECCA AND MEDINA

БОРЬБА ИМАМА ШАМИЛЯ – «ЛЬВА КАВКАЗА» И ЕГО ЖИЗНЬ В МЕККЕ И МЕДИНЕ

Saydumarov Murtazo G‘oziyevich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Axborot va arab-rus tadqiqotlari markazi
akademik dasturlar direktori,
Ar-Riyod, Saudiya Arabistoni,
Tel.: +998 90 824-67-60
msaydumarov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada misr yozuvchisi Munir Utayba haqida, uning ijodiy ishlari, hamda arab adabiyoti va madaniy muhitida tutgan o‘rni xususida ma’lumotlar beriladi. Ayniqsa, Munir Utaybaning “Kavkaz arsloni” nomli romani jahon adabiyotida mashhur bo‘lib, bu romanda Kavkaz xalqlari qahramoni, Rossiya imperiyasi tomonidan Kavkaz o‘lkalarini bosib olish maqsadida XIX asrda olib borilgan va 60 yil davom etgan rus bosqiniga qarshi milliy-musulmon qarshilik ko‘rsatish harakati yetakchisi Imom Shomilning kurashi, uning musulmon davlatchiligiga asos solishi, davlat rahbari va harbiy sarkarda sifatidagi faoliyati, hamda Makka va Madinada ikki Muqaddas Masjidga qo‘shni bo‘lgan holda o‘tkazgan umrining so‘nggi yillarini aks ettiruvchi badiiy asar haqida so‘z yuritiladi. Hozirgi zamon arab adabiyotida ushbu mavzudagi birinchi badiiy asar bo‘lgan bu romanning xususiyatlari, muallif uslubi, asar qahramonlari, tarixiy va badiiy to‘qima obrazlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Munir Utayba, “Kavkaz arsloni” romani, Imom Shomil, Kavkazdagi milliy qarshilik ko‘rsatish harakati, Misr yozuvchisi, roman.*

Annotation: The article provides information about the Egyptian writer Munir Utayba, his creative works, and his role in the Arab literature and cultural environment. Especially, Munir Utayba's novel "Caucasian Lion" is famous in world literature. In this novel, the struggle of Imam Shamil, who is a hero of the Caucasian peoples, the leader of the national-Muslim resistance against the 60-year-long invasion of the Caucasus by the Russian Empire in the 19th century, the foundation of the Muslim state by him, his activities as a head of state and military commander, and the last years of his life spent in the vicinity of the two Holy Mosques in Mecca and Medina are

described. The features of this novel, which is the first fiction work on this topic in modern Arabic literature, the author's style, the heroes of the work, historical and artistic textual images are discussed in this article.

Keywords: *Munir Utaiba, the novel "The Caucasian Lion", Imam Shamil, the national resistance movement in the Caucasus, the Egyptian writer, novel.*

Аннотация: В статье дается информация о египетском писателе Мунире Утайбе, его творчестве, роли в арабской литературе и культурной среде. Особенно известен в мировой литературе роман Мунира Утайбы «Кавказский лев». В этом романе описывается борьба имама Шамиля, героя кавказских народов, лидера национально-мусульманского сопротивления против 60-летнего нашествия Российской империи на Кавказ в XIX веке, основание им мусульманского государства, его деятельность как главы государства и военачальника, а также последние годы жизни, проведенные в окрестностях двух Священных мечетей в Мекке и Медине. В статье рассматриваются особенности этого романа, являющегося первым художественным произведением на эту тему в современной арабской литературе, стиль автора, герои произведения, исторические и художественные текстовые образы.

Ключевые слова: *Мунир Утайба, роман «Кавказский лев», Имам Шамиль, движение национального сопротивления на Кавказе, писатель Египта, роман.*

KIRISH

“Jahon adabiyoti” jurnalining 2023-yil № 11 (noyabr) va № 12 (dekabr) sonlarida o‘zbek tiliga tarjima qilinib, muhtaram o‘quvchilarimiz diqqatiga taqdim etilgan “Kavkaz arsloni” romani misrlik arab yozuvchisi Munir Sayyid Muhammad Utayba qalamiga mansub bo‘lib, u Rossiya imperiyasi tomonidan Kavkaz o‘lkalarini bosib olish maqsadida XIX asrda olib borilgan va 60 yil davom etgan rus bosqiniga qarshi milliy-musulmon qarshilik ko‘rsatish harakati yetakchisi Imom Shomilning kurashi, uning musulmon davlatchiligiga asos solishi, davlat rahbari va harbiy sarkarda sifatida faoliyati hamda Makka va Madinadagi ikki Muqaddas Masjid yaqinida o‘tkazgan umrining so‘nggi yillarini aks ettiruvchi badiiy asardir. Asar arab tilida uch marta nashr etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Imom Shomil obrazini yoritishga rus adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham bir qator asarlar bag‘ishlangan. Shular qatorida uning yurtdoshi Kaziyev Shapi Magomedovich qalamiga mansub “Imam Shamil” asarida qahramon obrazi turli jihatlardan yoritib berilgan bo‘lib, kitob rus tilida “Молодая гвардия” nashriyotida 2003-yili nashr etilgan. Tel-Aviv universiteti professori Moshe Gammerning “Shomil. Musulmonlarning chorizmga qarshiligi. Chechenistan va Dog‘istonning bosib

olinishi” nomli romani ingliz tilida nashr etilgan yorqin asardir. Mazkur asar nafaqat badiiy adabiyot namunasi, balki chuqur ilmiy tadqiqot sifatida ham qabul qilinishi mumkin. Ingliz tilidan V. Simakova tarjima qilgan va Moskvada “Kron-press” nashriyoti tomonidan 1998-yili nashr etilgan ushbu kitobda Imom Shomil hayoti va kurash yo‘li turli jihatlardan yoritilgan. Unda Kavkazning Rossiya tomonidan zabt etilishi tarixi, ikki tomonning harbiy kuch-qudratlari, harbiy harakatlar manzarasi, Dog‘iston va Chechenistondagi davlatchilik asoslanishi, uning dastlabki rahbarlari – ikki imom haqida va Shomilning ham diniy, ham siyosiy rahbar sifatida shakllanishi, uning shon-shuhrati va qudratining cho‘qqisi hamda va kichik musulmon davlatining qudratli davlatga teng kela olmay taslim bo‘lishi keng yoritilgan. Biroq bu asarda Imom Shomilning Makka va Madinadagi hayoti haqida so‘z yuritilmagan. Imom Shomilning ilmparvar va ma’rifatparvarligi Natalya Shixsaidovaning “Dog‘istonning XIX asrdagi kitoblar majmuasi. Imom Shomil kutubxonasi” nomli maqolasida yoritilgan, unda bayon etilishicha, Imom Shomilning katta kitoblar kolleksiyasi mavjud bo‘lib, u tutqunlikda yashaganida ham ana shu kitoblaridan ayrilmagan (Jurnal “Axulgo”. 1999. Fevral. № 2. S. 28-33.).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozishda Imom Shomilning hayoti va faoliyatini yoritishga bag‘ishlangan romanga, hamda roman muallifining biografiyasiga murojaat qilindi. “Kavkaz arsloni” romanining o‘zbek tiliga kamina tomonidan tarjima qilinishi jarayonida to‘plangan materiallar hamda fikrlar asosida mazkur maqola yozilar ekan, ushbu jarayonda adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, hamda tarixiy manbalarga tayanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixdan ma’lumki, Rus imperiyasi o‘z hududlarini kengaytirish maqsadida qo‘shni davlatlarga bosqinchilik uyushtirib kelgan. Rus imperatori Pyotr I 1716-yili 14-fevralda sarkarda Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyga Amudaryo sohilini o‘rganish, Xiva xonini vassallikka ko‘ndirish, Buxoro amiri bilan aloqa o‘rnatish va uni vassallikka moyil qilish, bu yerdagi oltin konlarini tadqiq etish kabi topshiriqlar beradi. Rus qo‘shinlarining XVIII asr boshlarida, aniqrog‘i 1717-yili Xiva xonligini bosib olish maqsadida qilgan yurishi xorazmliklar tomonidan tor-mor etiladi. Xiva xoni rus sarkardasi Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyning boshini tanasidan judo qilib, uni Buxoro amiriga jo‘natadi. Natijada ana shu muvaffaqiyatsiz bosqindan so‘ng deyarli 150 yildan ortiq davr ichida rus qo‘shinlari bu o‘lkaga qadam izi qilmaydilar va e’tiborlarini Shimoliy Kavkazga qaratadilar.

Rus imperatori XIX asr boshlarida Shimoliy Kavkaz o‘lkalari – Dog‘iston, Cherkesiya va Checheniston hududlarini Rossiyaga qo‘shib olishga astoydil kirishadi. Biroq mahalliy musulmon tog‘lik xalqlar G‘ozi-Muhammad, Hamzatbek kabi

sarkardalar boshchiligida qahramonona qarshilik ko‘rsatadilar. 1834-yili imomlik deb ataluvchi davlat boshiga Imom Shomil keladi.

Imom Shomil 1797-yili tug‘ilgan. Yoshligidan o‘zidan bir necha yosh katta bo‘lgan G‘ozi-Muhammad bilan do‘st bo‘lgan va birgalikda dog‘istonlik ulamolar qo‘lida islomiy ta’lim olgan. Imom Shomil o‘z ona tili - avar tilidan tashqari arab, turk va chechen tillarini mukammal bilgan, qumiq va lak tillarida ham so‘zlasha olgan. Arab va avar tillarida she’rlar bitgan. G‘ozi-Muhammad ta’sirida naqshbandiya tariqatiga kirgan. Sarkarda G‘ozi-Muhammad vafotidan so‘ng Dog‘iston ulamolari bir ovozdan Shomilni imom, ya’ni davlatning siyosiy va diniy rahbari etib saylaydilar. Imom Shomil Shimoliy Kavkazda avar xonlari o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etib, Dog‘iston, Cherkessiya va Chechenistonni shimoliy dushmanga qarshi birlashtira oladi. Rus bosqiniga qarshi oltmish yil davom etgan milliy-ozodlik qarshilik ko‘rsatish harakati yetakchisi sifatida bir necha bor bosqinchilik bilan kelgan rus qo‘shinlarini tor-mor etadi, bir necha bor mag‘lubiyatga uchraydi.

Imom o‘z davlatini joylarda tayinlagan noiblar orqali boshqaradi. Ana shunday noiblardan biri Hojimurod edi. U Shomil bilan bir safda bir necha bor rus qo‘shinlariga qaqshatqich zarba beradi. Keyinchalik Hojimurod Imom Shomil bilan kelisha olmay, undan ketadi va general Baryatinskiy huzuriga boradi. Chor Rossiyasi qo‘mondonligi Hojimurod obro‘sidan tog‘liklarni o‘z tomoniga og‘dirish maqsadida foydalanmoqchi bo‘ladi. Shu bilan birga Hojimurod va Imom Shomil o‘rtasida hech qanday kelishmovchilik bo‘lmagan, aslida bu Hojimurodning rejasi bo‘lib, uni Imom Shomil qabul qilgan, Hojimurodning dushman ortida josuslik, ya’ni razvedka bilan shug‘ullanish maqsadi bo‘lgan degan fikrlar ham bor. Keyinchalik Hojimurod ruslardan qochishga uringan va ta’qib paytida 1852-yili halok bo‘lgan.

Imom Shomil 1840-yillarda rus qo‘shinlari ustidan bir necha bor g‘alabaga erishdi. 1850-yillarda Rus imperiyasi Rossiya-Qrim urushidan (1854-1856) so‘ng Kavkaz korpusini qayta shakllantirib, uni 200 000 askardan iborat armiyaga aylantiradi. Yangi qo‘mondonlar general Nikolay Muravyev (1853-1856) va general Aleksandr Baryatinskiy (1856-1860) Imom Shomil davlatini katta qo‘shin bilan qamal qilishni kuchaytiradilar. 1859-yili aprel oyida Imom Shomilning qarorgohi Vedeno ovuli tor-mor etiladi. Iyun oyi o‘rtalarida Checheniston hududidagi qarshilik ko‘rsatish o‘choqlari mag‘lub bo‘ladi. Shomil Dog‘istondagi G‘unib ovuliga chekinadi. 1859-yil avgust oyining oxirlarida Imom Shomil 400 kishidan iborat tarafdorlari bilan 10 000 askardan ortiq rus qo‘shini tomonidan G‘unibda qurshovga olinadi va 26-avgustda taslim bo‘ladi. (Bu paytda Imom Shomilning qurolli safdoshlari 50 kishidan kamroq qoladi, Imom Shomil ruslar tomon taslim bo‘lish uchun ketayotganida, uni bir necha bor chaqirishadi, uning taslim bo‘lishini istamaydilar, lekin Imom Shomil ortga qaramaydi, chunki musulmon jangchilar hech qachon hech kimning ortidan o‘q uzmaganlar.)

1859-yili 10-oktyabrda Imom Shomil Kalugaga keltiriladi. Imperator Aleksandr II Kaluga shahrida Imom Shomilning 20 kishidan iborat oilasi va yaqinlari uchun yetarli sharoit yaratadi, 15 ming kumush rubl miqdorida yillik maosh tayinlaydi. Imperator Aleksandr II "Imom Shomil tirik ekan, uning o'rnini bosadigan boshqa sarkarda chiqishini oldini olish" uchun hayotini tutqunlikda saqlab shunday qiladi.

Imom Shomil surgunda o'n bir yil davomida imperator Aleksandrga uch marta murojaat qilib, hajga borish uchun ruxsat so'raydi.

1870-yili imperator Aleksandr II Imom Shomilga hajga borishga ruxsat beradi. Imom Shomil haj amallarini bajargach, Madinaga ziyoratga boradi va umrining oxirgi kunlarigacha shu yerda yashaydi, 1871-yil 4-fevralda (yangi taqvim bo'yicha 16-fevralda) vafot etadi va Madinadagi "al-Baqi'" qabristonida dafn etiladi.

"Kavkaz arsloni" romanining muallifi misrlik adib Munir Utayba Misrning Iskandariya shahrida 8-fevral 1969-yili tug'ilgan, u bugungi kunda arab adabiyotidagi muhim ovozlardan bo'lib, qissa va roman janrida xilma-xil asarlar yozgan va nufuzli mukofotlarni qo'lga kiritgan. Ayni paytda u o'z yurtida bir qator madaniy saytlarda ham faoliyat olib boradi.

Munir Utayba – qissanavis, romannavis, shoir, dramaturg va adabiyot tanqidchisi. U Iskandariya kutubxonasidagi hikoyanavislik ustaxonasi ta'sischisi va mudiridir. U Misrning yozuvchilari oliy hay'atida yangi asarlar turkumi tahrir hay'ati raisidir.

Munir Utayba roman, hikoya, kichik hikoya, she'riyat, adabiyot tanqidchiligi va bolalar adabiyoti janrlarida 60 dan ortiq kitoblar nashr etgan. U Misr radiosi va Amerikadagi "Arab ovozi" ("Savt al-Arab") radiosi uchun bir qator seriallar, radioeshittirishlar va pyesalar yozgan. Quvaytning "al-Babtiyn" televizion kanalida "G'oyaviy suhbat" ("Hivar fikriy") dasturining tayyorlovchisi va olib boruvchisidir. "Kitoblar olamida" jurnalida har oyda uning maqolalari chop etiladi. Misr va boshqa arab davlatlari gazeta va jurnallarida badiiy asarlari – hikoyalari, she'rlari hamda tadqiqot va maqolalari chop etiladi. Muallifning badiiy ijodiyoti Misr, arab va xorij universitetlarida o'rganilgan, uning asarlari bo'yicha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari yozilgan. Bir qator hikoyalari va tadqiqotlari ingliz, fransuz, ispan, turk va o'zbek tillariga tarjima qilingan.

Munir Utayba bir qator mukofotlar bilan, jumladan, adabiyot sohasidagi kichik hikoyalar uchun davlat mukofoti, Misr yozuvchilar uyushmasining hikoya va roman sohasidagi mukofoti bilan ikki bor, shuningdek, Ihson Abdulquddus mukofoti, Misr hikoya klubi mukofoti, Adiblar jamiyati mukofoti, "Saqiya as-Saviy" mukofoti, hamda Amerika "Hay" jurnali mukofoti bilan taqdirlangan. Adibning nomi "I'lam.com" sayti tomonidan 2022-yili Misrdagi 30 nufuzli shaxslar ro'yxatida e'lon qilingan. 2023-yili arab dunyosidagi "Hikoyanavislar so'zlaydilar" musobaqasida birinchi o'rinni egallagan Misr hikoya guruhining rahbari edi.

Munir Utayba bir qator arab davlatlari oliy hay'atlari tomonidan ham taqdirlangan, jumladan, 2022-yili Irbid shahri "Arab madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi munosabati bilan o'tkazilgan misr madaniyati haftaligida faol ishtiroki uchun Iordaniya madaniyat vazirligi tomonidan, 2019-yili Iskandariya radiosi ta'sis etilishining 65 yilligi munosabati bilan Jurnalistika Milliy kengashi tomonidan, 2018-yili Iskandariya Universitetining Madaniyat saloni tomonidan, 2014-yili Misr madaniyat kunlaridagi faoliyati uchun Misr Qurolli Kuchlari tomonidan taqdirlandi. 2012-yili Arab elektron jurnalistika uyushmasining "Raqamli jurnalistika yetakchisi" mukofoti bilan, 2011-yili Misr Yozuvchilar uyushmasi mukofoti bilan taqdirlandi. 2007-yili Misr adiblari konferensiyasida Iskandariya viloyati vakili sifatida "yil odami" deb e'lon qilindi.

Munir Utaybaning tarixiy roman janrida ikki asari – "Kavkaz arsloni" uch marta, "Mogitos" romani ikki marta nashr etilgan.

O'quvchilarimiz e'tiboriga birinchi marta o'zbek tilida havola etilgan muallifning "Kavkaz arsloni" asari arab romannavisligida kashfiyot hisoblanadi, deyish mumkin. Zero u Dog'iston o'lkasida XIX asrda bo'lib o'tgan voqealarga bag'ishlangan birinchi arab romani bo'lib, Kavkazdagi milliy-ozodlik qarshilik ko'rsatish harakati yetakchisi Imom Shomil shaxsiga bag'ishlangan.

Munir Utaybaning "Kavkaz arsloni" romani, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, arab adabiyotida ushbu mavzudagi birinchi asar bo'lib, unda Imom Shomil obrazi ziddiyatli obraz sifatida tasvirlangandek ko'rinadi. Muallif mazkur asarda o'sha asrni o'z geografiyasi, tarixi, insonlari, g'oyaviy ziddiyatlari bilan chiroyli bayon etgan hamda turli vaziyatlarni jipslashtirish qudratini namoyish qilgan. Bunday hikoya etish texnikasida muallif tarixiy romanlarda kamdan kam qo'llaniladigan texnika - ko'plab roviylar, "polifonik" ovozlarni qo'llaydi. Yozuvchi asardagi barcha qahramonlarga nisbatan bir xil masofada turadi va ularga o'z asri haqida, o'z sharoiti haqida, ularning bu milliy-ozodlik qarshilik ko'rsatish harakatining yetakchisiga nisbatan munosabatlari haqida ular Shomil tarafdorlari yoki muxoliflari bo'lishidan qat'iy nazar fikr bildirishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan bir qatorda, yozuvchi roman voqealarini bayon etish orqali arab dunyosi voqeligi yuzasidan bilvosita fikr bildirishga harakat qiladi va bir necha bor "bir ko'zini bugungi kunga va boshqa ko'zini kelajakka tikmagan tarixiy roman ta'vil qilinmaydi" deb ta'kidlaydi.

Romanda o'sha davr voqealari to'g'risida asar qahramonlari – Imom Shomilning qizi Karima, otasi Zakau, sevimli xotini Shainat, do'sti Ko'nak, milliy qarshilik ko'rsatish harakati sarkardalari va safdoshlari - Mavlono G'ozi Muhammad, Hamzatbek, Hojimurod, Imom Shomilning davlat rahbari bo'lib saylanishida muhim rol o'ynagan din peshvosi Zag'lav al-Xarashiy, Kavkazning harbiy sanoatini rivojlantirish maqsadida Misrdan taklif etilgan asli dog'istonlik Hoji Yusuf Husayn

hamda Imom Shomilga qarshi frontning narigi tomonidagi shaxslar – Mixail-Turnov va boshqalar tilidan turli munosabatlar bildiriladi.

Asarda Jazoir milliy qahramoni Amir Abdulqodir obrazi ham kiritilgan. Muallifning fikri bo‘yicha, Imom Shomil va amir Abdulqodir Makkada uchrashib, suhbatlashishgan, milliy ozodlik kurashi masalalarida fikr-mulohaza bildirishgan. Bu albatta, muallifning ijodi mahsulidir. Chunki Amir Abdulqodir hayotida ikki marta haj qilgan. Birinchi marta hajga u otasi bilan 1825-yili kelganida 17 yoshda edi. Bu paytda 28 yoshga to‘lgan Shomil milliy qarshilik ko‘rsatish harakati rahbari sifatida yana 9 yildan keyin kurash sahnasiga chiqadi. Amir Abdulqodir ikkinchi marta hajga 1863-yilda keladi (bu paytda Imom Shomil Kalugada tutqunlikda edi), keyin esa hayotini Damashqda o‘tkazadi. Shunday bo‘lsa-da, qahramonlarning ushbu badiiy asardagi munozarasi milliy ozodlik harakati, milliy qarshilik ko‘rsatish harakati g‘oyalarini tushunish uchun juda muhimdir.

Ba’zi tarixiy shaxslarning ismlari badiiy asarda adabiy janr nuqtai nazaridan o‘zgartirib keltirilgan.

Shu bilan bir qatorda, Imom Shomil hayotiga oid bo‘lgan muhim bir jihat muallif e’tiboridan chetda qolgan. Imom Shomilning katta o‘g‘li Jamoliddin mazkur asarda tilga olinmaydi. U sakkiz yoshida 1839-yili rus bosqinchilari va Kavkaz milliy-musulmon qarshilik ko‘rsatish harakati kurashchilari o‘rtasidagi janglarning birida ruslar qo‘lida garovda qolgan va 1854-yilda asirga olingan Gurjiston malikalari Chavchavadze va Orbelianilarga almashtirib olingan Imom Shomilning katta o‘g‘li Jamoliddin obrazi ham kiritilganida asar yana-da ta’sirliroq bo‘lardi.

Ushbu kitob muallifning qissanavislik va tanqidchilik asarlari qatorida ko‘rilib, mutolaa qilishga, tarixdagi ko‘p voqealarga, ularning hozirdagi holatiga, agar biz o‘tmishdagidan afzalroq kelajakni istasak, qayta nazar solish uchun loyiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Munir Utaybaning “Kavkaz arsloni” romani haqida, asarda hikoya qilingan tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar, jumladan, Rossiya imperiyasiga qarshilik ko‘rsatishi bilan tanilgan atoqli qahramon Imom Shomil hayoti hamda faoliyati haqida imkon qadar ma’lumot berildi. “Kavkaz arsloni” asari “Jahon adabiyoti” jurnalida chop etilgan bo‘lsa-da, alohida kitob holida ham chop etilishi lozim deb hisoblayman. Chunki, Imom Shomilning hayoti nafaqat avar xalqi uchun, yoki Kavkazliklar uchun, balki barcha turkiylar, qolaversa musulmonlar uchun ham ibratlidir. Imom Shomil jasur harbiy yetakchi bo‘lganidan tashqari diniy va dunyoviy ilmlar egasi hamda davlat arbobi sifatida tarixda o‘chmas nom qoldirgan. Uning hayoti va faoliyatining bugungi kun ilm-fani uchun noma’lum qirralarini topib o‘rganish esa adabiyot, tarix va boshqa fan sohalarida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarning vazifalari qatorida bo‘lishi kerak, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мунир Утайба. Кавказ арслони. Роман / Араб тилидан Муртазо Сайдумаров таржимаси // “Жаҳон адабиёти” журнали. – Тошкент, 2023, Ноябрь. – Б. 96-131; 2023, Декабрь. – Б. 143-177.

2. منير عتيبة. **أسد القافقاس**. رواية. دار الكتاب العربي، القاهرة. عام 2010، 137 ص.

3. Гаммер М. (1998) Шамиль. Мусульманское сопротивление царизму. Завоевание Чечни и Дагестана / Перевод с английского В.Симакова. – Москва: КРОН-ПРЕСС. – 512 с.

4. Шихсаидова Н. Библиотека Имама Шамиля. Из истории книжных коллекций Дагестана XIX века. Журнал "Ахульго", Махачкала. 1999, Февраль. № 2. – С. 28-33.

5. Казиев Шапи. (2001) Имам Шамиль. – Москва: Молодая Гвардия. – 378 с.

6. Moshe Gammer. (2006) The Imam and the Pasha: a note on Shamil and Muhammad Ali. Middle Eastern Studies, Volume 32, Issue 4. – pp. 336-342. https://doi.org/10.1080/00263209608701133

7. Michael Kemper, Amri Shikhsaidov, Natalya Tagirova. (Autumn 2002) The Library of Imam Shamil. The Princeton University Library Chronicle, Vol. 64, No. 1, pp. 121-140 (20 pages) https://doi.org/10.25290/prinunivlibrchro.64.1.0121

8. Muhammad Hamid. (2007) Imam Shamil: The First Muslim Guerilla Leader. – Kuala Lumpur.

9. Hamburg G., Sanders T., Tucker E. (2004) Russian-Muslim confrontation in the Caucasus: alternative visions of the conflict between Imam Shamil and the Russians, 1830-1859. – London.

REFERENCES:

1. Munir Utayba. Kavkaz arsloni. Roman / Arab tilidan Murtazo Saydumarov tarjimasi // “Jahon adabiyoti” jurnali. – Toshkent, 2023, Noyabr. – B. 96-131; 2023, Dekabr. – B. 143-177. (In Uzbek)

2. منير عتيبة. أسد القافقاس. رواية. دار الكتاب العربي، القاهرة. عام 2010، 137 ص. (In Arabic)

3. Gammer M. (1998) Shamil. Musulmanskoye soprotivleniye sarizmu. Zavoyevaniye Chechni i Dagestana / Perevod s angliyskogo V.Simakova. – Moskva: KRON-PRESS. – 512 s. (In Russian)

4. Shixsaidova N. Biblioteka Imama Shamilya. Iz istorii knijnix kolleksiy Dagestana XIX veka. Jurnal “Axulgo”, Maxachkala. 1999, Fevral. № 2. – S. 28-33. (In Russian)

5. Kaziyev Shapi. (2001) Imam Shamil. – Moskva: Molodaya Gvardiya. – 378 s. (In Russian)

6. Moshe Gammer. (2006) The Imam and the Pasha: a note on Shamil and Muhammad Ali. Middle Eastern Studies, Volume 32, Issue 4. – pp. 336-342. https://doi.org/10.1080/00263209608701133

7. Michael Kemper, Amri Shikhsaidov, Natalya Tagirova. (Autumn 2002) The Library of Imam Shamil. The Princeton University Library Chronicle, Vol. 64, No. 1, pp. 121-140 (20 pages) https://doi.org/10.25290/prinunivlibrchro.64.1.0121

8. Muhammad Hamid. (2007) Imam Shamil: The First Muslim Guerilla Leader. – Kuala Lumpur.

9. Hamburg G., Sanders T., Tucker E. (2004) Russian-Muslim confrontation in the Caucasus: alternative visions of the conflict between Imam Shamil and the Russians, 1830-1859. – London.

“MADANIYATLARARO MULOQOT” FANINING ILMIY ASOSLANISHI VA UNDA “KOMMUNIKATSIYA” TUSHUNCHASINING O‘RNI

SCIENTIFIC BASIS OF THE DISCIPLINE “INTERCULTURAL COMMUNICATION” AND THE ROLE OF THE CONCEPT “COMMUNICATION” IN IT

НАУЧНОЕ ОБОСНОВАНИЕ НАУКИ “МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ” И МЕСТО В НЕЙ ПОНЯТИЯ “КОММУНИКАЦИЯ”

Sayidiraximova Nasiba Sayidmaxamadovna,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
Email: n.saidraximova@iiau.uz
Tel.: +998 99 440-74-18

Annotatsiya: Ma’lumki, xalqlar, turli millat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy aloqalarning ta’siri madaniyatlararo muloqot masalasini dolzarblashtiradi. Sababi, hozirgi kunda bir millat vakilining ikkinchi bir davlatga o‘qish, ishlash va yashash uchun ko‘chib borishi ortidan ikki millat o‘rtasida muloqot masalasida ayrim qiyinchiliklar, nutqiy to‘siqlar kabi masalalar yuzaga kelayotganini o‘rganish kundan-kunga zaruratga aylanib borayotganini ko‘rish mumkin. Madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi bu madaniyatlararo jarayonni tavsiflovchi, uning til orqali reallashishi, ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlar va kommunikativ muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini o‘rganuvchi mustaqil soha sanaladi. Shu bois, ushbu maqolada “madaniyatlararo muloqot” tushunchasi, madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasining tayanch xususiyatlari, fanlararo bog‘liqligi, muammoning o‘rganilish darajasi, tarixi madaniyatlararo kommunikatsiya sohasida bilimlarni qo‘llash hamda “kommunikatsiya” tushunchasi va uning madaniyatlararo fandagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *madaniyatlararo muloqot, kommunikatsiya, proverbal vositalar, axborot uzatuvchi, adresant, natija yoki ta’sir effekti, verbal kanal, vizual (optik) kanal, proksematik kanal, kinetik kanal, retsipiyent, referent.*

Annotation: It is known that the influence of mutual socio-economic and political relations between peoples and representatives of different nationalities makes the issue of intercultural communication more urgent. The reason is that it is becoming more and more necessary to study the problems of communication between the two nations after the representative of one nation moves to another country to study, work and live.

The theory of intercultural communication is an independent field that describes intercultural process, its realization through language, the obstacles that may arise in this process, and the causes of communicative failures. Therefore, in this article, the concept of "intercultural communication", the basic features of the theory of intercultural communication, interdisciplinarity, the level of study of the problem, the history of the application of knowledge in the field of intercultural communication, and the concept of "communication", as well as its place in intercultural science are discussed.

Keywords: *intercultural communication, communication, preverbal means, recipient, information transfer, result or effect of influence, verbal channel, visual (optical) channel, proxemic channel, kinetic channel, recipient, referent.*

Аннотация: Известно, что влияние взаимных социально-экономических и политических отношений между народами и представителями разных национальностей делает вопрос межкультурной коммуникации более актуальным. Причина в том, что изучение проблем коммуникации между двумя нациями после того, как представитель одной нации переезжает в другую страну для учебы, работы и проживания становится все более необходимым. Теория межкультурной коммуникации является самостоятельной областью, описывающей межкультурный процесс, его реализацию посредством языка, препятствия, которые могут возникнуть в этом процессе, и причины коммуникативных неудач. Поэтому в данной статье рассматриваются понятие «межкультурная коммуникация», основные черты теории межкультурной коммуникации, междисциплинарность, уровень изученности проблемы, история применения знаний в области межкультурной коммуникации, само понятие «коммуникация», а также его место в межкультурной науке.

Ключевые слова: *межкультурная коммуникация, коммуникация, довербальные средства, адресат, передача информации, результат или эффект воздействия, вербальный канал, зрительный (оптический) канал, проксемический канал, кинетический канал, реципиент, референт.*

KIRISH

Madaniyatlararo muloqot turli madaniyatlarni tashuvchilarning o‘zaro ta’siri sanaladi. Biologlar va ruhshunoslarning ta’kidlashicha, inson madaniyatning yagona tashuvchisi emas. Sababi, ayrim hayvonlar, xususan, o‘rgatilgan maymunlar ham madaniyat tashuvchi sanaladi. Shunday qilib, hayvonlarning turli populyatsiyasi ham madaniyat tashuvchilari sanaladi va ular madaniyatlararo kommunikatsiya guruhlariga bevosita ta’sir etadi. Madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi, albatta, hayvonlar muloqotini emas, balki turli madaniyat tashuvchilari - insonlar muloqotining o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. Biroq bunda, shuni anglash mumkinki, madaniyatlararo muloqot

juda qadimiy hodisa sanaladi. Sababi u turli madaniyatlarning shakllanishi, taraqqiy etishi bilan birga shakllangan. Inson o‘zining madaniyatiga o‘xshamagan o‘zga insonlar madaniyatini kuzatgan va qayd etib borgan. Xalqlar madaniyatidagi “o‘zgachalik”ni tahlil qilishga urinishlarni antik davr mutafakkirlari asarlarida, o‘rta asrlar qo‘lyozmalarida, xalqning badiiy adabiyoti va boshqa manbalarda uchratish mumkin.

Biroq, madaniyatlararo muloqot mustaqil soha sifatida yaqindagina, ya’ni XX asrning o‘rtalarida shakllandi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, madaniyatlararo kommunikatsiyani o‘rganish jarayoni va uning nazariy asoslanishi, eng avvalo, globalizatsiyaning ta’siri ostida amalga oshdi. Ko‘plab milliy korporatsiyalarning tashkil etilayotgani, turizm sohasining rivojlanayotgani, shuningdek, migratsion jarayonlarning kuchayayotgani, turli millat vakillarining birga oila qurayotgani, boshqa mamlakatlardan farzandlar asrab olinayotgani ham madaniyatlararo muloqot masalasini o‘rganishni dolzarblashtirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XIX asrning birinchi yarmida ijtimoiy fanlarga qiyosiy-tarixiy metodning tatbiq etilishi madaniyatni maqsadli va sistematik o‘rganish imkonini berdi. Ushbu metodning asoslari V.fon Gumboldt, aka-uka Grimm, F.Shelling, M.Myuller, V.Veselovskiy, V.Propp va boshqalarning ishlarida ko‘rinadi (Садохин А., 2005).

XX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy fanlarning alohida masalasi sifatida madaniyatlararo muloqotning o‘rganilishi va ilmiy-nazariy asoslarining belgilanishiga sabab bo‘lgan quyidagi omillarni belgilash mumkin. Xususan:

- antropologiya va etnografiya fanlaridagi metodlarning ekspansiyalashuvi;
- yevrosentrizm g‘oyasining yemirilishi;
- gender tadqiqotlarga qiziqishning kuchayishi;
- davlatlardagi ijtimoiy va psixologik rivojlanish;
- lingvistikada kommunikatsiyadagi tildan tashqari omillar va sotsio-lingvistikaning rivojlanishi.

Madaniyatlararo muloqot nazariyalarining rivojlanishi esa, AQSHda 1947-yildan tadbirkorlar, siyosatshunoslar va diplomatlarning amaliy qiziqishi bilan boshlandi. 1947-yili AQSHning hukumat rahbarlari amerikalik fuqarolarni xorijda xizmat qilishga tayyorlash uchun Xalqaro xizmatlar instituti (Foreign Service Institute – FSI)ni tashkil etadi. Mazkur institut amerikaliklarni o‘qitishning o‘quv rejalariga “Madaniyatlararo muloqot” fanini yangi ilmiy fan sifatida kiritgan taniqli olimlar: antropologlar T.Holl Edvard, Reya Berdvistell va tilshunos Jorj Treytjerlarni jalb qiladi. Ushbu olimlar, dastlab, o‘z oldlariga quyidagi vazifalarni qo‘ydilar:

- diplomat, ya’ni elchi va siyosatshunoslar, harbiy soha mutaxassislari xorijda samarali faoliyat yuritishi uchun dunyo ko‘ngillilari jamiyatini tayyorlash;
- xorijiy talaba va stajyorlarning AQSH davlatiga moslashishiga ko‘maklashish;

- AQSH hududida turli etnik va irqlararo mojarolarni hal etishga ta’sir etish.

Dastlab, institutning faoliyati unda ish yuritayotgan xodimlarning bu boradagi tajribasi va bilimi yetarli bo‘lmaganligi bois, u qadar samarali bo‘lmadi. 1959-yilga kelib, E.Holl “The Silent Language” (“Ovozsiz til”) nomli asarini nashr etdi (Белик, A., 2009). Mazkur kitob “Madaniyatlararo muloqot” fanining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Holl o‘zining mazkur ishida madaniyat va kommunikatsiya o‘rtasidagi uzviy aloqani ishonarli tarzda isbotlab berdi va olimlar tadqiqot ishlarida asosiy e’tiborni madaniyatning alohida quyi sistemasiga emas, balki yaxlit butun sistema sifatidagi xususiyatiga qaratishlari lozimligiga urg‘u beradi. “U o‘zga xalq madaniyatini o‘rganish bilan ularning tilini xorijiy til sifatida o‘rganishni, uning quyi sistemasi – grammatik kategoriyalari: egalik, kelishik, zamon va boshqalarni alohida o‘rganamiz, so‘ng o‘sha xorijiy til haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lamiz”, - deydi (Hall E., 1959). Bu bilan E.Holl yangi fan – “Madaniyatlararo muloqot” fanining nazariyasini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada adabiyotlarni ko‘rib chiqish va nazariy tahlilga e’tibor qaratilib, turli tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Ushbu sohadagi asosiy tushunchalar, xususiyatlar va muammolarni aniqlash uchun madaniyatlararo muloqot bo‘yicha mavjud tadqiqotlar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil aloqaning turli modellarini va og‘zaki, vizual, proksemik va kinetik kabi turli kanallarning rolini o‘rganish uchun ishlatildi. Bundan tashqari, madaniyatlararo muloqotning fanlararo tabiati sotsiologik, psixologik va lingvistik nuqtai nazarlarning integratsiyasi orqali o‘rganildi. Tadqiqot, shuningdek, vaqt o‘tishi bilan madaniyatlararo aloqa nazariyalarining rivojlanishi va qo‘llanilishini kuzatish uchun tarixiy tahlilni o‘z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Madaniyatlararo muloqot tushunchasini izohlashdan avval madaniyat tushunchasiga aniqlik kiritish lozim. Madaniyat tushunchasini aniqlashga qaratilgan ko‘plab ta’riflar mavjud. Sababi madaniyatni turli ijtimoiy fanlar, xususan, antropologiya, madaniyatshunoslik, jamiyatshunoslik, ruhshunoslik va hokazo, shuningdek, boshqa sohalar qatori “Madaniyatlararo muloqot” fani ham o‘rganadi. Bu fanlarning hech birida madaniyat tushunchasining qat’iy ta’rifi berilmagan. Keng ma’noda, madaniyat insoniyat faoliyati davomida yaratiladi, yaratib kelinadi, deya izoh beriladi. Bu nafaqat moddiy, balki jismoniy obyektlar (turli vositalar, maishiy buyumlar, san’at buyumlari, madaniy obyekt va inshootlar), shuningdek, nomoddiy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, norma va etiketlar, xulq-atvor va hokazolar sanaladi. Biroq madaniyat alohida olingan predmet va hodisalarning yig‘indisi sanaladi. Madaniyat xalqning, millatning qarashlari, unga xos bo‘lgan qadriyatlar tizimi, xalq tomonidan belgilangan normalar (birinchi navbatda, xulq-atvor), e’tiqod, muayyan

jamiyatga xos an’analar va bilimlar majmuasidir. Bunda jamiyat etnik guruh bo‘lishi ham shart emas, balki u kattaroq odamlar guruhi, ya’ni ularning tashuvchilari bir necha etnik guruhlarning vakillari bo‘lsagina madaniyatlararo qadriyatlar, turli xil diniy madaniyatlar, ularga xos normalar haqida gapirish mumkin. Etnosga nisbatan “kichik” ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy sinflar, ma’lum bir jamiyat odamlarining alohida avlodlari ham madaniyat tashuvchilari bo‘lishi mumkin. Ya’ni siz va sizning ota-onangiz ham, ma’lum ma’noda, turli madaniyatlarni tashuvchilar sanaladi.

Kommunikatsiya tushunchasini aniqlashda ham ko‘plab qiyinchiliklar tug‘iladi. Sababi kommunikatsiya ham madaniyat tushunchasi singari turli fanlarning o‘rganish obyekti sanaladi. Bu o‘rinda biz kommunikatsiya tushunchasini aniqlashda eng oddiy tomoni – axborotni almashish jarayoni degan ta’rifdan kelib chiqamiz.

Shunday qilib, madaniyatlararo muloqot bu turli madaniyatlarni tashuvchi kommunikantlar tomonidan amalga oshiriladigan axborot almashish jarayonidir. Madaniyatlararo muloqot fani turli sohalar bilan hamkorlikda ish yuritadi.

Madaniyatlararo muloqot fanining o‘ziga xosligini tushunish uchun, uning kelib chiqish tarixiga nazar tashlash maqsadga muvofiq.

Turli madaniyat vakillarining bir-biridan ajralishi ularning alohida o‘ziga xos madaniyati shakllanishiga olib kelgan. Bu esa boshqa madaniyatlarning o‘rganilishiga zamin hozirladi. Madaniyatning dastlabki o‘rganilishi sistemaviy tarzda emas, balki epizodik xarakterga ega bo‘lib, uning dastlabki ko‘rinishlari qadimgi qaydnoma va qo‘lyozmalar (O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklari, Qultegin bitiktoshi)da, sayohatchilarning kundaliklari va avliyolar hayoti aks etgan memuarlarda aks etganligini ko‘rish mumkin. Boshqa xalqlarning madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, ayniqsa, XVI asrga kelib amalga oshirilgan buyuk geografik kashfiyotlar natijasida ko‘plab xalqlar haqidagi ma’lumotlarning qo‘lga kiritilishi natijasida hamda Yevropa va unga yaqin bo‘lgan xalqlar madaniyatining keskin farqlanishi aniqlangandan so‘ng yanada kuchaydi.

Ma’lumki, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning ta’siri madaniyatlararo muloqot masalasini dolzarblashtiradi. Sababi, hozirgi kunda bir millat vakilining ikkinchi bir davlatga o‘qish, ishlash va yashash uchun ko‘chib borishi ikki millat o‘rtasidagi muloqot masalasidagi ayrim qiyinchiliklar, nutqiy to‘siqlar kabi masalalarni o‘rganish zaruratini oshiradi. Bu o‘rinda “Madaniyatlararo muloqot” fanida kommunikatsiya tushunchasiga aniqlik kiritish, uni lingvistik jihatdan chegaralash lozim.

Kommunikatsiya bu kishilarning umumiy belgilar sistemasi yordamida o‘zaro axborot almashinish jarayoni sanaladi (Sayidiraximova N., 2024).

Nutqiy muloqotda o‘zaro axborot almashishda biz nafaqat tildan, balki tildan tashqari bo‘lgan vositalar – jestlar, mimika va xatti-harakatlardan ham foydalanamiz. Paraverbal vositalar orqali suhbatdoshimizga o‘zimizning holatimiz, kayfiyatimiz va

hokazolar haqida ma’lumot beramiz. Ushbu jarayonda biz, albatta, o‘zimiz va suhbatdoshimiz uchun umumiy bo‘lgan tizimdan faol foydalanamiz (Sayidiraximova N., 2024).

Kommunikatsiya jarayonini amalga oshirish, axborotni uzatish va suhbatdoshdan axborotni olish, hamda uzatmoqchi bo‘lgan axborotimizni kodlashtirish uchun qandaydir umumiy kod kerak bo‘ladi. Shu sababli kommunikatsiya, qaysidir ma’noda, semiotikaning obyekti hisoblanadi. Semiotik planda hatto arxitektura yodgorliklari, kartinalar, film yoki seriallarni tomosha qilish ham kommunikatsiya tushunchasi ostida qaraladi. Demak, bu o‘rinda, nafaqat insonlar, balki jonsiz predmetlar ham kommunikantlar sanalishi mumkin. Hatto smartfonni kompyuterga ulash ham kommunikatsiya sanaladi. Kommunikatsiya hayvonlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, kommunikatsiya – istalgan turdagi axborot almashish jarayoni.

Verbal kommunikatsiya esa, tabiiy til yordamidagi kommunikativ aloqaga kirishish sanalib, kommunikatsiyaning boshqa barcha turlaridan tafakkurga asoslanganligi bilan farqlanadi.

Kommunikatsiyani qanday tahlil qilish mumkin? Kommunikatsiyani tadqiq etishda bir qancha yondashuvlar mavjud bo‘lib, uning qisqacha tahlili va tavsifi P.Bullning ishlarida ko‘zga tashlanadi (Якобсон Р., 1975). Olib borilgan aksariyat tadqiqotlarning kommunikatsiyani qismlarga ajratish, ya’ni kommunikatsiya modellarini yaratish yetakchilik qiladi.

Kommunikatsiyaning eng mashhur modellaridan biri bu amerikalik tadqiqotchi va targ‘ibotchi Garold D.Lassvella tomonidan tatbiq etilgan “Kim nimani, kimga, qanday kanal orqali va qanday effekt bilan gapirmoqda?” ko‘rinishidagi modeli sanaladi (Hammer M., 2003).

Uning bu modeli mumtoz – klassik model sanalib, mohiyatiga ko‘ra u kommunikatsiyani beshta komponentga ajratadi:

1) axborotni uzatuvchi, ya’ni adresant (kim?);

2) xabar (nima);

3) qabul qiluvchi yoki adresat (kimga?);

4) axborot uzatilayotgan kanal – vosita (nima orqali?);

5) natija yoki ta’sir effektini tadqiq etish.

O‘tgan asrning 40-yillarida amerikalik matematiklar Uorren Uiver va Klod Shennonlar tomonidan bu borada taklif etilgan kommunikatsiya modeli ham uzoq yillar mashhur bo‘ldi (Weaver G., 2000).

Bizningcha, kommunikatsiya modelining besh asosiy elementi mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Kommunikatsiya jarayonida uzatilishi mumkin bo‘lgan turli ma’lumotlar ichidan saralab olinadigan axborot manbai. Ushbu jarayonda axborotning tasodifan saralab olinishi entropiya termini bilan yuritiladi;

2. Axborotga ma’lum darajada ta’sir etib, aloqa kanali orqali signal ishlab chiquvchi - uzatuvchi. Bunda signal tushunchasi ostida o‘zida axborotni uzatishda material jismlarning axborotni uzatishi va, masalan, svetofor chiroqlari singari, tovushli ogohlantiruvchi va hokazolarning muayyan jismoniy holat haqida ma’lumot berishi nazarda tutiladi. Verbal kommunikatsiyada signal – bu adresant nutq a’zolari yordamida hosil qilinuvchi va adresatning eshitish a’zolari tomonidan qabul qilinadigan tovush tebranishi, ya’ni persepsiya;

3. Signalni qabul qiluvchiga yetkazish vositasi, ya’ni kanali.

Bunda quyidagilar farqlanadi:

1) tabiiy til yordamida kodlashtirilgan va u orqali uzatiladigan kommunikatsiyaning verbal kanali;

2) intonatsiyaning o‘zgarishi bilan bog‘liq ovoz modulyatsiyalari yordamida so‘zlovchining axborot mazmuni va adresatga munosabatini ifodalovchi paraverbal kanal;

3) kommunikatsiyaning noverbal kanallari:

- vizual (optik) kanali;
- audio (eshitish) kanali;
- hid bilish kanali;
- taktik kanal;
- ta’m bilish kanali;
- proksematik kanal (so‘zlovchilarning bir-biriga nisbatan joylashish masofasi);
- kinetik (mimika, xatti-harakat va jestlar) kanali;

4. Radio-priyomnik orqari qabul qiluvchi kanal. Ushbu kanal signallarni axborotga aylantirib beradi;

5. Adresat - axborotni qabul qiluvchi retsipiyent.


Tilshunos Shennon o‘z ishlarida ushbu terminlardan tashqari, shovqin va ortiqchalik tushunchalarini ham qo‘llaydi.

Uning fikricha, shovqin axborotning sifatini pasaytiradi, uzatilayotgan tovushning to‘liqligi va butunligini buzadi, radio-priyomnik orqali signalni qabul qilishga to‘sqinlik qiladi. Verbal kommunikatsiyada esa shovqin tushunchasi ostida nutqda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yish, kuchli aksent bilan gapirish va hokazolar nazarda tutiladi.

Kommunikatsiyada ortiqchalik esa kommunikativ muvaffaqiyatsizlikni bartaraf etish maqsadida axborot elementlarini dublikatlash, ya’ni qaytarish sanaladi. Ortiqchalik, odatda, tabiiy tillar misolida aniq ko‘rinadi. Sababi, barcha tillarning

deyarli, yarim qismi radio chiqishlar, matnlar yordamida saqlangani bois, ortiqchalik xususiyatiga ega.

Kommunikatsiyani tushunishda tilshunos R. Yakobson taklif etgan model ham mavjud bo‘lib, ushbu model uning “Tilshunoslik va she’riyat” nomli maqolasida asoslangan bo‘lib, u tilshunoslik kurslarining asosi sifatida ham qaraladi. Uning fikricha, nutq va kommunikatsiyaning jarayonida adresant va adresat ishtirok etib, kod orqali birinchisi ikkinchisiga axborotni matn ko‘rinishida yo‘llaydi. Kommunikatsiyaning har bir komponenti kommunikatsiya jarayonida muayyan funksiyani bajaradi (Якобсон Р., 1985). Xususan,



Kommunikatsiyada so‘zlovchi axborotni tinglovchiga uzatadi. Uzatilayotgan axborotdan ko‘zlangan maqsadga erishishda quyidagilar muhim sanaladi:

- adresat tomonidan verbalizatsiya qilinishi orqali qabul etilishi lozim bo‘lgan matn;
- adresant yoki adresat uchun, qisman bo‘lsa-da, umumiy bo‘lgan kod, ya’ni til;
- kommunikatsiya jarayonida adresant va adresat o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni ta’minlovchi jismoniy kanal.

Kommunikatsiya jarayonida adresat va adresant o‘ziga xos o‘y-fikri, his-tuyg‘ulari, munosabatlarini ifodalash maqsadida ekspressivlik va emotiv funksiyani ham bajaradi (Sayidiraximova N., 2024). Ushbu funksiya o‘zida so‘zlovchining tinglovchi nima haqida gapirayotganligini to‘g‘ri anglashi uchun xizmat qiladi. Eng qizig‘i, ushbu funksiya, muayyan his-tuyg‘ularning haqiqiy yoki yolg‘on ekanligi haqida taassurot uyg‘otishda alohida rol o‘ynaydi. Tilning referent vazifasini bunda undov so‘zlar bajarib, tilning turli sathlari: fonetik, leksik va grammatik bosqichlariga bo‘yoq berish vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, kommunikatsiya jarayonida adresat konnotativ yoki apellyativ vazifani ham bajaradi. Bunda tilning tinglovchiga mo‘ljallangan konnotativ funksiyasi to‘liq grammatik tusga ega bo‘lib, ta’kid yoki tasdiq shakllaridagi fe’l grammatik kategoriyalar asosida shakllantiriladi.

Istalgan kommunikatsiya qaysidir ma’noda, ifoda mazmuniga ko‘ra poetik funksiya bajaruvchi xabardan tashkil topadi. Mazkur holat ayniqsa, poetik asarlar uchun ta’sirli bo‘lib, ularda poetik funksiya ahamiyatini pasaytirishga, ularning nafaqat badiiyati, balki g‘oyaviy mazmuniga putur yetkazishga olib kelishi mumkin. Shu bois ham kommunikatsiyaning poetik funksiyasi so‘z badiiy san’atining maqsadni birinchi

planga chiqarishdagi o‘ta muhim komponenti sanaladi. Kommunikatsiyaning ushbu funksiyasi belgining ta’sir kuchini oshiradi hamda belgi va predmetlar o‘rtasidagi fundamental dixotomiyani chuqurlashtiradi. Shu sababli nutqning poetik funksiyasini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi tilshunos olimlar nazm va nasr chegarasini belgilashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Kommunikatsiyaning borliq haqidagi referent (denotativ yoki konnotativ yoki kommunikativ) – kontekst funksiyasi ham mavjud bo‘lib, ushbu belgi axborotning referentga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Bunda tadqiqotchi, ya’ni lingvist uzatilayotgan axborotning barcha – ijobiy va salbiy ta’sirini ham e’tiborga olishi lozim.

Kommunikatsiyaning yana bir funksiyasi bu fatik (kommunikatsiyani o‘rnatish, qo‘llab-quvvatlash yoki uni uzish) funksiyasi sanaladi. Shunday axborotlar mavjudki, ularda kommunikatsiyani o‘rnatish, davom ettirish va to‘xtatish, aloqa kanali ishini tekshirish (masalan, telefon orqali suhbatlashayotganda, tinglovchining eshitayotganligini tekshirish maqsadida “Alo, eshitilyaptimi, eshityapsizmi?” singari so‘zlar qo‘llaniladi) maqsad qilinadi.

Kommunikatsiyaning metatil, ya’ni kodli (adresat va adresantlar kodini qiyoslash, tahrir qilish) funksiyasi ham mavjud. Agar so‘zlovchi va tinglovchi nutqini, ularning har ikkalasi bir xil koddan foydalanayotganligi tekshirib aniqlansa, bunda nutqning predmeti kodning o‘zi bo‘ladi, nutq esa metatil vazifasini bajaradi. Masalan, nutq jarayonida tinglovchi, ba’zi o‘rinda, “Men sizni tushunmadim, nima demoqchisiz?” yoki so‘zlovchi “Nima demoqchi ekanligimni angladingizmi?” kabi savollarni berish orqali o‘rtadagi kommunikatsiyani ta’minlashga harakat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nutq o‘ta murakkab hodisa sanaladi. Madaniyatlararo muloqotni to‘g‘ri va aniq ta’minlashda nutqiy jarayon kommunikatsiyaning yuqorida qayd etilgan funksiyalarini bevosita o‘zi boshqarib turadi. Kommunikatsiyaning bunday funksiyalarini tadqiq etish esa nafaqat tilshunoslik, balki “Madaniyatlararo muloqot” fanining ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sayidiraximova, Nasiba (2024) Madaniyatlararo muloqotda “madaniyat”, “enkulturatsiya”, “sosializatsiya” va “akkulturatsiya” tushunchalari // Islom tafakkuri. – Toshkent. - № 2. – B. 91-96.

2. Sayidiraximova, Nasiba (2024) “Madaniyatlararo muloqot” fanining yuzaga kelishi xususida. Umumiy filologiyaning nazariy masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Andijon. – B. 298-300.

3. Sayidiraximova, Nasiba (2024) Intercultural communication as a theoretical and practical field of linguistics // International Journal of Education, Social Science 2

Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume 12. Issue 4. – pp. 393-396.

4. Садохин, А.П. (2005) Введение в теорию межкультурной коммуникации. – Москва: Высш. шк. 310 с.

5. Белик, А.А. (2009) Культурная (социальная) антропология: учеб. пособие. – Москва: РГГУ.

6. Hall, E.T. (1959) Silent Language. – New York: Doubleday. 240 p.

7. Соколов, С.В. (2002) Социальная конфликтология: учеб. пособие для вузов. – Москва: Unity-Dana. 327 с.

8. Hammer, M.R. (2003) The Intercultural Conflict Style Inventory: Interpretive Guide. – Москва. Vol. 1–2.

9. Lather, A.S. (2011) Cross Cultural Conflict Resolution Styles: An Extensive Literature Review // Asian Journal of Management Research. Is. 1. – pp. 130-146.

10. Weaver, G.R. (2000) Culture, Communication, and Conflict: Readings in Intercultural Relations. – Boston. – 563 p.

11. Якобсон, Р.О. (1975) Лингвистика и поэтика // Структурализм: «за» и «против». – Москва: Прогресс.

12. Якобсон, Р.О. (1985) Речевая коммуникация: Язык в отношении к другим системам коммуникации // Избранные работы. – Москва: Прогресс.

REFERENCES:

1. Sayidiraximova, Nasiba (2024) Madaniyatlararo muloqotda “madaniyat”, “enkulturatsiya”, “sosializatsiya” va “akkulturatsiya” tushunchalari // Islom tafakkuri. – Toshkent. - № 2. – B. 91-96. (In Uzbek)

2. Sayidiraximova, Nasiba (2024) “Madaniyatlararo muloqot” fanining yuzaga kelishi xususida. Umumiy filologiyaning nazariy masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Andijon. – B. 298-300. (In Uzbek)

3. Sayidiraximova, Nasiba (2024) Intercultural communication as a theoretical and practical field of linguistics // International Journal of Education, Social Science 2 Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume 12. Issue 4. – pp. 393-396.

4. Sadoxin, A.P. (2005) Vvedeniye v teoriyu mejkulturnoy kommunikatsii. – Moskva: Vissh. shk. 310 s. (In Russian)

5. Belik, A.A. (2009) Kulturnaya (sotsialnaya) antropologiya: ucheb. posobiye. – Moskva: RGGU. (In Russian)

6. Hall, E.T. (1959) Silent Language. – New York: Doubleday. 240 p.

7. Sokolov, S.V. (2002) Sotsialnaya konfliktologiya: ucheb. posobiye dlya vuzov. – Moskva: Unity-Dana. 327 s. (In Russian)

8. Hammer, M.R. (2003) The Intercultural Conflict Style Inventory: Interpretive Guide. – Москва. Vol. 1–2.

9. Lather, A.S. (2011) Cross Cultural Conflict Resolution Styles: An Extensive Literature Review // Asian Journal of Management Research. Is. 1. – pp. 130-146.

10. Weaver, G.R. (2000) Culture, Communication, and Conflict: Readings in Intercultural Relations. – Boston. – 563 p.

11. Yakobson, R.O. (1975) Lingvistika i poetika // Strukturalizm: “za” i “protiv”. – Moskva: Progress. (In Russian)

12. Yakobson, R.O. (1985) Rechevaya kommunikatsiya: Yazik v otnoshenii k drugim sistemam kommunikatsii // Izbranniye raboti. – Moskva: Progress. (In Russian)

INGLIZ BIZNES DISKURSIDA IDIOMALARNING ROLI

THE ROLE OF IDIOMS IN ENGLISH BUSINESS DISCOURSE

РОЛЬ ИДИОМ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ ДЕЛОВОМ ДИСКУРСЕ

Kodirova Mukaddas Tog‘ayevna,
Termiz davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD),
Tel.: +998 91 588-26-27
qmuqaddas@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada idiomatik iboralarning biznes aloqasi dinamikasiga sezilarli ta’siri o‘rganiladi. “Win-win situation”, “think outside the box” va “hit the ground running” kabi idiomalarga e’tibor qaratilib, tadqiqotda ushbu iboralar turli biznes kontekstlarida yanada qiziqarli va samarali kommunikativ almashinuvga qanday hissa qo‘shishiga e’tibor qaratiladi. Ushbu idiomalarning kasbiy nutqdagi chastotasi chuqurroq o‘rganilib, ularning semantik xususiyatlari, tub ma’nolari, qo‘shimcha ma’nolari va aksiologik ahamiyatiga oydinlik kiritiladi.

Idiomalar shunchaki bezakli til elementlari emas, balki ular murakkab fikrlarni lo‘nda va jonli bayon etishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning metaforik tabiati ma’ruzachilarga ko‘p qirrali tushunchalarni tinglovchilar bilan rezonanslashadigan tarzda qamrab olish imkonini beradi va shu bilan hamkasblar va mijozlar o‘rtasida yaxshiroq tushunish qobiliyatini va hamkorlikni rivojlantiradi. Maqolada idiomalarning aloqa samaradorligini oshirishdagi roli ta’kidlanib, ulardan to‘g‘ri foydalanish o‘zaro tushunishdagi bo‘shliqlarni bartaraf etishi va o‘zaro munosabatlarni osonlashtirishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, tadqiqotimizda ishbilarmonlar orasida idiomatik iboralarni bilish zarurligi ta’kidlanadi, chunki ular ishontirish, jalb qilish va munosabatlarni o‘rnatish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Idiomalarni o‘zlarining muloqot strategiyalariga integratsiyalashtirgan holda, mutaxassislar xabarlarni yetkazib berishni yaxshilashlari va biznes nutqining umumiy sifatini yaxshilashlari mumkin.

Kalit so‘zlar: *Ingliz biznes diskursi, idiomalar, kommunikativ samaradorlik, metaforik ifodalar, semantik tahlil, biznes muloqoti, aksiologik xususiyatlar*.

Annotation: The article explores the significant impact of idiomatic expressions on the dynamics of business communication. By focusing on idioms such as "win-win situation", "think outside the box", and "hit the ground running", the study highlights how these phrases contribute to a more engaging and effective communicative exchange within various business contexts. The analysis delves into the frequency of these idioms in professional discourse and examines their semantic features, shedding light on their underlying meanings, connotations, and axiological significance.

The article posits that idioms are not merely decorative language elements; rather, they are instrumental in conveying complex ideas succinctly and vividly. Their metaphorical nature enables speakers to encapsulate multifaceted concepts in a manner that resonates with listeners, thereby fostering better understanding and collaboration among colleagues and clients. The findings underscore the role of idioms in enhancing communication efficiency, suggesting that their appropriate use can bridge gaps in mutual understanding and facilitate smoother interactions. Furthermore, the research emphasizes the need for awareness of idiomatic expressions among business professionals, as they can serve as critical tools for persuasion, engagement, and relationship building. By integrating idioms into their communication strategies, professionals can enhance their message delivery and improve the overall quality of business discourse.

Keywords: *English business discourse, idioms, communicative effectiveness, metaphorical expressions, semantic analysis, business communication, axiological features.*

Аннотация: В статье рассматривается значительное влияние идиоматических выражений на динамику деловой коммуникации. Сосредоточившись на таких идиомах, как «win-win situation», «think out the box» и «hit the ground running», исследование подчеркивает, как эти фразы способствуют более увлекательному и эффективному коммуникативному обмену в различных деловых контекстах. Анализ углубляется в частоту использования этих идиом в профессиональном дискурсе и изучает их семантические особенности, проливая свет на их основные значения, коннотации и аксиологическое значение.

В статье утверждается, что идиомы — это не просто декоративные элементы языка; скорее, они играют важную роль в передаче сложных идей кратко и наглядно. Их метафорическая природа позволяет говорящим инкапсулировать многогранные концепции таким образом, который находит отклик у слушателей, тем самым способствуя лучшему пониманию и сотрудничеству между коллегами и клиентами. Результаты подчеркивают роль идиом в повышении эффективности коммуникации, предполагая, что их правильное использование может устранить пробелы во взаимопонимании и способствовать более плавному взаимодействию. Кроме того, исследование подчеркивает необходимость осведомленности об идиоматических выражениях среди профессионалов бизнеса, поскольку они могут служить критически важными инструментами для убеждения, вовлечения и построения отношений. Интегрируя идиомы в свои коммуникационные стратегии, профессионалы могут

улучшить доставку своих сообщений и повысить общее качество делового дискурса.

Ключевие слова: *английский бизнес дискурс, идиомы, коммуникативная эффективность, метафорические выражения, семантический анализ, бизнес-коммуникация, аксиологические особенности*.

KIRISH

Zamonaviy biznes sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat puxta bilim va tajriba, balki samarali muloqot qilish qobiliyati ham muhim o‘rin tutadi. Ingliz tili global biznes tili sifatida keng qo‘llanilishi natijasida, bu tilning ko‘p jihatlari, jumladan, idiomalar, biznes diskursida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nufuzli «Лингвистический энциклопедический словарь” (Lingvistik ensiklopedik lug‘at)da “idioma” frazeologik birliklar sinfi deb belgilanadi hamda unga quyidagicha ta’rif beriladi: “Idiomalar – so‘z va jumlalarning semantik jihatdan bog‘liq birikmalari. Ular shakl jihatdan o‘xshash sintaktik tuzilmalardan farqli o‘laroq, gapni tashkil qilishda so‘zlarni tanlash va birikmaning umumiy qonunlariga muvofiq ishlab chiqilmaydi, lekin nutqda ma’no tuzilishi va ma’lum bir leksik va grammatik tarkibning qat’iy nisbatida takrorlanadi”. “Idioma” atamasi ilk bor ingliz tiliga qadimgi lotin tilidan va o‘rta fransuz tilidan kirib kelgan. Idiomalar birinchi bor XVI asrda qo‘llangan (Monica-Ariana S., 2015: 173). Demak, idiomalar, o‘ziga xos iboralar sifatida, muloqotga qo‘shimcha ma’no, hissiy rang-baranglik va ifodalilik baxsh etadi. Ular nafaqat aloqa samaradorligini oshiradi, balki madaniy kontekstni ham aks ettiradi» (Лингвистический энциклопедический словарь, 1990: 559).

Shu o‘rinda “biznes diskursi nima?” degan savol tug‘iladi. Biznes diskursi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, turli soha va faoliyat turlarini birlashtiradigan muhim kommunikatsion platformadir. U nafaqat iqtisodiy jarayonlarni, balki ijtimoiy va madaniy omillarni ham o‘z ichiga oladi. Biznes diskursini o‘rganish jarayonida, leksik qatlamlar, ya’ni so‘zlarni va iboralar ma’nosini to‘g‘ri tushunish va ularning samarali ishlatilishi ayniqsa muhimdir.

Ingliz tilida biznes muloqoti leksikasida quyidagi qatlamlar ajratilgan:

- ***umumiy ingliz tili so‘zlari*** (General English words);
- ***umimiy biznes ingliz lug‘ati*** (General Business English vocabulary);
- ***umumiy biznes ingliz terminologiyasi*** (General Business English terminology);
- ***ixtisoslashgan terminologiya*** (Specialized terminology/terminologies).

Maqolada ingliz biznes diskursida idiomalar va ularning muhimligini keng qamrovli tahlildan o‘tkazish maqsad qilingan. Maqsadga ko‘ra, ingliz biznes diskursida idiomalarning jarayonlarga ta’siri haqida nazariy asoslarni taqdim etish

bilan birgalikda, ularni turli kontekstlarga moslashtirish yo‘llarini aniqlash ham vazifa qilib belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tilidagi biznes diskursida idiomalarning o‘rni haqida tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilgan bo‘lsa-da (V.A. Bogoroditskaya, 2010; M.I. Vershinina, 2012, 2014; E.Y. Kabanova, 2000; Z.V. Mankovskaya, 2011; L.P. Tarnayeva, 2009 va boshqalar), mazkur mavzuga oid chuqur tahliliy yondashuv hali ham dolzarb hisoblanadi.

V.V. Vinogradov ta’kidlaganidek, idioma – bog‘langan so‘z birikmasi, u tarkibiga kirgan so‘zlarning ma’nolaridan asl ma’nosini anglatib bo‘lmaydigan, ma’no jihatdan bo‘linmaydigan iboradir (Виноградов В., 1977: 141). Shu bois, bu kabi leksik qatlam diskursda, jumladan biznes diskursini jonlantirish va samarali biznes kommunikatsiyasini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Veronika Koller (2004) metafora va idiomalarning biznes diskursidagi gender xususiyatini tadqiq etgan (Veronika K., 2004). Bundan ko‘rinib turibdiki, biznes diskursida idiomalar faqat tilni jonlantiribgina qolmay, balki muloqot jarayonida ishonch va ta’sir kuchini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada, ingliz biznes diskursida qo‘llaniladigan idiomalarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish uchun diskurs tahlili metodlaridan foydalanildi. Ushbu tahlil biznes sohasiga oid matnlar, hisobotlar va intervyular asosida olib borildi, bunda idiomalarning muloqotdagi o‘rni, ularning natijalari va ta’siri aniqlandi. Tadqiqot uchun korpus lingvistikasidan foydalanish orqali ingliz tilidagi biznes matnlar chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, idiomalar qo‘llanilishining miqdoriy va sifat jihatlari ham o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotning maqsadiga erishish uchun tahlillar amalga oshirildi. Tahlilga tortilgan materiallar quyidagi manbalardan tanlab olindi:

1) Idiomalarning monolingual korpus lug‘atlaridan (Collins COBUILD Idioms Dictionary, Longman Idioms Dictionary, Oxford Dictionary of English Idioms);

2) Biznes ingliz tilining monolingual korpus lug‘atlaridan (Longman Business English Dictionary, Cambridge Business English Dictionary, Collins COBUILD International Business English Dictionary, Oxford Business English Dictionary);

3) Ingliz tilidagi “Business” ensiklopediyaning lug‘at bo‘limlaridan (The Ultimate Resource);

4) “Intelligent Business Intermediate” o‘quv kursining “Audioscripts” (Audioskriptlar) bo‘limi monologlari, dialoglari va poliloglari.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz biznes diskursida idiomalar kommunikatsiya jarayonini samaraliroq qilishda muhim o‘rin tutadi. Biznes

muloqotlarida ishlatiladigan idiomalar ko‘pincha maqsadli auditoriya bilan yaqinroq aloqa o‘rnatish va muloqotga ta’sirchanlik qo‘shish uchun qo‘llanadi. Korpus tahlili shuni ko‘rsatadiki, bunday iboralar biznes matnlarida keng tarqalgan bo‘lib, ular ijobiy kayfiyat yaratish, ishonch uyg‘otish va tushunarli muloqot o‘rnatishga xizmat qiladi.

Ingliz tili biznes diskursidagi idiomalar ko‘pincha muloqotning mazmunini boyitadi va samaradorlikni oshiradi. Tasavvur qiling, har bir idioma tilning murakkab labirintida harakat qiluvchi qahramon kabi bo‘lib, o‘zining ma’nosi va lingvistik tuzilmasi bilan o‘ziga xos hikoyani keltirib chiqaradi. Bu idiomalar qanday yaratilgan va qanday ishlatiladi? Keling, buni bir jadvalda berilgan tahlilini ko‘rib chiqaylik: (1-jadval)

1-jadval. Ingliz tili biznes diskursida qo‘llaniladigan idiomalarning lingvistik tahlili


Idioma	Ma’nosi	Metaforik kelib chiqishi	Lingvistik tahlil
Think outside the box	An’anaviy cheklovlarsiz kreativ yechimlar topish	"Box" an’anaviy chegara, "think" esa fikrlash jarayonini bildiradi	Metafora orqali cheklovlardan chiqish va innovatsiya talab qilinadi
Hit the ground running	Tez va samarali boshlash	Harakatni boshlashda yugurish sur’ati	Tezkor harakat qilishni ifodalovchi kinestetik metafora
Cutting-edge	Eng zamonaviy yoki innovatsion	"Kesuvchi chet" (keskin yangilik)	Innovatsiya va zamonaviylikni ta’kidlaydigan metafora
Win-win situation	Ikkala tomon uchun foydali holat	O‘yinlardagi g‘alabaga ishora	Ijobiy natija beruvchi takrorlanadigan qahramon (g‘alaba)
Learn the ropes	Yangi ko‘nikmalarni o‘rganish	Dengizchilik sohasidan olingan	Tajriba va bilim olishni bildiruvchi kontekstual metafora
Touch base	Tezkor aloqa qilish	Baseball sportiga asoslangan	Qisqa maslahatlashuv va aloqa o‘rnatishni ifodalovchi idioma
Back to the drawing board	Loyihani qayta ko‘rib chiqish	Chizma doskasiga qaytishni bildiradi	Qayta rejalashtirish zaruriyatini aks ettiruvchi lingvistik struktur
Up in the air	Hal qilinmagan vaziyat	Havoda osilgan noaniq narsalar	Noaniqlik va barqarorlik yo‘qligini bildiruvchi idioma

The ball is in your court	Sizdagi qayta qaror qabul qilish imkoniyati	Tennis o‘yinidan kelib chiqqan	Javobgarlik va qaror qabul qilish majburiyati ifodasi
Raise the bar	Standart yoki talablarni oshirish	Sport bilan bog‘liq bo‘lib, balandlikka sakrash musobaqa-larida "bar" (to‘siq) yuqoriga ko‘taril-ganida qiyinchilik oshadi	Talablarni yuqori darajaga ko‘tarishni anglatadi.

Bu jadvalda har bir idioma qanday qilib o‘z ma’nosi va metaforik kelib chiqishi orqali biznes diskursini shakllantirishda ishlatilayotgani ko‘rsatilgan. Tildagi har bir birlik – idioma – o‘zining lingvistik va semantik vazifasini bajarib, muloqotda aniq va ta’sirchan ifodalarni yaratishga xizmat qiladi.

Tahlil uchun foydalanilayotgan manbalarga asoslanib, jadvalda namuna uchun keltirilgan idiomalarning qo‘llanilish dinamikasini aniqladik (1-chizma):

1-chizma. Biznes diskursida idiomalarning qo‘llanilish chastotasi



Yuqorida keltirilgan chizma ingliz biznes diskursida ishlatiladigan idiomalarning taxminiy tez-tezlik bilan qo‘llanilish ko‘rsatkichini aks ettiradi. Ular orasidan eng ko‘p ishlatiladigan idiomalar: “*Win-win situation*” va “*Cutting-edge*” iboralari biznes muhitida eng ko‘p qo‘llaniladi. Bu holat har ikki tomon uchun foydali sharoitlarni ta’kidlash va innovatsiyalarni ko‘rsatishda ushbu iboralar samarali bo‘lishi bilan bog‘liq.

O‘rtacha foydalaniladigan idiomalar: “*Think outside the box*”, “*Hit the ground running*” kabi iboralar ham keng tarqalgan. Ular kreativlik va tezkorlikka urg‘u beradi, shuning uchun tez-tez ishlatiladi.

Kamroq qo‘llaniladigan idiomalar: “*Up in the air*” va “*Back to the drawing board*” kabi iboralar biroz kamroq ishlatiladi. Ular odatda noaniqlik yoki qayta rejalashtirishga ishora qiladi.

Chizmadan ko‘rinib turibdiki, biznes diskursida idiomalar turli maqsadlarda ishlatiladi va ularning qo‘llanilish chastotasi mazmun yoki muloqot kontekstiga bog‘liq.

Quyidagi jadvalda esa ushbu idiomalarni ingliz tili biznes diskursida turli biznes kontekstlarida kelishi bilan qanchalik tez-tez ishlatilishi foizlar bilan statistik tahlil qilinadi:

Idioma	**Muzokaralar (%)**	**Prezentatsiyalar (%)**	**E-pochta / Hisobotlar (%)**	**Jamoa yig‘ilishlari (%)**
Think outside the box	25%	20%	30%	25%
Hit the ground running	20%	25%	20%	35%
Cutting-edge	15%	30%	25%	30%
Win-win situation	40%	35%	25%	35%
Learn the ropes	10%	18%	35%	37%
Touch base	5%	25%	30%	40%
Back to the drawing board	10%	15%	40%	35%
Up in the air	8%	12%	25%	55%
The ball is in your court	15%	20%	30%	35%
Raise the bar	12%	25%	20%	43%

Demak, holatni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Muzokaralar: “Win-win situation” (40%) muzokaralarda eng ko‘p ishlatiladi, bu esa hamkorlik va o‘zaro foyda keltirishga asoslangan muloqotni ko‘rsatadi.

Prezentatsiyalar: “Win-win situation” (35%) va “Cutting-edge” (30%) kabi innovatsiyalar va hamkorlikni ta’kidlovchi idiomalar ko‘p ishlatiladi.

E-pochta/Hisobotlar: “Back to the drawing board” (40%) kabi qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq idiomalar bu turdagi diskursda yetakchi o‘rinda.

Jamoa yig‘ilishlari: “Up in the air” (55%) va “Raise the bar” (43%) kabi o‘zgaruvchanlik va tezkor maslahatlashuv bilan bog‘liq idiomalar ko‘p ishlatiladi.

Bu jadval biznesda turli kontekstlarda idiomalar qanday ishlatilishini aniq tasvirlaydi.

Muhokama davomida aniqlangan yana bir muhim jihat shuki, idiomalar qo‘llanishi biznes diskursida ko‘pincha madaniy kontekstga bog‘liq. Masalan, ba’zi idiomalar asosan Amerika biznes diskursida ishlatilsa, boshqalari Buyuk Britaniya yoki boshqa ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlarning madaniyati va an’analariga xosdir. Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko‘ra, idiomalarning to‘g‘ri ishlatilishi muloqotning ishonchli va samimiy ko‘rinishiga yordam berishi mumkin, ammo noto‘g‘ri ishlatilganda ular tushunmovchilik yoki kommunikativ qiyinchiliklarga olib kelish ehtimoli bor.

Ushbu tadqiqot ingliz biznes diskursida idiomalarning funksional ahamiyati haqida yangi tushunchalar berar ekan, kelgusida yanada ko‘proq til va madaniyatlararo tadqiqotlar olib borilishi lozimligi haqida xulosa qilish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ingliz biznes diskursida idiomalarning roli kommunikatsiyaning samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Idiomalar nafaqat muloqotni jonlantirib, hissiy rang-baranglik kiritadi, balki madaniy va ijtimoiy kontekstda ham tushunishni osonlashtiradi. Ular biznes muhitida innovatsion fikrlashni rag‘batlantirish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va ta’sirchan muloqot o‘rnatishda samarali qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, idiomalar keng madaniy va lingvistik bilimni talab qiladi, shuning uchun ularni o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llash muvaffaqiyatli muloqotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Biznes sohasida idiomalardan to‘g‘ri foydalanish nafaqat aloqa ishonchliligini oshiradi, balki muvaffaqiyatli muzokaralar va bitimlar tuzishga ham yordam beradi. Shu sababli, ingliz tilida so‘zlashuvchi xalqaro biznes muhitida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun idiomalarni tushunish va ulardan foydalana olish qobiliyati katta ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida biznes diskursidagi idiomalarning lingvistik va madaniy jihatlarini chuqurroq o‘rganish orqali xalqaro biznes aloqalarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilishi lozimligini ta’kidlab o‘tamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Богородицкая В.А. (2010) Общеупотребительная бизнес-терминология в современном аутентичном англоязычном дискурсе. – Дисс. … канд. филол. наук. – Москва. – 191 с.

2. Вершинина М.И. (2012) Идиомы в одноязычной энциклопедии “Business: The Ultimate Resource” // Актуальные проблемы лингвистики и лингводидактики иностранного языка делового и профессионального общения:

материалы в Международной научно-практической конференции. – Москва: Российский Университет Дружбы Народов. – С. 108–109.

3. Вершинина М.И. (2014) Идиомы в письменном бизнес-дискурсе: функциональный аспект // Научное мнение. – № 9. – СПб.: ООО "Книжный дом". – С. 155–159.

4. Виноградов В.В. (1977) Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва.

5. Кабанова Е.Ю. (2000) Идиоматическая фразеология в дискурсе (на материале английской и американской рекламы). Дисс. … канд. филол. наук. – Москва. – 183 с.

6. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1990. – 685 с.

7. Тарнаева Л.П. (2009) Передача идиоматичности делового дискурса при переводе: лингвометодический аспект проблемы // Фразеология и терминология: грани пересечения. – Архангельск: Поморский государственный университет. – С. 108–127.

8. Cambridge Business English Dictionary. – Cambridge University Press, 2011. – 947 p.

9. Collins COBUILD Idioms Dictionary. – Harper Collins Publishers, 2006. – 511 p.

10. Collins COBUILD International Business English Dictionary. – Harper Collins Publishers, 2011. – 626 p.

11. Koller, Veronika (2004). Metaphor and Gender in Business Media Discourse: A Critical Cognitive Study. – Basingstoke & New York: Palgrave Macmillan.

12. Longman Business English Dictionary. – Pearson Education Limited, 2007. – 594 p.

13. Longman Idioms Dictionary. – Pearson Education Limited, 2008. – 398 p.

14. Monica-Ariana S. et al. Idioms in business communication // The Annals of the University of Oradea. – 2015. – P. 172-178.

15. Oxford Business English Dictionary. – Oxford University Press, 2012. – 616 p.

16. Oxford Dictionary of English Idioms. – Third Edition. – Oxford University Press, 2010. – 408 p.

17. Business: The Ultimate Resource. – Third Edition. – A&C Black Publishers Ltd, 2011. – 1607 p.

REFERENCES:

1. Bogorodiskaya V.A. (2010) Obsheupotrebitelnaya biznes-terminologiya v sovremennom autentichnom angloyazichnom diskurse. – Diss. … kand. filol. nauk. – Moskva. – 191 s. (In Russian)

2. Vershinina M.I. (2012) Idiomi v odnoyazichnoy ensiklopedii “Business: The Ultimate Resource” // Aktualniye problemi lingvistiki i lingvodidaktiki inostrannogo yazika delovogo i professionalnogo obsheniya: materiali v Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Moskva: Rossiyskiy Universitet Drujbi Narodov. – S. 108–109. (In Russian)

3. Vershinina M.I. (2014) Idiomi v pismennom biznes-diskurse: funksionalniy aspekt // Nauchnoye mneniye. – № 9. – SPb.: OOO "Knijniy dom". – S. 155–159. (In Russian)

4. Vinogradov V.V. (1977) Izbranniye trudi. Leksikologiya i leksikografiya. – Moskva. (In Russian)

5. Kabanova E.Yu. (2000) Idiomaticheskaya frazeologiya v diskurse (na materiale angliyskoy i amerikanskoy reklami). Diss. … kand. filol. nauk. – Moskva. – 183 s. (In Russian)

6. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1990. – 685 s. (In Russian)

7. Tarnayeva L.P. (2009) Peredacha idiomatichnosti delovogo diskursa pri perevode: lingvometodicheskiy aspekt problemi // Frazeologiya i terminologiya: grani peresecheniya. – Arxangelsk: Pomorskiy gosudarstvenniy universitet. – S. 108–127. (In Russian)

8. Cambridge Business English Dictionary. – Cambridge University Press, 2011. – 947 p.

9. Collins COBUILD Idioms Dictionary. – Harper Collins Publishers, 2006. – 511 p.

10. Collins COBUILD International Business English Dictionary. – Harper Collins Publishers, 2011. – 626 p.

11. Koller, Veronika (2004). Metaphor and Gender in Business Media Discourse: A Critical Cognitive Study. – Basingstoke & New York: Palgrave Macmillan.

12. Longman Business English Dictionary. – Pearson Education Limited, 2007. – 594 p.

13. Longman Idioms Dictionary. – Pearson Education Limited, 2008. – 398 p.

14. Monica-Ariana S. et al. Idioms in business communication // The Annals of the University of Oradea. – 2015. – P. 172-178.

15. Oxford Business English Dictionary. – Oxford University Press, 2012. – 616 p.

16. Oxford Dictionary of English Idioms. – Third Edition. – Oxford University Press, 2010. – 408 p.

17. Business: The Ultimate Resource. – Third Edition. – A&C Black Publishers Ltd, 2011. – 1607 p.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA NUTQIY MASALALARGA E’TIBOR

ATTENTION TO SPEECH ISSUES IN PRIMARY EDUCATION

ВНИМАНИЕ К ПРОБЛЕМАМ РЕЧИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Karimova Shaxloxon G‘aniyevna,
Oriental universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Tel: +998 90 185-69-13
shkarimova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim sohasida ona tilini o‘qitish, nutq ko‘nikmalarini va uning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishdagi mavjud muammolar va ularni hal qilishning lingvistik yo‘llari muhokama qilinadi. Til ta’limida, hamda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlarda grammatik mashqlar, interfaol uslublar va samarali usullardan foydalanish talabalarning lisoniy bilim va malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi yuzasidan zaruriy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot akademik va ijtimoiy kontekstlarda samarali muloqot qilish ko‘nikmalarining muhimligini ta’kidlaydi va yosh o‘quvchilar o‘rtasida nutq malakasini oshirish uchun tizimli yondashuvni taklif qiladi. Og‘zaki muloqotda ishonch va nutq ravonligini rivojlantirish uchun rolli o‘yinlar, guruh muhokamalari va notiqlik mashqlari kabi turli interfaol tadbirlarni tavsiya etamiz. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu tavsiyalarni amalga oshirish o‘quvchilarning nutq qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi va ularning umumiy akademik muvaffaqiyatiga hissa qo‘shishi mumkin. Maqolada o‘quvchilarni kelajakdagi ilmiy va kasbiy izlanishlariga yaxshiroq tayyorlash uchun boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlarida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish muhimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *yozma nutq, og‘zaki nutq, nutqiy ko‘nikma, til nazariyasi, til qonuniyatlari, grammatika, morfologiya, interfaol metod, nutqiy kompetensiya, so‘z turkumlari, sintaktik qurilma, matn.*

Annotation: This article discusses the existing problems in teaching the mother tongue, improving speech skills and its scientific and theoretical foundations in the field of primary education, and linguistic ways to solve them. Necessary recommendations are given regarding the importance of using grammar exercises, interactive methods and effective approaches in language education and practical training aimed at developing speaking skills in developing students’ linguistic knowledge and skills. The study highlights the importance of effective communication

skills in academic and social contexts and suggests a systematic approach to improving speaking skills among young learners. We recommend a variety of interactive activities such as role plays, group discussions and public speaking exercises to develop confidence and fluency in oral communication. The results show that implementing these recommendations can significantly improve students' speaking skills and contribute to their overall academic success. The article emphasizes the importance of prioritizing the development of speaking skills in primary education curricula in order to better prepare students for their future academic and professional pursuits.

Keywords: *written speech, oral speech, language theory, laws, grammar, morphology, interactive method, speech competence, word categories, syntactic device, text.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются существующие проблемы обучения родному языку, совершенствованию речевых навыков и его научно-теоретических основ в сфере начального образования, а также лингвистические пути их решения. Даны необходимые рекомендации относительно важности использования грамматических упражнений, интерактивных методов и эффективных подходов языковом обучении и практических занятиях, направленных на развитие навыков говорения, в развитии языковых знаний и умений учащихся. Исследование подчеркивает важность эффективных коммуникативных навыков в академическом и социальном контексте и предлагает систематический подход к совершенствованию разговорных навыков среди молодых учащихся. Мы рекомендуем различные интерактивные мероприятия, такие как ролевые игры, групповые дискуссии и упражнения по публичным выступлениям, чтобы развить уверенность и беглость устного общения. Результаты показывают, что выполнение этих рекомендаций может значительно улучшить разговорные навыки учащихся и способствовать их общим академическим успехам. В статье подчеркивается важность уделения приоритетного внимания развитию разговорных навыков в учебных программах начального образования, чтобы лучше подготовить учащихся к их будущей академической и профессиональной деятельности.

Ключевые слова: *письменная речь, устная речь, речевые навыки, теория языка, законы, грамматика, морфология, интерактивный метод, речевая компетентность, категории слов, синтаксический прием, текст.*

KIRISH

Nutq madaniyatiga erishish, namunali nutq (og‘zaki va yozma) tuzish malakasiga ega bo‘lish har bir shaxs madaniyatining ajralmas va tarkibiy qismi ekanligi ma’lum. Til ta’limida asosiy diqqat-e’tiborni o‘zbek tili birliklarining butun imkoniyatlarini talabalarga tanishtirish orqali ona tilining naqadar boy, serjilo va qadimiy ekanligini

yanada teran anglashga, ulardan ijtimoiy sharoitda nutqiy vaziyatga mos foydalana olish malakasini rivojlantirishga qaratish muhimdir.

Talabalarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko‘pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har ikki nutq ko‘rinishida: ham og‘zaki, ham yozma shaklda bemalol xatosiz fikr ifoda eta olishi zarurdir. Savodxonlikka qadam qo‘yayotgan bolajonlar uchun namunali nutq egasi, albatta, birinchi muallimdir. Shuningdek, didaktika (mavzuni tushunarli, sodda tilda bayon qilib bera olish), hissiy-irodaviy ta’sir eta olish, perseptiv – kuzatuvchanlik asosida o‘quvchi ruhiyatiga ta’sir qilish, ekspressiv – nutqiy, mimika, pantomimika asosida fikrni tushuntirish, kommunikativ – o‘quvchilar bilan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, pedagogik takt, talabchanlik, umuman, barcha pedagogik qobiliyatlar kommunikativ qobiliyatlar bilan bog‘liq, deya ta’kidlanadi ilmiy adabiyotlarda. (Mahmudov N., 2007: 56; Muhiddinov A., 1995: 47; G‘ulomov A., 1998: 65)

Bundan ko‘rinadiki, mazkur yo‘nalishda tahsil oluvchi talabalarning grammatik qonuniyatlarga amal qilgan holda, ayniqsa, adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda fikrlarini ham og‘zaki, ham yozma tarzda namunali ifodalab, nutq tuzishga erishuvini ta’minlash asosiy burchimiz hisoblanadi. Shunday ekan, “Ona tili nazariyasi” va “O‘qituvchi nutq madaniyati” kabi majburiy va tanlov fanlar dasturida ayni ta’limiy maqsadlar ko‘zda tutilgan. (Karimova Sh., 2023) Talabalarda ijodkorlikni, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o‘z shaxsiy fikrini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri va ravon ifodalashga o‘rgatish uchun ona tili ta’limining mazmunini tubdan yangilash, ta’lim jarayoniga o‘qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Ta’lim bosqichlarida ona tili o‘qitilishining talab darajasida emasligiga bosh sabablardan biri shundaki, ong va tafakkurni rivojlantirishda ona tilining tutgan o‘rniga noto‘g‘ri baho berishimizdir. Ong va tafakkurni shakllantirish asosan ijtimoiy fanlarga tegishli deb bilib, ona tilidan ta’lim mazmunini ona tili qurilishining ilmiy talqini, grammatikani o‘rganishdan iborat deb hisobladik. (To‘xliev B., Shamsieva M., Ziyadova T., 2006: 106) Natijada talaba-o‘quvchi grammatik qoidalarni quruq yodlash bilan kifoyalanib, qoidalar asosida turli hajm va murakkablikdagi ko‘plab topshiriqlarni bajarsa-da, og‘zaki va yozma savodxonligi sezilarli sifat darajasiga ko‘tarilmadi. Bir so‘z bilan aytganda, savodxonlik “oqsadi”.

Talabalarning ko‘pchilik qismida ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri va ravon ifodalash ko‘nikmalari hamon past saviyada qolib kelmoqda. Bu holning asosiy sabablarini faqat o‘qituvchiga to‘nkash yoki moddiy-texnikaviy kamchilikni ro‘kach qilish adolatsizlikdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiyaning zamon talablari darajasida takomillashtirilishi yoshlarning ma’naviy barkamol shaxs bo‘lib yetishishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni ilmiy jihatdan takomillashtirish, ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga to‘liq joriy qilish to‘g‘risida ko‘plab fikrlar bayon etilmoqda. (Erkaboyeva N., 2020: 36) Zero, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi dars maqsadiga erishishida o‘quvchilarning imloviy savodxonligi, uni yanada takomilga yetkazish usullaridan foydalanish va darslarni tashkil qilish o‘ziga xos ahamiyat kasb etar ekan, o‘qituvchining o‘zi birinchi galda lingvistik savodxonlikka erishgan bo‘lishi lozim. Ona tilini o‘rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo‘ygan qator vazifalariga moslangan. Bu vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, ularni bajarish va amaliyotga joriy etish g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ona tilini o‘rgatish natijasida talabalarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to‘g‘ri yoza olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Ona tili kursidan hosil qilingan maxsus ko‘nikmalar bilan fanlararo ko‘nikmalar bir-biridan ajratilmagan holda o‘quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Darsda talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishga, foydalaniladigan til materialining g‘oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qiymatli bo‘lishiga, tilni o‘rganish jarayonida ularning dunyoqarash elementlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berish zarur. Deylik, “Ot va uning leksik-grammatik xususiyatlari” mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlovchi amaliy mashg‘ulotda quyidagi matnni va shu asosda bajariladigan topshiriqlardan foydalanishni tavsiya etamiz:

“Halollik gigiyenasi”

Dasturxonimizga tortiladigan taom masalliqlarini xarid qilishdan to uni tayyorlab, pishirib, suzib keltirguncha ularning ozodaligiga e’tibor qilamiz. Muzxonada saqlaymiz, chang-g‘ubordan muhofazalash uchun doka-sochiqlar yopib qo‘yamiz. Nihoyat, ovqatlanishga o‘tirishdan avval qo‘llarimizni yuvamiz. Qoshiq va sanchqilarni qayta-qayta artishdan erinmaymiz.

Uncha-buncha ozodalik gigiyenasiga odatlanganimiz bois, mikrobdan qo‘rqamiz. Biroq, ozodalik gigiyenasidan ilgariroq keladigan, ehtimol, mikrobdan dahshatliroq bo‘lgan halollik gigiyenasini xayolimizga keltirmaymiz.

Dasturxonimizga tortilayotgan masalliqlarni, tanovul qilayotgan noz-ne’matlarni halollab topdikmi? Qayerdan keldi ular ro‘zg‘orimizga? Qaysi mehnatlarimiz evaziga qozonimizga solyapmiz ularni? Birovlarning haqidan urib

qolganimiz hisobiga emasmi? Kimlarnidir qon qaqshatish hisobiga orttirmagan edikmi ularni? Boshiga og‘ir musibat tushgan bechoradan tama yo‘li bilan undirib olgan poralarimiz hisobiga emasmi?...

Nopok va harom yo‘llar bilan topilgan taomni jig‘ildonga tiqayotib, ozodalik gigiyenasiga har qancha rioya qilmaylik, bu bilan luqmamiz poklanib qoladimi?

Bozor munosabatlarining tinimsiz toblanishi, o‘tish davrining shiddati va behalovat turmush tarzi odamlarni shu qadar komiga tortib ketdiki, bunday nozik savollar haqida o‘ylashga, mulohaza yuritishga fursat yetmayapti. Eng dahshatlisi shundaki, mana shunday taqchillikka ko‘nika borganimiz sayin, o‘zimizni savolga tutish, o‘zimizni o‘zimiz tergash odati ham unutilib ketmoqda.

Yaxshiyam, jamiyatimizda ijtimoiy muhofaza siyosati barqaror. Aks holda shataloq otayotgan, imoniy nafsini bozoriy nafsga ikki qo‘llab almashlab yuborayotganlar yana qanaqangi “karomatlar” ko‘rsatmas edi! Shuning uchun ham barchamiz “Halollik gigiyenasi”ga rioya qilaylik!

Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslardagina zarur axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Ona tili darslarida o‘zbek tiliga muhabbatli va so‘zga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga alohida e’tibor beriladi. (Karimova Sh., 2023: 26) Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o‘rganish jarayonida leksik-uslubiy ishlarga katta o‘rin beriladi. Har bir talaba yakka holda yoki kichik guruhlarda ishlashi ham mumkin.

Topshiriq:

1. Tinglab tushunish mashqi

Yuqoridagi matn o‘qib bo‘lingach, quyidagi savollar beriladi:

1. Matnda qaysi insoniy xislatlar haqida so‘z yuritilgan?
2. Ozodalik va halollik gigiyenasi o‘rtasida qanday o‘xshashlik bor?
3. To‘g‘ri tarbiyaning eng ta’sirli, eng samarali usuli qanday ekan? Uni amalga oshiruvchi asosiy shaxslar kim?
4. Bozor munosabatlari avj olgan zamonda har kim ham halollik tushunchasiga to‘g‘ri yondashyaptimi?
5. Halol kasb orqali mashhurlikka erishgan va xayrli ishlarga qo‘l urgan shaxslarni bilasizmi?

2. Og‘zaki nutqni o‘stirish mashqi

1. Siz matnga qanday nom topgan bo‘lar edingiz?
2. Halollik tushunchasini qanday izohlaysiz?
3. Halollik haqida qanday o‘zbek maqollarini bilasiz?
4. Halol insonlar jasorati haqida, halollikning foydalari to‘g‘risida yozilgan qaysi badiiy asarlarni esladingiz?

5. Bu asarlardan siz qanday xulosa chiqargansiz?

3. Yozma nutqni rivojlantiruvchi mashq

1. Matnda aytilishi va yozilishi farqlanadigan so‘zlarni ajrating va ikki ustunga ajratib yozing.

Talaffuziga ko‘ra:	***Yozilishiga ko‘ra:***
Uncha-muncha	Uncha-buncha
Mikrop	Mikrob
Dastirxon	Dasturxon
Erimmaymiz	Erinmaymiz
Taxchillikka	Taqchillikka
Pursat	Fursat

2. Lug‘at ustida ishlash. Xorijiy tajribada ham til egalarining muayyan til malakalarini egallashida asosiy yordamchi vosita lug‘atlar ekanligi e’tirof etilib, savodxonlik borasida amaliy foydalari ko‘p qayd etilgan. (Isabel Beck, Charles Perfetti, Margaret Mckewon, 1982: 50-57)

4. Grammatik bilimni mustahkamlovchi mashq

1. Matndan so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra, faqat juft so‘zlarni ajratib yozing. Hosil bo‘lishiga diqqat qiling va so‘z turkumini aniqlang. Juft so‘zni bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Masalan, *ota-ona* (ot so‘z turkumi, bir-biriga mazmunan yaqin so‘zlardan tuzilgan), *alang-jalang qaraydilar* (ravish so‘z turkumi, har ikki qismi atash ma’nosiga ega bo‘lmagan so‘zlardan hosil bo‘lgan).

2. Matn tarkibidagi otlarni quyidagicha turkumlarga ajrating:

Shaxs otlari	Narsa-buyum	Faoliyat-jarayon oti	Mavhum ot	O‘rin-joy nomi	Sanalmaydigan ot	Aniq ot
inson	dasturxon	savdo-sotiq	jasorat	bozor	ozodalik	jig‘ildon
…	…	…	…	…	…	…

3. Ot so‘z turkumiga oid so‘z bog‘lanib kelgan birikmalarni jadval bo‘yicha to‘ldiring:

Ot+ot	Sifat + ot	Ot+fe’l	Ravish+ot	Harakat nomi + ot	Fe’l+ot	Ot
bozor munosabat-lari	ijtimoiy muhofaza	fursat yetma-yapti	uncha-buncha odamlar	yashash zavqi	tortiladigan taom	jig‘ildonga urmoq
…	…	…	…	…	…	…

Darsda she’r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi. Ona tili o‘qitish jarayoni o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi.

5. Xotirani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar

Ona tili darslari har bir inson uchun zarur bo‘lgan xotira va diqqat ustida tinimsiz ishlashni taqozo etadi, til egasining so‘z boyligi, kengligi yaratilajak matn va nutqning rang-barangligiga xizmat qiladi. Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadlarini o‘z oldiga qo‘ysa, darsning mantiqiy shartlari asta murakkablashtirib borilgan mashqlar tizimini aks ettiradi. O‘qituvchi slaydga yozilishi qiyin so‘zlardan 20 tasini yozib, bir marta o‘qib olish imkonini beradi va ekran o‘chgach, talabalar yodda qolgan so‘zlarni qog‘ozga tushiradilar. 18-20 ta so‘z uchun 5 ball, 15-17 ta so‘z uchun 4 ball, 12-14 ta so‘z uchun 3 ball beriladi:

Talabalar bunday topshiriqni imloviy va grammatik vazifalardan so‘ng bajarishi samaraliroq hisoblanadi. Biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o‘rganib olishlari uchun bir-ikki mashq jamoaviy ravishda bajartiriladi. Talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmasi oshgach, mashqni yakka tartibda bajaradilar. Mashqlar o‘rtasidagi bog‘lanishni shakllantiradigan ko‘nikmaning xususiyati ham bu borada ahamiyatli sanaladi. O‘quv materialining mavzu hamda darsning maqsadiga mos bo‘lishi uning maqsadga yo‘naltirilishini ta’minlaydi. Darsda foydalaniladigan barcha o‘quv materiallari (shu jumladan, til dalillarini kuzatish, imlo va nutqqa oid mashqlarni bajarish uchun tanlanadigan materiallar ham) darsning maqsadiga juda mos bo‘lishi zarur.

Ona tili darslari ijtimoiy-ma’rifiy foydali bo‘lishi uchun talabalarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va ravon fikrni bera olish ko‘nikmasini shakllantirishga e’tibor qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o‘stirish ko‘rsatmasi grammatik materialni o‘rgatishda talabalarning tilimizdagi har bir so‘z turkumi yoki gap bo‘lagining o‘rnini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo‘llashni talab etadi. Ya’ni, grammatik nazariya grammatik to‘g‘ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini rivojlantirishga, ularni amalda tatbiq etishga xoslab o‘rgatiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar nutqini o‘stirish darsning mazmunida va qo‘llaniladigan vazifalar turlarida o‘z aksini topadi. Ularning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirish jarayoni ularning tafakkurini o‘stirish bilan bog‘liq. Tafakkurni o‘stirish ustida ishlash maqsadiga yo‘naltirilganligiga qarab bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o‘rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o‘zlashtirishni ta’minlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan topshiriqlarni bajarish tushuniladi.

Ona tili darslarida ta’limiy maqsadlarga erishishning foydali bo‘lishiga darsda og‘zaki va yozma ishlarni maqsadga muvofiq o‘tkazish, talabalarning o‘quv ishlarini tekshirib, nazorat qilib borish, xatolarni o‘z vaqtida oldini olish va to‘g‘rilash, texnika vositalaridan foydalanish kabi omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Har bir mashg‘ulot o‘qituvchining sa’y-harakati bilan san’at darajasiga ko‘tariladi. Dars jarayonida qat’iy andoza bo‘lishi mumkin emas. Biroq darsning bosqichlari: vazifalarni tekshirish, takrorlash, yangi materialni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish bosqichlariga rioya qilish tajribada o‘zini oqlamoqda. Har bir bosqichni mavzuga muvofiq didaktik jihatdan boyitish esa o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Shunga qaramay, bularga ijobiy yondashish, darsning maqsadi va foydalaniladigan metodik usullariga asoslangan holda bosqichlar orasidagi ichki bog‘lanish, belgilangan ishlarning mazmunini aniq belgilab olish katta ahamiyatga ega ekanini unutmaslik kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda ijodkorlikni, mustaqil fikrlashni o‘stirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatish uchun ona tili ta’limining mazmunini tubdan yangilash talab qilinadi. Til egalarida ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko‘pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar ona tili ta’limida nutqiy va imloviy savodxonlikka ega bo‘ladigan, o‘z fikrlarini ravon bayon qila oladigan hamda to‘g‘ri va savodli yoza oladigan bo‘lishi lozim. Shu jihatdan, boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda takomillashtirib borish darkor. Shunga ko‘ra, ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning eng samarali usul va metodlarini qo‘llash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bu muhim vazifalarni esa bilim va malakalari yetarli o‘qituvchilar amalga oshiradi. Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yozma va og‘zaki nutqini takomillashtirish masalasi birinchi galdagi ustuvor vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bekmirzayev, N. (2008) Notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr.

2. Маҳмудов, Н. (2007) Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти.

3. Муҳиддинов, А. (1995) Ўқув жараёнида нутқ фаолияти. – Тошкент: Ўқитувчи.

4. Ғуломов, А. (1998) Нутқ ўстириш машғулотлари. – Тошкент: Ўқитувчи.

5. To‘xliev, B., Shamsiyeva, M., Ziyadova, T. (2010) O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti.

6. Абдуллаева, Қ. (1980) Нутқ ўстириш. – Тошкент: Ўқитувчи.

7. Karimova, V., Sunnatova, R., Tojiboyeva, R. (2000) Mustaqil fikrlash. – Toshkent: Sharq.

8. Муҳиддинов, А. (1995) Ўқув жараёнида нутқ фаолияти. – Тошкент: Ўқитувчи.

9. Karimova, Sh. (2023) Ona tili nazariyasi. I qism. Darslik. – Toshkent.

10. Karimova, Sh. (2023) Nutqiy mahorat va o‘qituvchi nutqi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.

REFERENCES:

1. Bekmirzayev, N. (2008) Notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr. (In Uzbek)

2. Mahmudov, N. (2007) O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. (In Uzbek)

3. Muhiddinov, A. (1995) O‘quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)

4. G‘ulomov, A. (1998) Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)

5. To‘xliyev, B., Shamsiyeva, M., Ziyadova, T. (2010) O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. (In Uzbek)

6. Abdullayeva, Q. (1980) Nutq o‘stirish. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)

7. Karimova, V., Sunnatova, R., Tojiboyeva, R. (2000) Mustaqil fikrlash. – Toshkent: Sharq. (In Uzbek)

8. Muhiddinov, A. (1995) O‘quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)

9. Karimova, Sh. (2023) Ona tili nazariyasi. I qism. Darslik. – Toshkent. (In Uzbek)

10. Karimova, Sh. (2023) Nutqiy mahorat va o‘qituvchi nutqi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. (In Uzbek

TURKISTONNING ROSSIYA MUSTAMLAKASI DAVRI XARITALARIGA DOIR

ON THE MAPS OF TURKISTAN IN THE RUSSIAN COLONIAL PERIOD

О КАРТАХ ТУРКЕСТАНА В РОССИЙСКИЙ КОЛОНИАЛЬНЫЙ ПЕРИОД

Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
tarix fakulteti professori
Tel.: +998 88 038-19-75

Annotatsiya: Ilmiy bilimlar va fan yo‘nalishlari juda tez rivojlanayotgan hozirgi zamonda kam o‘rganilgan “aralash” sohadagi fan tarmoqlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni tahlil qilish uchun avvalo tarixiy jarayonlarni, tarix va geografiyani, qolaversa, tarix va kartografiyani, chuqurroq bilish talab etiladi. Kartografiya taraqqiyoti asrlar davomida shakllangan oddiy chizmalardan toki aniq ishlangan xaritalar yaratilishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Xaritalar mazmuni jihatidan boy bo‘lishi mumkin. Xarita bu tarixiy hujjat bo‘lib, voqealar davomiyligi haqida hikoya qiluvchi, sodir bo‘lgan voqealar, vayron bo‘lgan va yana tiklangan shaharlar, daryo o‘zanlarining o‘zgarishi, unutilgan qadimgi sug‘orish inshootlari, shuningdek, xalqlar tarixini hududlar bilan bog‘lab o‘rganadi. Shu bois, mazkur maqolada Turkistonning Rossiya mustamlakasi davriga oid xaritalari tahlil etilib, alohida turkumlarga bo‘lingan holda bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: *xarita, kartografiya, geodeziya, imperiya, Turkiston, Harbiy-topografik bo‘lim, Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro, Xiva.*

Annotation: In modern times, while scientific knowledge and scientific directions are developing very quickly, it is of particular importance to study the little-studied “mixed” branches of science. In order to analyze environmental events, first of all, a deeper knowledge of historical processes, history and geography, as well as history and cartography is required. The development of cartography covers the period from simple drawings formed over centuries to the creation of detailed maps. Maps can be rich in content. A map is a historical document that studies and tells the story of the sequence of events, the events that happened, the cities that were destroyed and rebuilt, the changes in river streams, the forgotten ancient irrigation structures, as well as the history of peoples with regions. Therefore, this article analyzes the maps of Turkestan related to the period of Russian colonialism and divides them into separate categories.

Keywords: *map, cartography, geodesy, empire, Turkestan, Military-topographic department, General-governorate of Turkestan, Bukhara, Khiva.*

Аннотация: В современное время, когда научные знания и научные направления развиваются очень быстро, особое значение приобретает изучение малоизученных «смешанных» отраслей науки. Для анализа экологических событий необходимы, прежде всего, более глубокие знания исторических процессов, истории и географии, а также истории и картографии. Развитие картографии охватывает период от простых рисунков, формировавшихся веками, до создания подробных карт. Карты могут быть богаты по содержанию. Карта – это исторический документ, который изучает и рассказывает историю последовательности событий, произошедших событий, разрушенных и восстановленных городов, изменений в речных потоках, забытых древних ирригационных сооружениях, а также историю народов и регионов. Поэтому в данной статье анализируются карты Туркестана, относящиеся к периоду российского колониализма, и разделяются их на отдельные категории.

Ключевые слова: *карта, картография, геодезия, империя, Туркестан, Военно-топографический отдел, Туркестанское генерал-губернаторство, Бухара, Хива.*

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar Turkiston hududini kartografik jihatdan o‘rganilganlik darajasi ancha past bo‘lgan. Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgandan keyin iqtisodiy jihatdan muhim bu o‘lkani xaritaga olish ishlari boshlandi. Zotan, hududning ichki qismlari hali ham yaxshi o‘rganilmagan, manbalar yetarli darajada to‘liq va aniq bo‘lmagan, chizma tayyorlash asboblari, kartografik tasvirlash usullari va xarita ishlash texnikasi rivojlanmagan edi. Mazkur sabablar o‘lkani xaritalarga tushirish ishlarini biroz qiyinlashtirishiga qaramasdan imperiya harbiy ma’murlari mintaqada kartografik tadqiqotlarni faol davom ettirishga, hudud haqida ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lishga harakat qilishgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad uning yer osti va usti boyliklari joylashgan manzillar haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish va u yerlarga harbiy harakatlarni boshlab, o‘z tasarrufiga bo‘ysundirish edi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, M.Terentyevning 1906-yildagi asari xarita va rejalar orqali O‘rta Osiyoning bosib olinishi tarixi haqida ma’lumot beradi. N. Gvozdetskiy, V. Fedchina, A. Azatyan va Z. Dontsovaning tadqiqotlarida XIX asrdan XX asr boshlarigacha Kavkaz va O‘rta Osiyoda olib borilgan rus geografik tadqiqotlari yoritilgan. G. Cherdantsevning

tadqiqotlarida Rossiyaning O‘rta Osiyodagi geografik kashfiyotlari va izlanishlari tarixi haqida so‘z boradi.

Bundan tashqari, N. Severtsovning asarida O‘rta Osiyo orografiyasiga e’tibor qaratilib, mintaqaning fizik geografiyasi haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi. A.Kaulbarsning olib borgan tadqiqotlarida Tyan-Shan geografiyasiga oid 1869-yilgi sayohat chog‘ida to‘plangan materiallar taqdim etilgan. A. Fedchenkoning asarlarida esa uning Turkistonga sayohatlari tasvirlangan. Bu manbalar birlamchi bo‘lib, Turkistonning rus mustamlakachilik davri xaritasini tuzish va o‘rganish bo‘yicha tarixiy materiallar havola etadi, mintaqadagi geografik holatni tarixan o‘rganishga oydinlik kiritadi. Yuqorida qayd etilgan mualliflarning asarlari nomlari adabiyotlar ro‘yxatida havola qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarixiy tadqiqotning har qanday predmeti rivojlanishni e’tiborga olishi kerakligi sababli, maqolada tarixiylik usuli qo‘llanildi. Muammoni o‘rganish jarayonida obyektivlik usuli bilan obyektivlikka, subyektiv xatolarni bartaraf etishga va ilmiy haqiqatga erishish bilan bog‘liq bo‘lmagan manfaatlarning ta’siriga va shuningdek, tadqiqot mavzusini to‘liq tushunish uchun kompleks usulga alohida e’tibor berildi.

Maqolada shuningdek, tizimlashtirish, germentevtik, qiyosiy hamda muammoli-xronologik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirga qadar saqlangan o‘sha davr tarixiy xaritalari harbiy, siyosiy, tabiiy, iqtisodiy, etnografik xaritalar va shaharlarning alohida topografik planlariga bo‘lib o‘rganish imkonini beradi.

Harbiy xaritalar. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyaning o‘lkani istilo etish harakatlari aks ettirilgan harbiy xaritalari ushbu harakatlarda ishtirok etgan harbiylar tomonidan eng ko‘p miqdorda yaratilgan bo‘lib, ular mustamlaka ma’muriyatining O‘rta Osiyo hududlari haqida yaxshiroq tasavvur hosil qilib borishi, qolaversa, harbiy amaliyotlarning eng kichik murakkabliklariga qadar ham tasvirlab berishga xizmat qilgan. Shuningdek, ular istilo harakatlari aks ettirilgan tarixiy manbalarni to‘ldirib, ba’zan ularning aksariyatida qayd etilmagan ma’lumotlarni beradi.

Rus harbiysi, general-leytenant M.A. Terentyevning “Карты и планы к истории завоевания Средней Азии” kitobidagi jami 23 ta xaritaning barchasi O‘rta Osiyoning istilo etilishi bilan bog‘liq harbiy-tarixiy xaritalardir (Терентьев М., 1906).

M.A. Terentyev Toshkentning qamal qilinishiga doir xaritasida Niyozbek qal’asini egallagan ruslar asosiy kuchlarini keyinroq Bug‘sortepa, Qo‘yliq va No‘g‘ayqo‘rg‘on yaqinida joylashtirganliklarini, ularning asosiy lageri esa Bo‘zsuv va Bo‘rjar oralig‘ida No‘g‘ayqo‘rg‘onning shimoli-g‘arbida joylashtirilganini ko‘rsatgan.

1865-yilning 15-iyunida Toshkent shahrini egallanishiga oid xaritada rus harbiy qo‘shinlarining joylashgan manzillari yanada aniqroq ko‘rsatilgan. Jumladan, Abramov qo‘l ostidagi kuchlar, Delakroa qarorgohi ham Kamolon darvozasi yaqinida bo‘lganligini, uning janubida esa Jemchujnikovning asosiy kuchlari joylashtirilgani ko‘rsatilgan.

Qoshg‘ar darvozasi yaqinida Chovli kanalining o‘ng sohilida Krayevskiyning askarlari joylashgan bo‘lib, Toshkentni egallash davrida ular Qo‘qon darvozasi tomondan hujumga o‘tganliklari ko‘rsatilgan. Qo‘qon darvozasiga yaqin joyda shartli belgi ostida ark ko‘rsatilgan (har holda Oqsaroy bo‘lsa kerak). Xaritada shaharning asosiy yo‘llari va mavzelari bilan birga faqatgina ikkita inshoot – Ark va bozor o‘z aksini topgan. Rus askarlari Kamolon darvozasidan shaharga kirishi bilanoq, Abramov 250 askar bilan devor yonidan o‘ng tomonga ketgan ko‘cha bo‘ylab boradi. Podpolkovnik Abramov, mayor Delakroa va podpolkovnik Jemchujnikovlarning askarlari Qo‘qon darvozasini ochadilar. Shundan keyin Krayevskiyning harbiy qismi shahar ichiga kiradi. Toshkent va uning atrofidagi aholini suv bilan ta’minlaydigan Chirchiq daryosining ikki asosiy tarmog‘i ustidan nazorat o‘rnatibgina mustamlaka qo‘shini 1865-yilning 17-iyunida shaharga kirishga muvaffaq bo‘ladi hamda shahar ichkarisidagi qonli to‘qnashuvlardan so‘ng rus harbiylari shaharni egallaydilar.

M.A. Terentyev kitobida Oqmachit, Chimkent, Toshkent, Xo‘jand, O‘ratepa, Jizzax, Samarqand, Kitob, Andijon, Dengiltepa kabi shaharlarning egallanishiga oid qimmatli harbiy xarita va chizmalar mavjud.

Bundan tashqari, Xivaning egallanishiga doir asar muallifi, rus harbiysi N.I. Grodekov o‘z kitobiga ushbu hududning batafsil xaritasini ilova qilgan bo‘lib, unda Kaspiy dengizidan sharqda joylashgan Xiva mulklari batafsil aks ettirilgan (Гродеков Н., 1883).

P. Geysmanning M.D. Skobelev haqida yozgan xotiralariga 1864–1881-yillardagi Skobelev yurishlari aks ettirilgan xaritani ham ilova qilgan (Гейсман П., 1907:1-48). Unda rus generalining 1870-yildan to 1881-yilga qadar O‘rta Osiyoda olib borilgan harbiy yurishlardagi ishtiroki batafsil chizib ko‘rsatilgan. Ushbu xaritalar ruslarning o‘lkadagi harbiy harakatlarining salmog‘i haqida ma’lumot berishi bilan birga, ulardan o‘lka tarixiga oid manba sifatida ham foydalanish mumkin.

Poruchik Zaytsevning 1871-yildan to 1882-yilga qadar 4-Turkiston liniya batalyoni safida yurgan yo‘li aks ettirilgan xaritada ham o‘lkaning ruslar tomonidan egallanishi batafsil ko‘rsatilgan. Xarita gradus to‘ridan foydalangan holda harbiy harakatlar qachon, qayerda bo‘lganligi qayd etilib ko‘rsatilgan. Unda To‘rg‘ay, Oqmola viloyatlari va Turkiston okrugining asosiy shaharlari aks ettirilgan.

Umuman, yuqoridagi barcha xaritalar O‘rta Osiyo tarixiga oid qimmatli ma’lumotlarni o‘zida aks ettiribgina qolmay, o‘sha davrning jonli tasviri sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi.

O‘rta Osiyoning rus harbiylari bosib olgan hududlarini boshqarish va yangi harbiy harakatlarini olib borish maqsadida, hamda xaritalar tuzishning markazlashgan idorasini tashkil etish maqsadida 1867-yil 25-noyabrda Turkiston Harbiy okrugi qoshida Harbiy-topografik bo‘lim ochildi. Bo‘lim O‘rta Osiyoning barcha mintaqalarini tizimli ravishda ilmiy asosli aniq xaritalarini yaratishni boshladi. Bo‘lim ochilgunga qadar 1984 ming km.kv. maydonni egallagan O‘rta Osiyo hududi ilmiy asosda deyarli tadqiq etilmagan edi (Гальков Ч., 1956: 124).

O‘rta Osiyoning ma’muriy-hududiy va boshqaruv manfaatlaridan kelib chiqib, suratga olish va xaritalar yaratish bosh vazifa etib belgilandi[1]. XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyoning kartografik tadqiqotlari Kavkaz va Omsk Harbiy-topografik bo‘limlari tomonidan olib borilgan. Shu bilan birga o‘lkaga tashrif buyurgan rus elchilari to‘plagan kartografik ma’lumotlar ham o‘lkaning harbiy va ma’muriy ehtiyojlarini qondira olmas edi. Shu sababli Turkiston Harbiy-topografik bo‘limi tuzilgandan so‘ng tezda topografik-geodezik ishlarni boshlab yubordi.

Siyosiy xaritalar. M.A. Terentyevning yuqorida nomi qayd etilgan kitobida “Rossiya chegaralarining Ivan Grozniy zamonidan buyon kengayishi” nomli tarixiy xarita bo‘lib, unda O‘rta Osiyo hududlari quyidagi podsholar davrida egallangani alohida ranglar bilan ajratib ko‘rsatilgan (Терентьев М., 1906):

1. Anna davrida – Orolning shimoli, Kaspiy dengizining sharqidagi hududlar (1732), Oqmola va Semipalatinskka yaqin yerlar (1740).
2. Yekaterina davrida – To‘rg‘ay viloyati (1782).
3. Aleksandr I davrida – Kaspiy va Orol oralig‘idagi yerlar (1802), Markaziy Qozog‘iston (1829), Kazalinsk va Perovsk (1855).
4. Nikolay I davrida – Olako‘l atroflari (1846), Balxashdan Issiqko‘lgacha bo‘lgan yerlar (1854).
5. Aleksandr II davrida – Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Toshkent (1865), Qizilqum sahrosi (1873), Samarqand (1868), Farg‘ona vodiysi (1876), Ashxoboddan Krasnovodskkacha bo‘lgan hududlar (1881).
6. Aleksandr III davrida – Marv va Xiva hududlari (1885).
7. Nikolay II davrida – Pomir va Afg‘onistonga qo‘shni tog‘li hududlar (1896).

Imperiya hukumati Turkistonni egallagandan so‘ng harbiylari tomonidan tuzilgan “Turkiston o‘lkasi xaritasi” (“Карта Туркестанского края”) ham ancha qimmatlidir. Xaritada deyarli ruslarga tegishli Turkistonning barcha hududlari bilan birga Xiva xonligi va Buxoro amirligiga qarashli yirik aholi punktlari ham aks ettirilgan. Jumladan, ruslarning harbiy boshqaruviga asoslangan viloyatlar Sirdaryo, Samarqand,

[1] Bu haqda qarang: Гальков Ч.В. Туркестанский Военно-топографический отдел и его работы по картографированию Средней Азии (1867–1914): Автореф. на соиск. канд. геогр. наук. – Ташкент, 1958. – С. 5.

Farg‘ona, Yettisuv (Semirechye), Kaspiyorti (Zakaspiy) va O‘rta Osiyoning shimoliy viloyatlari – Ural, To‘rg‘ay, Oqmola aks ettirilgan.

Xiva xonligiga qarashli Xiva, Xazavat (Xazorasp), Gurlan, Porsu, Ilyali, Xo‘jayli, Kitak, To‘rtko‘l, Nukus, Chimboy, Ko‘hna-Urganch, Qo‘ng‘irot, Buxoro amirligiga qarashli yirik bekliklardan Nurota, Karmana, Kitob, Chiroqchi, Qarshi, G‘uzor, Ziyadin, Sherobod, Boysun, Denov va sharqda joylashgan bekliklar ham alohida ko‘rsatilgan.

Ushbu xaritaning diqqatga molik tarafi shundan iboratki, u asosan o‘lkaning yo‘l tarmoqlarini o‘rganish maqsadida tuzilgan. Sababi, unda karvon yo‘li, yuk tashish yo‘llari (Amudaryo tomon) aks ettirilgan. Unga ko‘ra eng ko‘p tarmoqli yo‘l – yuk tashish yo‘llari bo‘lib, u o‘lkaning ko‘p qismini egallagan. So‘ngra karvon yo‘llari bo‘lib, u asosan Farg‘ona viloyati ichki qismida ancha tarmoqlarga ega. Ruslarning Amudaryodan daryo transporti sifatida foydalanishlari unga tomon bo‘ladigan yaqin yo‘llarni ham topishni taqozo etgan. Jumladan, Amudaryoga tomon yo‘l Sharqiy Buxoro bekliklaridan o‘tib, Amudaryo yaqini – Qobadiyonda to‘xtagan.

Ehtimol, qadimdan ushbu yo‘ldan foydalanilgani boisidan u ruslar uchun ham qulaylik tug‘dirgan va xaritaga tushirilgan.

1914-yilda Rossiya Dehqonchilik vazirligiga qarashli “Ko‘chirish ishlari boshqarmasi” (“Переселенческое управление”) tomonidan kompleks tadqiqot ishlari yakuni sifatida “Атлас Азиатской России” bosilib chiqdi. Bu atlasda Turkiston va hozirgi O‘zbekiston hududi har tomonlama: tabiati, xo‘jaligi, aholisi, ma’muriy bo‘linishi va boshqa jihatlari aks ettirilgan (Гальков Ч., Раҳимбеков Р., Югай Р., 1975:89).

Atlas A.F. Marksning kartografiya muassasasida nashr etilgan. Atlas materiali qog‘oz, tipografik bosmada karton va charmdan tayyorlangan. Atlasni tuzishga G.V.Glinka rahbarlik qilgan. Atlas uzunligi 500 mm, kengligi 450 mm, qalinligi 70 mm bo‘lib, 71 ta xaritadan, shuningdek, Rossiyaning Osiyo hududlari tarixiy, tabiiy-geografik va iqtisodiy xususiyatlarini aks ettiruvchi chizmalar, diagrammalar va kartogrammalardan iborat. Xaritalarga I.I.Txorjevskiy tomonidan tahrirlangan bayoniy matnlar berilgan. Nashr uchun xaritalar va barcha materiallarni A.M. Svetkov tanlagan. Atlasda 9000 dan ortiq geografik nomlarni o‘z ichiga olgan 24 sahifadan iborat alifboli ko‘rsatkich mavjud.

Atlasdagi 6-xaritada Rossiyaning Osiyo qismi ma’muriy bo‘linishi berilgan. Xaritada Rossiyaning Osiyo qismi ma’muriy-siyosiy jihatdan 19 guberniya va viloyatga bo‘lingan bo‘lib, ularning 15 tasi 4 ta general-gubernatorlikka bo‘lingan (Stepnoye, Irkutsk, Amurbo‘yi va Turkiston).

Turkiston general-gubernatorligidagi Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg‘ona va Kaspiyorti viloyatlari Harbiy vazirlikka bo‘ysungan. Viloyatlar tarkibidagi uyezdlarning ma’muriy chegaralari ham aks ettirilgan. Jumladan, Yettisuv viloyati 6,

Sirdaryo, Farg‘ona va Kaspiyorti viloyatlari 5, Samarqand viloyati 4 ta uyezdi bilan tasvirlangan. Turkiston general-gubernatorligida jami 25 ta uyezd siyosiy-ma’muriy chegaralari bilan chizib ko‘rsatilgan.

Tabiiy xaritalar. Turkiston Harbiy-topografik bo‘limining barcha ofitserlari Imperatorlik Rossiya Geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi a’zolari edilar. Shuningdek, harbiy topograf va geodezistlarga tabiatshunos olimlar ham yordam bergan. P.P.Semyonov (Tyanshanskiy) A.P.Fedchenko, A.V.Kaulbars, I.V.Mushketov va boshqalar tadqiqot o‘tkazgan yerlarni xaritalarga tushirib borishgan. 60-yillardagi asosiy tadqiqotlar O‘rta Osiyo sharqidagi tog‘ oldi va tog‘li tumanlar hududlariga qaratildi. Tyanshanning tog‘li tumanlari haqida ilk ma’lumotni 1856-yilda o‘lkaga tashrif buyurgan P.P. Semyonov-Tyanshanskiy berdi. Uning asosiy maqsadi Yevropa faniga hali noma’lum bo‘lgan Tyanshan (Xon-Tangri) tog‘lari tizimiga kiruvchi o‘lkaning tabiati, o‘simlik va hayvonot dunyosini tekshirib, ilmiy tadqiqotlar olib borish edi. U Tyanshanga 1856–1857-yillar orasida ikki marta safar qildi va haqiqatdan geografiya fani uchun qimmatli ma’lumotlar to‘pladi.

Tyanshandagi ilmiy tadqiqotlarning natijasini sayohatchining o‘zi “Tog‘li Osiyoning shimoli-g‘arbidagi keng ko‘lamdagi ilmiy rekognossirovka” sifatida ko‘rdi. O‘sha davr uchun bu jahon fanida A. Gumboldt va K. Ritter bilan qiyos qilganda tog‘li Osiyo tabiati haqidagi ma’lumotlarga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan edi (Гвоздецкий Н., Федчина В., Азатьян А., Донцова З., 1964: 100).

1888-yilda O‘rta Osiyoga yana sayohat qilgan P.P. Semyonov bu gal Kaspiyorti, Samarqand va Sirdaryo viloyati bo‘ylab qator ekspeditsiyalarni amalga oshiradi (Черданцев Г., 1950: 56).

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, rus qo‘shinlari P.P. Semyonov izidan Tyanshan tog‘lari sari kirib keldi. Chunki uning birinchi sayohati vaqtida hali Issiqko‘l atroflari, Tyanshanning asosiy qismi Rossiya qo‘liga o‘tmagan edi. Demak, ruslarga notanish bo‘lgan bu joylar haqidagi, ayniqsa, qayerda daryo, qayerda tog‘, qay bir go‘shada dam olish uchun qulay, qay bir manzil xavfsiz ekanligi – bularning barchasi harbiy yurishlarda bebaho ma’lumot bo‘lib xizmat qilardi.

1864–1868-yillarda Tyanshanning janubiy tumanlaridan Issiqko‘lgacha sayohat qilgan N.A. Seversov P.P. Semyonovning ma’lumotlarini to‘ldirdi (Северцов Н., 1872: 140). Ushbu hududlarning aniq ishlangan xaritasi ham aynan N.A. Seversov tomonidan yaratilgan. Muallif uni Semyonov, Golubev, Venyukov, Protsenko, Lerx, Poltaratskiy va Osten-Saken, Krayevskiy, Kaulbarslarning Markaziy Tyanshan va Issiqko‘l atroflarining 1856–1860-yillar davomida olib borgan rekognossirovkalari natijalarini umumlashtirib tuzgan. N.A. Seversov xaritasida o‘zi bosib o‘tgan yo‘llar, tog‘ dovonlari, astronomik punktlar, abadiy qorlar va muzliklar, qadimgi ko‘l qoldiqlari shartli belgilar bilan aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

1858-yil aprelida N.A. Seversov Qo‘qon xonligi hududlariga qilgan ekspeditsiyasi davrida asirlikka tushib qoladi. Bu haqda u alohida kitob chop qilgan bo‘lib (Северцов Н., 1860), unda Sirdaryoning quyi oqimlari aks ettirilgan xarita ham berilgan. Xarita, asosan, o‘lkaning suv tarmoqlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Orol dengizi hamda Sirdaryoning Turkiston shahri yaqinidan to dengizga quyilishigacha bo‘lgan oqimi irmoqlari (Yangidaryo, Quvondaryo) bilan aks ettirilgan. Xaritada Orol dengizi yaqinida ruslarning sobiq Orol istehkomi, Fort №1 (Kazala), Fort №2 (Karmachi) Perovskiy forti (Oqmachit), Jo‘lak qal’a, Yangiqo‘rg‘on va Turkiston shaharlari aniqlik bilan ko‘rsatilgan.

1869-yilda janubiy Tyanshan hududlarida tadqiqot olib borgan V.A. Kaulbars esa Norin va Talas vodiylarida 33 punktdan ortiq manzilni taxminiy suratga oldi hamda mazkur hududlarning xaritasini tuzdi (Каульбарс А., 1869: 320).

1868-yilda markazi Samarqand shahri bo‘lgan Zarafshon okrugi tashkil etilgach, O‘rta Osiyoning janubi-sharqida ham suratga olish ishlari ancha jonlandi. Unda A.P.Fedchenko ham ishtirok etib, ekspeditsiya 1869-yilda Samarqandga, so‘ngra Kattaqo‘rg‘on, Jom, Shahrisabz, Mag‘yon va Kishtut daralaridan o‘tib, Iskandarko‘lgacha bo‘lgan masofani bosib o‘tishdi. A.P. Fedchenko o‘z ishlarining yakuniy natijalari o‘laroq “instrumental suratga olishlar asosida Zarafshon vodiysi, aniqrog‘i uning janubiy qismining aniq xaritasini tuzish” (Федченко А., 1950:10) deb alohida ko‘rsatib o‘tgan edi.

Sirdaryo viloyati boshqaruvidan Toshkent shahri boshlig‘iga 1869-yil yanvarida jo‘natilgan xatda Imperatorlik Tabiat ishqibozlari jamiyati Turkiston general-gubernatori – ilmiy jamiyat prezidenti oldida o‘zining Turkiston o‘lkasini tabiiy-tarixiy jihatdan o‘rganishda ishtirok etishga xohishini bildirgan. General-gubernator bunday o‘rganish mutlaq zarurligini, ma’muriy maqsadlar, shuningdek, o‘lkani Rossiya tadqiqotlarida kam o‘rganilganidan jamiyat tavsiya qilgan olimni moddiy ta’minlashga rozilik bildirgan. Mo‘ljallangan maqsadlarni ado etishda Imperatorlik Tabiat ishqibozlari jamiyati Antropologiya bo‘limiga kotib, jamiyatning Entomologiya bo‘limiga esa rais ham saylashgan. General-adyutant fon Kaufman A.P. Fedchenkoni yangidan egallangan Zarafshon okrugini o‘rganish yuzasidan xizmat safariga jo‘natishga farmoyish bergan.

Shahar boshlig‘iga “janob A.P. Fedchenkoga yuklatilgan topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishida uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘roviga har qanday yordam bo‘yicha imkoniyatidagi barcha choralarni ko‘rish” tayinlangan (O‘zMA, I-36-fond, 1-ro‘yxat, 483-yig‘ma jild).

1871-yil 24-may sanasi bilan Turkiston ilmiy ekspeditsiyasi rahbari A.P. Fedchenko qaydlarida Qo‘qon xonligidan borishda “dovonlarning biridan o‘tishni mo‘ljallaganligi, ekspeditsiya davomida unga rafiqasi Olga Aleksandrovna, eskpeditsiya yordamchisi Savelyev, xizmatchi V. Ivanov, tarjimon, jihozlarni tashish

va otlarga qarash uchun tub joyli 6 ta yigit, jo‘natmalar uchun 2 ta yigit hamrohlik qilishini, yigitlar masalasida ishonchli odamlarni yollashda shahar boshlig‘i va Qurama uyezdi boshlig‘i yordam ko‘rsatishini” so‘ragan (O‘zMA, I-36-fond, 1-ro‘yxat, 483-yig‘ma jild).

1871-yilda Qo‘qon xonligiga sayohati asosida A.P. Fedchenko Janubiy Tyanshan, Farg‘ona, Oloy, Pomir geografiyasi bo‘yicha fanga boy va qiziqarli materiallar berdi. Qo‘qon xonligiga qilgan sayohati davrida to‘plangan ma’lumotlar asosida A.P. Fedchenko ushbu hududning xaritasini tuzdi. U “Qo‘qon xonligi va Amudaryoning yuqori oqimi” deb nomlanib, bu davrgacha noma’lum bo‘lib kelayotgan ushbu hududlar tasviri taqdim etilgan edi. A.P. Fedchenko o‘zi bosib o‘tgan yo‘llarini ko‘z bilan chamalab xaritaga tushirgan edi (Семенов П., 1896: 745).

Ushbu xaritada Samarqand atrofidan to Qoshg‘argacha bo‘lgan hudud o‘z aksini topgan. I.V. Mushketov ushbu xarita haqida shunday yozgan edi: “Qo‘qon xonligi va Pomirning xaritasi avvalgi xaritalardan yangi o‘zgarishlar va ma’lumotlari bilan yalpi diqqatga sazovordir” (Мушкетов И., 1915: 332).

1869-yildan boshlab esa O‘rta Osiyoning markaziy va janubi-g‘arbiy hududlarini tadqiq etish va xaritalarga tushirish boshlandi. Krasnovodsk tumanida relyef aniqlandi. Mixaylovsk qo‘ltig‘ining joylashishi va undan 16-22 verstli uzoqdagi hudud orollar deya e’tirof etildi.

Iqtisodiy xaritalar. Ruslar o‘lkaning sug‘orish tarmoqlarini yaxshi bilishlari va ularga e’tibori avvalo bu yerdagi iqtisodiy siyosatning garovi degani edi. Shu sababli ular yirik daryolarning yo‘nalishi va undan hosil bo‘lgan kanallar, ariq va dambalarni o‘rganib, ularni ham xaritaga tushirganlar. Rossiya Imperatorlik Geografiya jamiyatining Kavkaz bo‘limi tomonidan nashr etilgan atlasda Amudaryo orqali Xiva xonligi yerlarini suv bilan ta’minlaydigan asosiy kanallar aks ettirilgan xarita ahamiyatlidir.

Xaritada 6 ta kanal (Yasovul-boshyorg‘on, Devonbeshyorg‘on, Yoqubyorg‘on, Katta anhor, O‘nqo‘loch, Artaxob) 2 ta to‘g‘on (Shomrot, Qiziltaqir), Amudaryoning quruq o‘zani – O‘zboy ham ikkita to‘g‘oni bilan (Ushoqband, Saloxband) aks ettirilgan.

Atlasdagi ikkinchi bir xarita 1878-yilda Amudaryoning quyi oqimida hosil qilgan irmoqlari xaritasida ham Amudaryoning Chimboy, Nukus, Xo‘jayli, Amudaryo, Qo‘ng‘irot va Mang‘it atroflarida ko‘plab o‘zanlar, botqoqliklar hosil qilganligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, to‘g‘onlar, ko‘llar va asosiy yo‘llar ham shartli belgilar asosida qayd etilgan.

1883-yilda ham “Zarafshon okrugining Zarafshon daryosi suvi bilan sug‘oriladigan qismi xaritasi” rus irrigatsiya tarmoqlarida ishlagan xodim tomonidan tuzilgan. Xarita 1 dyumda 10 verst masshtabida tuzilgan bo‘lib, sharqda Panjikent atroflaridan toki g‘arbda Buxoro chegaralari – Xatirchigacha bo‘lgan hududlarni o‘z

ichiga olgan (O‘zMA, 5-fond, 1-ro‘yxat, 3405a-yig‘ma jild). Xaritada asosan Zarafshon daryosining suvi bilan sug‘oriladigan maydonlarning 1878-yilgacha va 1878-yildan 1883-yilga qadar bo‘lgan o‘zgarishi aks ettirilgan. Zarafshonning Samarqand yaqinida ikkiga – Qoradaryo va Oqdaryoga ajralib, to ular Buxoro chegaralarida yana qo‘shilgunicha bo‘lgan hududlardagi sug‘orish kanallari va ariqlar ko‘rsatilgan. Jumladan, Darg‘om, Siyob, Qozon, Xo‘ja, Shovot, Bulung‘ur, Mirza, Bog‘ishamol, Xishrav, Shahar, Toz, Ani kabi ariqlar, Jumabozor, Kamadus, Anshi, Dahbed, Jomboy va boshqa kanallar aks ettirilgan.

Xaritadagi bosh mavzu – Zarafshonning sug‘orilish maydonlari yillar bo‘yicha o‘zgarishga uchrashi quyidagicha berilgan: 1878-yilga qaraganda 1878–1883-yillar oralig‘ida daryo ancha ko‘p maydonga o‘z suvini ulashgan (qariyb ikki baravar ko‘p). Xaritada Zarafshon vodiysidagi yirik aholi manzillaridan Samarqand, Panjikent, Chelak, Kattaqo‘rg‘on, Payshanba, Xatirchi va boshqa maskanlar aks ettirilgan.

O‘rta Osiyoda Raim qal’asining barpo etilishi va Orol flotiliyasining tashkil etilishi, avval Fort №1 nomi, keyinroq Kazalinsk bilan tanilgan shaharning qurilishi, Irtish liniyasi bo‘ylab janubda Sergiopol va Kopal bekatlarining qurilishi, G‘o‘ljaga rus vakillarining tashrifi va Xitoy bilan savdo shartnomasining imzolanishi – bularning bari o‘lkaning to‘la egallanishiga qo‘yilgan dastlabki qadam edi.

***Etnografik xaritalar*.** Podsho Rossiyasi Markaziy Rossiyaning agrar sohaga ixtisoslashgan tumanlaridan rus aholisini O‘rta Osiyo hududlariga ko‘chirib, bu yerda rus samoderjaviyasining siyosiy mavqeini mustahkamlashni ko‘zda tutgan edi. Shuningdek, mazkur hududlardagi qashshoqlashgan rus aholisining agrar inqilobidan qo‘rqish ham hukumatni ana shunday qaror qabul qilishiga sabab bo‘lgan edi.

Rossiyadan O‘rta Osiyoga ko‘chirib keltirilgan ruslarning asosiy qismi Sirdaryo viloyatiga joylashtirilgan bo‘lib, bu yerda ularning alohida qishloqlari mavjud edi. Shuning uchun ham rus hukumati ana shu viloyatda rus aholisining joylashgan hududlari aks ettirilgan xaritalarni ham tuzishga e’tibor qaratgan. Sirdaryo viloyati janubiy qismlariga Rossiyadan ko‘chib kelganlar hisobiga ko‘plab yangi aholi maskanlari vujudga keladi. Ularning ko‘pi Avliyoota va Chimkent uyezdlarida (38 va 37 tadan), Toshkent uyezdida (16 posyolka) joylashgan (Чабров Г., 1957: 190).

Umuman olganda, 1897-yilgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, ruslar o‘lkadagi jami aholining 3,7% ini tashkil etgan. Shu sababli rus kartograflari ushbu hududning rus aholi punktlari aks ettirilgan xaritasini yaratib, unda 35 ga yaqin aholi punkti va Toshkent shahrini ko‘rsatishgan. Xaritada Angren daryosi Piskom (xaritada Biskan) Chirchiq daryolari, Chimkent va Chinozga boruvchi asosiy yo‘llar ko‘rsatilgan. Shu bilan birga Chilik, Xo‘jakent, Obliq kabi mahalliy aholi istiqomat qiluvchi qishloqlar ham aks ettirilgan. Ushbu xarita shunisi bilan diqqatga sazovorki, unga ilova tarzda podporuchik Y. Zarakov tomonidan tuzilgan mos jadval ham keltirilgan.

Boshqa bir – “Sirdaryo viloyati rus qishloqlari xaritasi”da Avliyoota atroflaridan to Chimkentgacha, Chimkentdan esa Chinozgacha bo‘lgan hududlardagi ruslar istiqomat qilayotgan aholi maskanlari to‘laligicha ko‘rsatilgan. Jumladan, Avliyootadan sharqqa tomon 20 ta, Avliyootadan Chimkent atroflarigacha 18 ta, Chimkentdan to Chinozgacha 18 ta rus qishlog‘i nomma-nom qayd etilgan (O‘zMA, 17-fond, 2-ro‘yxat, 517-yig‘ma jilddagi xarita).

N.I. Grodekovning “Киргизы и каракиргизи Сыр-Даринской области” kitobiga Sirdaryo viloyatining etnografik xaritasi ilova qilingan (Гродеков Н., 1889). Unda Sirdaryo viloyatida istiqomat qiluvchi 9 millat vakillari joylashgan maskanlar shartli belgi asosida berilib, qirg‘iz (qozoq)larning uchta o‘rdasi (katta, o‘rta, kichik o‘rdalar) ham ko‘rsatilgan. Xaritada eng ko‘p millat vakillari o‘zbeklarni tashkil etishi qayd etilgan.

Shaharlar chizmalari. Ko‘rib chiqilayotgan davrda Rossiyada tuzilgan barcha xaritalarda Toshkent shahri ko‘rsatilgan. Rus ma’muriyati shaharning o‘lka siyosiy hayotida tutgan o‘rni alohida e’tiborga ega ekanligini istilodan keyin ham yaxshi tushungan. Buni shaharning 1890-yilda Turkiston Harbiy-topografik bo‘limi tomonidan tuzilgan shahar chizmasidan ham bilishimiz mumkin.

Shaharning ichki qismlarini yaxshi bilish, uning ko‘chalari, madrasa, masjidlari, aholi manzillari va bozorlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish, ruslarning shahardagi ulkan harbiy-siyosiy ma’muriyati – Turkiston general-gubernatorligi uchun ham zarur edi.

Ushbu chizmada 8 ta madrasa, 42 ta masjid, 9 ta guzar, 21 ta qabriston, 2 ta mozor-maqbara (Azlar va Abulqosim Eshon) tarhi berilgan. Shaharning 12 ta darvozasi ham o‘z aksini topgan. Bunda shaharning ko‘rinishi quyidagi shartli belgilar asosida berilgan:

1. Aholi istiqomat qiluvchi mavzelar.
2. Bozorlar.
3. Masjid, madrasa va bog‘lar.
4. Qabriston va alohida qabr (maqbara)lar (O‘zMA, 17-fond, 2-ro‘yxat, 549-yig‘ma jild).

Shuningdek, 1893-yilda Turkiston Harbiy-topografik bo‘limi tomonidan tuzilgan Buxoro shahri xaritasi (O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 72-yig‘ma jild) o‘z davri uchungina emas, hozirda ham katta ahamiyatga ega. Chunki Buxoro hali to‘la mustamlakaga aylanmagan bir sharoitda shaharning chizmasini ishlab chiqish ruslarning bu yerdagi manfaatlari ustun ekanligidan dalolat beradi. Xarita podpolkovnik Rodionov tahriri ostida chop etilgan, unda shaharning yirik darvozalari (Samarqand, Mozor, Qarshi, Sallixon, Namozgoh, Shohjalol, Qorako‘l, Talipoch, O‘g‘lon, Imom), machitlari (Abdullaxon, Balandhovuz,

Kalon, Govkushon, Registon, Labihovuz), madrasalari (Rashid, Modarixon, Zargaron, Mir Arab), zindon hamda shaharning asosiy ko‘chalari aks ettirilgan.

Shahar atrofidagi qishloqlar (Qalandarxona, Jo‘yboriberdi, Qal’ai Hur, Namozgoh) bilan birga amirning shahar atrofida joylashgan Dilkusho va Xossa (Sitorai Mohi Xosa) kabi yozgi qarorgohlari ham ko‘rsatilgan.

Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, ruslar O‘rta Osiyo shaharlarining topografik chizmalarini XIX asrning 90-yillarida, ya’ni bu hududda o‘z ta’sirlarini uzil-kesil o‘rnatganlaridan so‘nggina tuzganlar, xolos.

Rossiya harbiylari o‘zlari egallagan hududlarning alohida xaritalarini tuzishga ham harakat qilishib, bu borada ma’lum ishlarni amalga oshirishgan. Arxiv hujjatlarida Turkiston o‘lkasining alohida hududlari aks ettirilgan xaritalar va ularga berilgan batafsil ma’lumotnomalar ancha miqdorni tashkil etadi. 1868-yilning 12-dekabrida Jizzax uyezdi boshlig‘i, polkovnik Nosovich tomonidan Turkiston Okrugi Bosh shtabiga yo‘llangan yozishma Sangzor vodiysi, ruslarning bu yerda o‘z mavqelarini o‘rnatishlari haqida boradi. Hududning geografik manzarasini bayon etib: “Sangzor vodiysidan sharqqa tomon tog‘larda 40 ga yaqin qishloq bo‘lib, ular hozirgacha mustaqil bekliklarni tashkil etadi: Urmitan (bek – Abdulg‘affor), O‘razminor (bek – Ibodullo) va Machin (bek – Shoh). Samarqand shahrini egallagunimizga qadar ular Buxoro xonligiga qarar edi. Endi Buxoro hududlaridan ajralib qolgan bu bekliklar rus hududlariga ham qo‘shilmasdan amalda monarxik respublikalar bo‘lib qolmoqdalar. Beklar amirga to‘lovlar to‘lashmaydi”, - deb xabar qiladi. Polkovnik ushbu hududlarda joylashgan aholining rus hududlariga bo‘lgan xavfi kuchli ekanligini hamda “Xo‘jand uyezdi boshlig‘ining rasmiy ma’lumotlariga qaraganda Machindan O‘ratepagacha bo‘lgan tog‘li yo‘lda butun yoz davomida, ko‘p miqdordagi qurollangan guruhlar paydo bo‘lganligini” alohida uqtiradi (O‘zMA, 1-fond, 34-ro‘yxat, 37-yig‘ma jild).

Ushbu bekliklarni egallash uchun “Jizzaxdan Sangzorga ikki kolonna jo‘natib, ularning birini Urmitanga, ikkinchisini esa, O‘ratepa orqali Machinga jo‘natish” taklifini ilgari surgan polkovnik Nosovich “ikkita tog‘ artilleriyasi 10 kun davomida ushbu hududlarni egallashi va rus quroliga hech qanday qarshilik bo‘lmasligini” avvaldan bashorat qiladi.

Uyezd boshlig‘i bu yerlar haqida yaxshi ma’lumotga ega bo‘lishlari uchun shtabga o‘sha yilning 18-noyabrida tuzilgan Sangzor vodiysi xaritasini ham jo‘natgan. Xarita rangli bo‘lib, masshtabi 10 verstli ingliz dyumida ishlangan. Jizzax va 10 ta tuman hududlari eng katta qal’alar mavjud shaharlar birmuncha yirik to‘q bo‘yoqli harflarda, qishloqlar esa kichik harflar bilan qayd etilgan.

Jizzax qal’asi yaqinida “Klyuchevoy” degan yozuv bo‘lib, bu harbiylarning hal qiluvchi marralari shu yerda ekanligidan darak beradi. Qal’a-shaharlarga Oqqo‘rg‘on,

Urgut, Yangiqo‘rg‘on, Urmitan, Zomin, Nav, O‘ratepa, Panjikent kirgan (O‘zMA, 1-fond, 34-ro‘yxat, 37-yig‘ma jild).

Xaritada Samarqand shahri aks etmagan bo‘lsa-da, Samarqand, Jizzax, Urgut, Shahrisabz va Panjikentga eltuvchi yo‘llar belgilab ko‘rsatilgan. Samarqanddan Jizzaxga boruvchi yo‘l Zarafshon daryosidan so‘ng boshlangan.

Xaritaning janubiy qismida Urmitan bekligi va unga qarashli 10 ta qishloq: Dardor, Ishqador, Xareyshakon, Irantishon, Choramakor, Fon, Migdana, Yari, Dashqochi, Maydana ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, O‘razminor va Machin bekligiga qarashli qishloqlarning sonigina berilgan (O‘razminorda 5 ta qishloq, Machinda 15 ta qishloq) (O‘zMA, 1-fond, 34-ro‘yxat, 37-yig‘ma jilddagi xarita).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi kartografik manbalar orqali XIX asr ikkinchi yarmiga oid Turkiston tarixining siyosiy-harbiy, iqtisodiy, tabiiy, etnik va shaharlar topografiyasi bo‘yicha faktik ma’lumotlarni qo‘lga kiritish mumkin. Mazkur tarixiy xaritalar yozma manbalar va tarixiy adabiyotlarni to‘ldiribgina qolmay, bu davr tarixini o‘rganishda birlamchi manba bo‘lib ham xizmat qiladi.

Shu jihatdan:

1. O‘rta Osiyo hududi aks ettirilgan xaritalardagi joy nomlari (toponimika), bezak (tasvir, rang)lariga doir geografiya, filologiya, san’atshunoslik bo‘yicha alohida ilmiy tadqiqotlar yaratish;

2. “O‘zbekiston tarixiy atlasi” va Respublikaning tarix, o‘lkashunoslik muzeylari fondlari eksponatlarini tarixiy xaritalar bilan boyitish va ularni keng ommalashtirish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Терентьев М.А. (1906) Карты и планы к истории завоевания Средней Азии. – СПб.: Тип. Лит. В. Комарова.

2. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. – Тошкент: “Шарқ”, 2001.

3. Гродеков Н.И. (1883) Хивинский поход 1873 года. – СПб.

4. Гейсман П. (1907) Михаил Дмитриевич Скобелев. Очерки военной и государственной деятельности // “Военный сборник”. №6.

5. Гальков Ч.В. (1956) Триангуляционные работы в Средней Азии // Известия Узбекистанского филиала Географического Общества СССР. Т. II. – Ташкент: Изд-во АН УзССР.

6. O‘zMA, 17-fond, 2-ro‘yxat, 549-yig‘ma jild.

7. Гальков Ч.В., Раҳимбеков Р.У., Югай Р.Л. (1975) Ўзбекистон карталари. – Тошкент: “Ўқитувчи”.

8. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. I жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2000.

9. Гвоздецкий Н.А., Федчина В.Н., Азатьян А.А., Донцова З.Н. (1964) Русские географические исследования Кавказа и Средней Азии в XIX – начале XX в. – Москва: “Наука”.

10. Черданцев Г.Н. (1950) Из истории русских географических открытий и исследований в Средней Азии // Труды Московского института инженеров геодезии, аэрофотосъемки и картографии. Вып. 5. – Москва: Геогдезиздат.

11. Северцов Н.А. (1872) Об орографии Средней Азии. // Известия Императорского Русского Географического общества. Т. VIII. №1.

12. Северцов Н.А. (1860) Месяц плена у кокандцев. С картою низовьев Сырь-Дарьи. – СПб.

13. Каульбарс А.В. (1875) Материалы по географии Тянь-Шанья, собранные во время путешествие в 1869 г. // Записки Императорского Русского Географического общества. Т. V.

14. Федченко А.П. (1950) Путешествие в Туркестан. – Москва: Географгиз.

15. O‘zMA, I-36-fond, 1-ro‘yxat, 483-yig‘ma jild.

16. Семенов П.П. (1896) История полувековой деятельности Императорского Русского географического общества. Ч. 2. – СПб.

17. Мушкетов И.В. (1915) Туркестан. Т. I. Изд. 2. – Петроград.

18. Топографические сведения о Красноводске и ближайших к нему местностях о пути пройденном при рекогносцировках 1869 по март 1870 // Известия Императорского Русского Географического общества. Т. VI. 1870, № 1-8.

19. Атлас к X книжке Кавказского отдела императорского Русского Географического общества. – Тифлис, 1879. Карта №1.

20. O‘zMA, 5-fond, 1-ro‘yxat, 3405a-yig‘ma jild.

21. Чабров Г.Н. (1957) Русские поселения между Оренбургом и Ташкентом в XIX – начале XX вв. (1824–1917) // Труды САГУ. Вып. XC. Исторические науки. – Ташкент: Изд-во САГУ.

22. Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Под ред. В.П. Семенова-Тянь-Шанского. – СПб.: Изд. А.Ф. Девриена, 1913.

23. O‘zMA, 517-fond, 2-ro‘yxat, 17-yig‘ma jild.

24. O‘zMA, 17-fond, 2-ro‘yxat, 517-yig‘ma jilddagi xarita.

25. Гродеков Н.И. (1889) Киргизы и каракиргизы Сырь-Дарьинской области. – Ташкент.

26. O‘zMA, 17-fond, 2-ro‘yxat, 549-yig‘ma jild.

27. O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 72-yig‘ma jild.

28. O‘zMA, 1-fond, 34-ro‘yxat, 37-yig‘ma jild.

29. O‘zMA, 1-fond, 34-ro‘yxat, 37-yig‘ma jilddagi xarita.

REFERENCES:

1. Terentyev M.A. (1906) Karti i plani k istorii zavoyevaniya Sredney Azii. – SPb.: Tip. Lit. V. Komarova. (In Russian)

2. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – Toshkent: “Sharq”, 2001. (In Uzbek)

3. Grodekov N.I. (1883) Xivinskiy poxod 1873 goda. – SPb. (In Russian)

4. Geysman P. (1907) Mixail Dmitriyevich Skobelev. Ocherki voyennoy i gosudarstvennoy deyatelnosti // “Voyenniy sbornik”. №6. (In Russian)

5. Galkov Ch.V. (1956) Triangulyatsionniye raboti v Sredney Azii // Izvestiya Uzbekistanskogo filiala Geograficheskogo Obshyestva SSSR. T. II. – Tashkent: Izd-vo AN UzSSR. (In Russian)

6. O‘zMA, 17-fond, 2-ro‘yxat, 549-yig‘ma jild. (In Uzbek)

7. Galkov Ch.V., Rahimbekov R.U., Yugay R.L. (1975) O‘zbekiston kartalari. – Toshkent: “O‘qituvchi”. (In Uzbek)

8. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O‘zbekistonning yangi tarixi. I jild. – Toshkent: “Sharq”, 2000. (In Uzbek)

9. Gvozdeskiy N.A., Fedchina V.N., Azatyan A.A., Donsova Z.N. (1964) Russkiye geograficheskiye issledovaniya Kavkaza i Sredney Azii v XIX – nachale XX v. – Moskva: “Nauka”. (In Russian)

10. Cherdansev G.N. (1950) Iz istorii russkix geograficheskix otkritiy i issledovaniy v Sredney Azii // Trudi Moskovskogo instituta injenerov geodezii, aerofotosyemki i kartografii. Vip. 5. – Moskva: Geogdezizdat. (In Russian)

11. Seversov N.A. (1872) Ob orografii Sredney Azii. // Izvestiya Imperatorskogo Russkogo Geograficheskogo obshyestva. T. VIII. №1. (In Russian)

12. Seversov N.A. (1860) Mesyas plena u kokandsev. S kartoyu nizovyev Sir-Daryi. – SPb. (In Russian)

13. Kaulbars A.V. (1875) Materiali po geografii Tyan-Shanya, sobranniye vo vremya puteshestviye v 1869 g. // Zapiski Imperatorskogo Russkogo Geograficheskogo obshyestva. T. V. (In Russian)

14. Fedchenko A.P. (1950) Puteshestviye v Turkestan. – Moskva: Geografgiz.

15. O‘zMA, I-36-fond, 1-ro‘yxat, 483-yig‘ma jild. (In Russian)

16. Semenov P.P. (1896) Istoriya poluvekovoy deyatelnosti Imperatorskogo Russkogo geograficheskogo obshyestva. Ch. 2. – SPb. (In Russian)

17. Mushketov I.V. (1915) Turkestan. T. I. Izd. 2. – Petrograd. (In Russian)

18. Topograficheskiye svedeniya o Krasnovodske i blijayshix k nemu mestnostyax o puti proydennom pri rekognossirovkax 1869 po mart 1870 // Izvestiya Imperatorskogo Russkogo Geograficheskogo obshyestva. T. VI. 1870, № 1-8. (In Russian)

19. Atlas k X knijke Kavkazskogo otdela imperatorskogo Russkogo Geograficheskogo obshyestva. – Tiflis, 1879. Karta №1. (In Russian)

20. O‘zMA, 5-fond, 1-ro‘yxat, 3405a-yig‘ma jild. (In Uzbek)

21. Chabrov G.N. (1957) Russkiye poseleniya mejdu Orenburgom i Tashkentom v XIX – nachale XX vv. (1824–1917) // Trudi SAGU. Vip. XS. Istoricheskiye nauki. – Tashkent: Izd-vo SAGU. (In Russian)

22. Rossiya. Polnoye geograficheskoye opisaniye nashego otechestva. Pod red. V.P. Semenova-Tyan-Shanskogo. – SPb.: Izd. A.F. Devriyena, 1913. (In Russian)

23. O‘zMA, 517-fond, 2-ro‘yxat, 17-yig‘ma jild. (In Uzbek)

24. O‘zMA, 17-fond, 2-ro‘yxat, 517-yig‘ma jilddagi xarita. (In Uzbek)

25. Grodekov N.I. (1889) Kirgizi i karakirgizi Sir-Darinskoy oblasti. – Tashkent. (In Russian)

26. O‘zMA, 17-fond, 2-ro‘yxat, 549-yig‘ma jild. (In Uzbek)

27. O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 72-yig‘ma jild. (In Uzbek)

28. O‘zMA, 1-fond, 34-ro‘yxat, 37-yig‘ma jild. (In Uzbek)

29. O‘zMA, 1-fond, 34-ro‘yxat, 37-yig‘ma jilddagi xarita. (In Uzbek)

XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA SAMARQAND SHAHRINING O‘RNI

ROLE OF SAMARKAND CITY IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL RELATIONS

РОЛЬ ГОРОДА САМАРКАНДА В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Ismatullayev Farhodjon Odiljonovich,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
tarix fanlari doktori (DSc)
Tel.: +998 93 804-00-89
e-mail: farhod.ismatullayev@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand shahrining xalqaro munosabatlar tizimida tutgan o‘rni tahlil qilingan. Samarqandning qadimdan Buyuk ipak yo‘li doirasida xalqaro darajada savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarni rivojlantirishda asosiy tranzit va muhim markaz bo‘lgani manbalar asosida yoritib berilgan. Samarqand dunyoning mashhur shaharlaridan biri sifatida jahon sivilizatsiyasi rivojiga, xususan sharq mamlakatlari taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgani ta’kidlanar ekan, bu fikrlar turli xorijiy shaxslarning e’tiroflari bilan tasdiqlanadi. Osiyo bilan Yevropa o‘rtasida savdo-diplomatik aloqalarning rivojlanishida aynan Samarqand hududida mavjud bo‘lgan qadimiy so‘g‘diylarning xizmatlari tufayli bu shaharning o‘rni va ahamiyati yuksak ekani eslanar ekan, bugungi kunda ham dunyo madaniyati va san’ati vakillarining bir yerda to‘planishida, “Sharq taronalari” festivali orqali jahon xalqlarini tinchlik va hamkorlikka da’vat etilishida Samarqand shahri mezbonlik qilayotgani ta’kidlanadi. Shu sababli Samarqand shahriga qiziqish kattaligi, bir qancha olim va yozuvchilar bu shahar haqida kitoblar yozishgani ham maqolada qayd etilgan. Bundan tashqari, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida Samarqand shahrini Markaziy Osiyoning turistik habiga aylantirish bo‘yicha qilinayotgan ishlar haqida ham so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *sivilizatsiya, Maroqand, Samarqand, Buyuk ipak yo‘li, Rennesans, Rim, turizm.*

Annotation: In this article the role of Samarkand city in the system of international relations is analyzed. According to the sources, Samarkand has been the main transit and an important center in the development of trade, economic, cultural and humanitarian spheres at the international level within the framework of the Great Silk Road. It is mentioned that Samarkand, as one of the famous cities of the world,

made a great contribution to the development of world civilization, especially to the development of Eastern countries, and these opinions are confirmed by the confessions of various foreign persons. It is remembered that the place and importance of this city in the development of trade and diplomatic relations between Asia and Europe is high due to the services of the ancient Sogdians who lived in the territory of Samarkand, it is also noted that the city of Samarkand is hosting to gather world peoples and calling them for peace and cooperation through the "Sharq taronalari" festival. For this reason, it is noted in the article that due to the great interest in the city of Samarkand, several scientists and writers have written books about this city. In addition, it is also mentioned that according to the strategy for the development of New Uzbekistan some projects are being carried out to turn the city of Samarkand into a tourist hub of Central Asia.

Keywords: *civilization, Marokand, Samarkand, Great Silk Road, Renaissance, Rome, tourism.*

Аннотация: В данной статье анализируется роль города Самарканда в системе международных отношений. Также на основе источников подчеркивается, что город Самарканд является основным транзитным и важным центром развития торгово-экономической и культурно-гуманитарной сфер региона в рамках Великого Шелкового пути. Упоминается, что Самарканд, как один из известных городов мира, внес большой вклад в развитие мировой цивилизации, особенно в развитие стран Востока, и эти мнения подтверждаются признаниями различных иностранных лиц. Вместе с вспоминанием, что место и значение этого города в развитии торговли и дипломатических отношений между Азией и Европой высоки из-за заслуг древних согдийцев, проживавших на территории Самарканда, также отмечается, что город Самарканд принимает у себя мировые народы и призывает их к миру и сотрудничеству посредством фестиваля «Шарк тароналари». По этой причине в статье отмечается, что из-за большого интереса к городу Самарканд, несколько ученых и писателей написали книги об этом городе. Кроме того, в стратегии развития Нового Узбекистана упоминается и проводимая работа по превращению города Самарканда в туристический центр Центральной Азии.

Ключевые слова: *цивилизация, Мароканд, Самарканд, Великий Шелковый путь, Возрождение, Рим, туризм.*

KIRISH

Insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy beshiklaridan biri bo‘lgan yurtimizda qadim davrlardan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalar rivojida muhim o‘rin tutgan ko‘plab shaharlar shakllangan. Samarqand ana shunday ko‘hna shaharlardan biridir.

Samarqand jahon sivilizatsiyasi rivojiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan. Bu shahar miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoda shahar madaniyati yoyilishida muhim o‘rin tutgan. Markaziy Osiyo shaharsozlik va fortifikatsiyasi tarixida birinchi marta Samarqandda murakkab relyefda monumental arxitektura qurilishi ixtiro qilindi va bu usul keyinchalik qo‘shni mintaqalarga tarqaldi. Miloddan avvalgi IV asrda esa ellinizm madaniyati shakllanishiga katta hissa qo‘shdi (Ртвеладзе Э., 2001: 48). Shuningdek, ikkiga bo‘linib qolgan sharq va g‘arb mamlakatlarini o‘zaro bog‘lab, yaxlit bir dunyoga aylantirgan, insoniyat tarixi rivojini yangi o‘zanga burib yuborgan, Buyuk ipak yo‘lining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ham beqiyos hissa qo‘shgan. Chunki Rimdan Siangacha bo‘lgan Buyuk ipak yo‘li tarmoqlarida so‘g‘d tili xalqaro til vazifasini bajardi. So‘g‘dliklar tijorat, madaniyat va g‘oyalar harakatida asosiy vositachilik vazifasini o‘tadi. Xitoy yoki Koreyadan yo‘lga chiqqan savdo karvonlari o‘z mahsulotlarini So‘g‘diyona – Samarqandgacha yetkazib kelgan. So‘ngra so‘g‘d savdogarlari ularni Yevropagacha eltgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va nutqlarida uchratish mumkin. Jumladan, Samarqand shahrining turistik imkoniyatlari haqida Shavkat Miromonovich Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Aksariyat davlatlar xalqlari yurtimizni ko‘hna Samarqand orqali tasavvur qiladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston haqida gapirganda, avvalo, bu qadim shaharni tilga olamiz. Haqiqat shuki, Buyuk Ipak yo‘lini birlashtirgan shaharlar orasida Samarqandchalik qadim tarixga ega manzil yo‘q. Afsuski, shunga mos infratuzilma yaratishga avvalroq e’tibor qaratmadik”.[1]

Tarixchi olimlardan Edvard Rtveladze, Abdulahad Muhammadjonov, N.Qosimov hamda B.G‘ofurov Samarqand shahri haqida tadqiqot natijalarini e’lon qilganlar. Mazkur maqolada esa ularning ma’lumotlari tahlili asosida umumiylashtirilgan, hamda mavzuni yoritib berishga xizmat qiluvchi ma’lumotlar havola etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Xalqaro munosabatlar tizimida Samarqand shahrining o‘rni” nomli ushbu maqolaning tadqiqot metodologiyasi turli manbalarni, jumladan, tarixiy hujjatlar, ilmiy ishlar va rasmiy hisobotlarni har tomonlama tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Maqolani yozish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Adabiyot sharhi: Samarqand shahrining xalqaro munosabatlardagi o‘rni bo‘yicha mavjud adabiyotlar atroflicha o‘rganildi. Samarqandning savdo, madaniyat

[1] Мирзиёев Ш.М. Мақсадимиз – Самарқандни жаҳон туризм марказига айлантириш, аҳоли учун замонавий турмуш шароити яратиш // Халқ сўзи газетаси, 2019 йил 27 июль.

va diplomatiya rivojidagi ahamiyatini tushunish uchun tarixiy matnlar, ilmiy maqolalar va boshqa tegishli manbalarni o‘z ichiga oluvchi materiallarga diqqat qaratildi.

2. Ma’lumot to‘plash: Ma’lumotlar turli manbalardan, jumladan, asosiy va ikkilamchi manbalardan to‘plandi. Birlamchi manbalarga tarixchi va olimlar bilan suhbatlar, ikkinchi darajali manbalarga esa kitoblar, maqolalar va rasmiy hisobotlar taalluqlidir.

3. Tahlil: Yig‘ilgan ma’lumotlar Samarqandning xalqaro munosabatlardagi o‘rni bilan bog‘liq asosiy mavzular va tendensiyalarni aniqlash uchun tahlil qilindi. Uyg‘onish davridagi Rim kabi Samarqand va boshqa tarixiy shaharlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni tushunish uchun qiyosiy tahlil o‘tkazildi.

4. “Case Study” metodi: Samarqandning xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan aniq voqealar yoki o‘zgarishlarga oid misollar batafsil ko‘rib chiqildi. Bunga Buyuk Ipak yo‘lining shahar rivojiga ta’siri, qadimgi so‘g‘diylarning savdo va diplomatiyaga qo‘shgan hissasi, “Sharq taronalari” kabi xalqaro festivallarga mezbonlik qilish kiradi.

5. Sotsiologik tadqiqotlar: Suhbat, fokus-guruhlar va ishtirokchilarni kuzatish kabi sifatli tadqiqot usullaridan foydalanib, mahalliy ekspertlar va aholidan Samarqandning bugungi global kontekstdagi ahamiyati haqida tushunchalar to‘plandi.

Ushbu maqolaning tadqiqot metodologiyasi Samarqand shahrining xalqaro munosabatlar tizimidagi rolini tahlil qilish uchun tarixiy, sotsiologik va iqtisodiy istiqbollarni birlashtirgan fanlararo yondashuvni o‘z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qadimgi Samarqand va ko‘hna Rim o‘rtasidagi hamkorlikning tarixiy ildizlari uzoq antik davrga borib taqalishini arxiv ma’lumotlari ham tasdiqlaydi. Manbalarda Rim imperatori Adrian (milodiy II asr) davrida saroy ayollari Buyuk ipak yo‘li orqali keltirilgan Maroqand shoyisidan tayyorlangan kiyim kiygani haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Diplomatik aloqalarni rivojlantirishda ham shaharning alohida o‘rni mavjud. Bunga misol sifatida Vizantiyaga ilk marta yo‘l ochgan jasur so‘g‘d elchisi Maniaxni ko‘rsatish mumkin (Муҳаммаджонов А., 2009: 168).

Amir Temur davrida Samarqand “yer yuzining sayqali”ga aylandi. Sohibqiron Samarqandni o‘zgacha bir mehr bilan obod qildi. Uni “dunyoning markazi”ga aylantirish uchun hech narsani ayamadi. Natijada, ilm-fan, san’at va madaniyat yuksak darajaga ko‘tarildi, insoniyat tarixidagi nodir jarayon – ikkinchi Renessans – Uyg‘onish yuzaga keldi. Dunyo ilm-fani Mirzo Ulug‘bek asarlari bilan boyidi. Matematika va astronomiya fanlari rivoji yuksak darajaga ko‘tarildi. Bu ilmlar aynan Samarqandda rivojlanib, dunyoga tarqaldi. Mashhur fransuz mutafakkiri Volter

“Samarqand akademiyasi”ni bir necha marta tilga olgani ham bejiz emas (Ртвеладзе Э., 2001: 77).

Samarqand dovrug‘i Amir Temur va temuriylar davrida ayniqsa yuksaldi. Samarqandni poytaxt qilgan Amir Temur butun dunyodan ilm-fan ahlini Samarqandga taklif etdi. Ularga ijod qilish uchun sharoit yaratib berdi. Tabiiyki, Samarqand shon-shavkatining ortishida Amir Temur davridagi diplomatik aloqalarning rivojlanishi ham muhim omil bo‘ldi. Amir Temur tomonidan boshqa davlatlarga yuborilgan elchilar xalqaro va diplomatiya huquqi mezonlariga qat’iy amal qilgan. Amir Temur diplomatiyasi mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik va jamiki insoniy fazilatlarga yo‘g‘rilgan. Hatto u yengilgan raqibiga katta hurmat va jo‘mardlik ko‘rsatgan. Temurning Yevropaga, jumladan, Fransiya bilan hamkorlik aloqalariga jiddiy e’tibor qaratganini va o‘z navbatida, Fransiya qiroli Sharl VI ham bunga munosib javob qaytarganini o‘sha davrdagi yozishmalar orqali bilib olish mumkin.

Ispaniya qiroli Enriko III (1390-1407) Amir Temur (1370-1405)ga 1402, 1403-yillarda maktublar yo‘llagan. Shu bilan birga, Ispaniyaning mashhur tarixchisi Rui Gonzales de Klavixo 1404-yili mamlakat qiroli topshirig‘iga binoan Samarqandga elchi bo‘lib keladi (Клавихо, 2010: 6). U tashrifi chog‘ida Sohibqiron bilan bir necha marta uchrashgani, temuriylar elchisi Muhammad Qozi ham Ispaniyaga tashrif buyurgani va ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgani manbalarda keltirilgan. Demak, buyuk Sohibqiron yurtimizni Yevropa bilan bog‘laydigan elchilik aloqalariga yangitdan asos soldi va yuqori bosqichga ko‘tardi.

Rui Gonzales de Klavixo o‘z elchiligi davrida ko‘rgan, tanishgan va o‘qigan manbalariga tayanib, “Buyuk Temur tarixi”, “Temur qarorgohi”, “Samarqandga sayohat kundaligi” nomli kitoblarni yozgan. Demak, Yevropa xalqlari XVI asrdayoq buyuk Amir Temur va temuriylar davlati hamda uning dovrug‘i haqida ma’lum darajada ma’lumotga ega bo‘lgan.

Amir Temur va temuriylar davriga qiziqish keyingi davrlarda ham davom etdi. Jumladan, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida buyuk nemis shoiri va mutafakkiri Iogann Volfgang von Gyote o‘z asarlarida temuriylar davlati, qadimiy voha shaharlari – Samarqand va Buxoro haqida yozgan (Қосимов Н., 2021: 16). Bu ma’lumotlar hamma davrlarda O‘zbekiston va uning madaniyatiga qiziqish davom etganini ko‘rsatadi.

Istiqlol yillarida bu aloqalar o‘zining takomiliga erishdi. Buni biz turli yo‘nalishlarda, jumladan, iqtisodiyot, madaniyat va ta’lim sohalaridagi hamkorliklarning rivojlanganida ko‘ramiz. Shu bilan birga, madaniyat va ilm-fanning turli sohalariga bag‘ishlangan konferensiya va festivallar ham aynan Samarqand shahrida o‘tkazilishi an’anaga aylandi. Chunki ham tarixiy, ham zamonaviylikni o‘zida jamlagan Samarqand shahri dunyo xalqlari e’tiborida, uni ko‘rishga qiziquvchilar soni esa yildan-yilga ortib bormoqda.

2007-yilning 24-26-may kunlari Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi xalqaro miqyosda nishonlandi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, YUNESKO hamkorligida “Samarqand shahrining insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti tarixida tutgan o‘rni”ga bag‘ishlangan ilmiy anjuman tashkil etildi. Ushbu anjumanda Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Fransiya, Shveysariya kabi davlatlardan yetakchi arxeolog, tarixchi, sharqshunos olim va mutaxassislar ishtirok etdi. Bu, albatta, Samarqand shahriga nisbatan jahon ilm-fan doiralarida ham katta qiziqish uyg‘onayotganidan dalolatdir.

Yildan-yilga O‘zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalar qamrovi kengayib, hamkor davlatlar soni ortib bormoqda. O‘zbekiston jahonning eng rivojlangan davlatlari bilan turli fan sohalarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yib kelmoqda. Ana shunday aloqalar fransuz qadimshunoslari bilan Samarqandning ko‘hna Afrosiyob qo‘rg‘onida arxeologik tadqiqotlar olib borish bilan davom etmoqda. Shuni ta’kidlash mumkinki, YUNESKO qaroriga muvofiq Samarqand shahri yoshining 2750 yil deb belgilanishida, albatta, fransuz qadimshunoslari va arxeologlarining ham katta hissasi bor.

So‘nggi yillarda Yevropa ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga oid ko‘rsatuvlar ko‘payib bormoqda. Ushbu namoyishlar orqali xorij teletomoshabinlari o‘lkamizning tarixiy-madaniy merosi va zamonaviy rivoji bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Italiya kanallarida ham yurtimiz tarixi, madaniyati va sayyohlik imkoniyatlari haqida ana shunday turkum ko‘rsatuvlar namoyish etilmoqda. Ko‘rsatuv mualliflari tomonidan O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘p mingyillik tarixga ega va beqiyos me’moriy obidalarga boy mamlakat ekani alohida ta’kidlandi. Shuningdek, Amir Temur poytaxti – mahobatli Samarqandni tasvirlar ekan, Italiya jurnalistlari tomonidan mashhur sayyoh Marko Poloning ushbu shahar ta’rifidagi so‘zlarini keltirilib, uning insoniyat tamaddunigа qo‘shgan hissasi haqida ma’lumot berildi.

Italiya jamoatchiligi uchun tayyorlangan mazkur telejurnal O‘zbekiston shaharlarining insoniyat tamaddunida tutgan o‘rni va ahamiyati, buyuk ajdodlarimizning dunyo ilm-fani hamda madaniyatiga qo‘shgan beqiyos hissasini yoritishda davom etmoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, Samarqandning xalqaro miqyosdagi roli ortib borishida muntazam asosda o‘tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining o‘rni kattadir. 1997-yildan Samarqand shahrida har ikki yilda o‘tkaziladigan ushbu festivalda dunyoning ko‘plab davlatlaridan, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan tashrif buyurgan musiqa ustalari o‘z mahoratini namoyish etib kelmoqda.

Festivalda ishtirok etuvchi mamlakatlar soni yildan-yilga ko‘payib bormoqda. 1997-yil Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Sharq taronalari” festivalida jami 31

mamlakat va 2 ta xalqaro tashkilot vakillari qatnashgan bo‘lsa, ulardan 6 tasi Yevropa Ittifoqiga to‘g‘ri kelib, 23 nafar musiqa ustalari ishtirok etdi. 2005-yil o‘tkazilgan festivalda esa 291 kishi 50 ta mamlakatdan qatnashgan bo‘lsa, 76 ishtirokchi 13 ta Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan tashrif buyurdi. 2017-yilda 58 mamlakatdan 241 nafar san’atkor qatnashgan. Shuni ta’kidlash joizki, “Sharq taronalari” festivallarida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida faol ishtirok etuvchilar qatorida Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gretsiya, Italiya, Fransiya, Latviya davlatlarini tilga olish mumkin.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Yevropaning rivojlanayotgan davlatlaridan biri bo‘lgan Latviya Respublikasi bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish pallasidadir. Albatta, ushbu aloqalarda Samarqand shahrining o‘rni katta bo‘lmoqda. Ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalar turli yo‘nalishlarda, jumladan, tasviriy va amaliy san’at sohasida davom etmoqda. Buni biz 2013-yil Rigada O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’at ustalarining ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tganida ko‘rishimiz mumkin. Uning mantiqiy davomini esa 2014-yilning may oyida Samarqandda kurort shahar Yurmalaliklar tomonidan Latviya rassomlari ko‘rgazmasi tashkil etilganida ko‘ramiz. Ko‘hna Samarqand bilan Yurmala o‘rtasida hamkorlikning o‘rnatilishi madaniy aloqalar rivojida juda katta ahamiyatga ega.

Oxirgi yillarda O‘zbekiston tarixi va madaniyatini tadqiq etishga jahon miqyosida qiziqish ortib bormoqda. Buni birgina Amir Temur shaxsiga oid ilmiy izlanishlar jahondagi o‘ttizdan ortiq mamlakatda olib borilayotgani misolida ko‘rishimiz mumkin. Albatta, tariximiz, san’atimiz va qadriyatlarimizni xorijda o‘rganilishi va targ‘ib etilishi har jihatdan foydalidir. Birinchidan, ular Markaziy Osiyo tarixi va uning dunyo tamadduniga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumotga ega bo‘lsa, ikkinchidan, O‘zbekistonning tarixiy shaharlarini ko‘rishga qiziqishni orttiradi. Bu esa yurtimizga keladigan sayyohlar oqimi ortishiga xizmat qiladi.

Butunjahon atlasidagi ma’lumotlarga ko‘ra, ayni paytda dunyoda 5 mingga yaqin shahar mavjud. Ana shu shaharlar orasida ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lgani, nari borsa 40 taga yetadi (Ғофуров Б., 2018). Ushbu ro‘yxatda Samarqand shahri ham o‘rin olgan.

So‘nggi yillarda hukumatimiz xorijda yurtimiz tarixi va madaniyati bilan shug‘ullanib kelayotgan ko‘plab olim va adabiyotchilarni davlatimizning nufuzli mukofotlari bilan taqdirlab kelmoqda. 2018-yil 9-oktyabrda O‘zbekiston tarixi va madaniyatini o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan Fransiyaning taniqli adabiyot va ilm-fan namoyandalari – yozuvchi Amin Maaluf, olimlar Frederik Bopertyui-Bressand xonim va Frans Grenelarga Samarqand shahri faxriy fuqarosi unvoni topshirildi.

Frederik Bopertyui-Bressand xonim O‘zbekistonga birinchi marta 1977-yilda kelgan, Samarqandni ko‘rgan, Amir Temur shaxsi va davriga qiziqib, ko‘plab izlanishlar olib borgan. 2007-yilda o‘tkazilgan Samarqandning 2750 yilligiga

bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada Frederik Bopertyui – Bressand “Temuriylar davrida musiqa” mavzusida chiqish qildi. Parijda shu yili uning “Durdona Samarqand”, “Sirli Samarqand” kitob-albomlari chop etildi.

Ulardan biri Amin Maaluf o‘zining “Samarqand” romani bilan o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo‘lib, uning romani o‘zbek tilida 2003-yili “Jahon adabiyoti” jurnalining 6-7, 2005-yilning 7-8 sonlarida chop etilgan. Romanda shoir va faylasuf Umar Hayyomning Samarqanddagi hayoti, XI asrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat talqini aks etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So‘nggi yillarda Samarqand shahri nafaqat madaniy tadbirlarga, balki turli darajadagi siyosiy tashrif va xalqaro konferensiyalarga ham mezbonlik qilmoqda. Buni biz 2023-yil noyabr oyida davlat tashrifi bilan mamlakatimizga kelgan Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron tashrifi misolida ko‘rishimiz mumkin. Tashrif davomida davlat rahbarlarining Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylariga amalga oshirgan tashriflari, o‘tkazgan uchrashuvlari, erishgan bitim va shartnomalari istiqbolida ikki tomonlama munosabatlar yanada rivojlanishiga ishonamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Samarqand dunyoning eng qadimiy shaharlari – Rim, Afina, Bobil va Fiva qatorida turadi. Rim g‘arb sivilizatsiyasining rivojida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, Samarqand ham sharq taqdirida xuddi shunday vazifani o‘tagan. Samarqand hamisha navqiron, barhayot va umrboqiy shahardir. O‘zbekistonning madaniy markazi bo‘lgan Samarqand shahri har doim xalqaro munosabatlar rivojida muhim o‘rin tutib, o‘zining noyob arxitekturasi bilan insoniyatni hayratga solishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. История Узбекистана в 4 томах. Том.1. – Ташкент: Фан, 1967.
2. Латвия Президенти Андрис Берзиньш: Бизнинг Ўзбекистон билан муносабатларимиз узоқ муддатлидир // Халқ сўзи газетаси, 2014 йил 27 май.
3. Макроннинг ташрифи сабаб Самарқандда қатор кўчалар ёпилади. https://uznews.uz/posts/69059. Мурожаат этилган сана: 11.07.24.
4. Мирзиёев Ш.М. Мақсадимиз – Самарқандни жаҳон туризм марказига айлантириш, аҳоли учун замонавий турмуш шароити яратиш // Халқ сўзи газетаси, 2019 йил 27 июль.
5. Муҳаммаджонов А. (2009) Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акционерлик компанияси.
6. НА. РУз., ф - М-2., д.-172, л.-13.
7. Ртвеладзе Э. (2001) Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси. – Тошкент: Адолат.

8. Руи Гонзалес де Клавихо. (2010) Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406). – Тошкент: Ўзбекистон.

9. Самарқанд ва дунё цивилизацияси // Халқ сўзи газетаси, 2007 йил 25 май.

10. Самарқандга ўзгача меҳр қўйган француз ёзувчиси // Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 11 октябрь.

11. Самарқанднинг жаҳон цивилизацияси ривожидаги ўрни // Халқ сўзи газетаси, 2007 йил 25 май.

12. Ўзбекистон - Франция: узоқ муддатли ҳамкорликни янада кенгайтириш ва мустаҳкамлаш йўлида // Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 10 октябрь.

13. ЎзР МА. Ўзбекистон Республикаси Маданият ва спорт ишлари вазирлиги. “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалларида қатнашган ва таклиф этилиши режалаштирилган иштирокчилар ҳамда ижрочилар ҳақида қиёсий маълумот. Фонд – м -38, 1 – рўйхат, 343 – жилд, 4 – варақ.

14. Француз олимасининг ўнгидан келган туши // Халқ сўзи газетаси, 2018 йил, 13 октябрь.

15. Қосимов Н. (2021) Тарих, бугун, келажакни туташтирган ҳамкорлик // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент. – № 2. – Б. 16.

16. Ғофуров Б. (2018) Тарих ва келажак олдидаги бурч // Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 5 октябрь.

REFERENCES:

1. Istoriya Uzbekistana v 4 tomax. Tom.1. – Tashkent: Fan, 1967. (In Russian)

2. Latviya Prezidenti Andris Berzinsh: Bizning O‘zbekiston bilan munosabatlarimiz uzoq muddatlidir // Xalq so‘zi gazetasi, 2014 yil 27 may. (In Uzbek)

3. Makronning tashrifi sabab Samarqandda qator ko‘chalar yopiladi. https://uznews.uz/posts/69059. Murojaat etilgan sana: 11.07.24. (In Uzbek)

4. Mirziyoyev Sh.M. Maqsadimiz – Samarqandni jahon turizm markaziga aylantirish, aholi uchun zamonaviy turmush sharoiti yaratish // Xalq so‘zi gazetasi, 2019 yil 27 iyul. (In Uzbek)

5. Muhammadjonov A. (2009) O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksionerlik kompaniyasi. (In Uzbek)

6. NA. RUz., f - M-2., d.-172, l.-13. (In Russian)

7. Rtveladze E. (2001) Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi. – Toshkent: Adolat. (In Uzbek)

8. Rui Gonzales de Klavixo. (2010) Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406). – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)

9. Samarqand va dunyo sivilizatsiyasi // Xalq so‘zi gazetasi, 2007 yil 25 may. (In Uzbek)

10. Samarqandga o‘zgacha mehr qo‘ygan fransuz yozuvchisi // Xalq so‘zi gazetasi, 2018 yil 11 oktyabr. (In Uzbek)

11. Samarqandning jahon sivilizatsiyasi rivojidagi o‘rni // Xalq so‘zi gazetasi, 2007 yil 25 may. (In Uzbek)

12. O‘zbekiston - Fransiya: uzoq muddatli hamkorlikni yana-da kengaytirish va mustahkamlash yo‘lida // Xalq so‘zi gazetasi, 2018 yil 10 oktyabr. (In Uzbek)

13. O‘zR MA. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivallarida qatnashgan va taklif etilishi rejalashtirilgan ishtirokchilar hamda ijrochilar haqida qiyosiy ma’lumot. Fond – m -38, 1 – ro‘yxat, 343 – jild, 4 – varaq. (In Uzbek)

14. Fransuz olimasining o‘ngidan kelgan tushi // Xalq so‘zi gazetasi, 2018 yil, 13 oktyabr. (In Uzbek)

15. Qosimov N. (2021) Tarix, bugun, kelajakni tutashtirgan hamkorlik // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent. – № 2. – B. 16. (In Uzbek)

16. G‘ofurov B. (2018) Tarix va kelajak oldidagi burch // Xalq so‘zi gazetasi, 2018 yil 5 oktyabr. (In Uzbek)

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA KASPIYORTI HUDUDIDA ROSSIYA VA BUYUK BRITANIYA IMPERIYALARI MANFAATLARINING TO‘QNASHUVI

THE CONFLICT OF INTERESTS OF THE RUSSIAN AND BRITISH EMPIRE IN THE CASPIAN AREA IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

КОНФЛИКТ ИНТЕРЕСОВ РОССИЙСКОЙ И БРИТАНСКОЙ ИМПЕРИИ НА ЗАКАСПИЙСКОЙ ТЕРРИТОРИИ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich,
O‘zbekiston Milliy universiteti,
Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, PhD
Tel.: +998 93 447-62-05

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Kaspiyorti hududida Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari manfaatlarining to‘qnashishi, xususan, Rossiya imperiyasining Kaspiyorti o‘lkasini bosib olishga urinishlari, harbiy missiyalari, chegara masalalarida qo‘shni mamlakatlar bilan yuzaga kelgan ziddiyatlar, ushbu masalalar bo‘yicha Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalarining qarama-qarshiligi va uning oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, dunyoni bo‘lib olish uchun keskin raqobat ketayotgan bu davrda Rossiyaning Xiva xonligi, turkman yerlari va Afg‘oniston bilan munosabatlari, bu borada qo‘llagan xiyla va tadbirlari haqida tafsilotlar bayon etilgan. Kaspiyorti mintaqasi uchun kurashlar ancha jiddiy kechganini Rossiya, Buyuk Britaniya, Eron kabi davlatlarning tashqi ishlar vazirlari, harbiy generallari va elchilari qanday harakat qilganlarini maqolada o‘qib-o‘rganish orqali anglab yetish mumkin.

Kalit so‘zlar: *Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya imperiyasi, Turkiston, Kaspiy dengizi, Kaspiyorti, turkmanlar.*

Annotation: In this article, the issues such as the conflict between the interests of the Russian and British empires in the Caspian territory, in particular, the attempts of the Russian Empire to occupy the Caspian region, military missions, conflicts with neighboring countries on border issues in the second half of the 19th century are discussed. Particularly, the conflict between the British and Russian empires and its consequences are analyzed. Also, in the period of fierce competition for the division of the world, the details of Russia’s relations with the Khanate of Khiva, Turkmen lands, and Afghanistan, as well as the tricks and measures used in this regard, are described.

It is possible to understand that the struggle for the Caspian region was very serious by reading the actions of foreign ministers, military generals and ambassadors of the countries such as Russia, Great Britain, and Iran in the article.

Keywords: *Russian Empire, British Empire, Turkestan, Caspian Sea, Caspian territory, Turkmens.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы, как конфликт интересов Российской и Британской империй на территории Каспия, в частности, попытки Российской империи оккупировать Каспийский регион, военные миссии, конфликты с соседними странами по пограничным вопросам во второй половине XIX века. В частности, анализируется конфликт между Британской и Российской империями и его последствия. Также в период жесткой конкуренции за раздел мира описываются подробности отношений России с Хивинским ханством, туркменскими землями и Афганистаном, а также уловки и меры, применяемые в этом отношении. О том, что борьба за Каспийский регион была очень серьезной, можно судить, прочитав в статье действия министров иностранных дел, военных генералов и послов таких стран, как Россия, Великобритания и Иран.

Ключевые слова: *Российская империя, Британская империя, Туркестан, Каспийское море, территория Каспия, туркмены.*

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi Kaspiy bo‘yida Rossiya va Britaniya imperiyalari o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi, shiddatli raqobat va siyosiy harakatlarning muhim davri bo‘ldi. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining Kaspiy bo‘yida hukmronlik qilishga bo‘lgan tajovuzkor urinishlari va buning natijasida Britaniya manfaatlari bilan to‘qnashuvlariga e’tibor qaratilib, ushbu tarixiy raqobatning murakkab tomonlari o‘rganiladi. Maqolada harbiy missiyalar, qo‘shni davlatlar bilan chegaradagi kelishmovchiliklar va diplomatik strategiyalar batafsil o‘rganilib, strategik ahamiyatga ega Kaspiy hududi ustidan nazoratni ta’minlashdagi urinishlarga oydinlik kiritiladi. Rossiya, Buyuk Britaniya va Eron tashqi ishlar vazirlari, harbiy generallar va elchilar kabi muhim shaxslarning harakatlarini tahlil qilish orqali o‘quvchilar tarixning ushbu muhim davridagi ko‘p qirrali dinamikani chuqurroq tushunishlari mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kaspiy bo‘yidagi Rossiya va Britaniya imperiyalari o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi ko‘plab tarixchilar va siyosiy tahlilchilarni qiziqtirgan mavzu bo‘ldi. Bir qancha olimlar bu raqobatni va uning mintaqaga ta’sirini o‘rganib chiqdilar. Jumladan, O. Jigalina XIX asr va XX asr boshlarida Rossiya va Buyuk Britaniyaning Yaqin Sharqdagi tashqi siyosat konsepsiyalarini muhokama qilib, ularning qarama-qarshi

manfaatlari va strategiyalariga oydinlik kiritadi. Bu ish ularning Kaspiy mintaqasidagi harakatlari ortida turgan motivlari haqida qimmatli tushunchalar beradi.

Tadqiqotchi V. Korgun Afg‘onistonning XX asr tarixini o‘rganib, Rossiya va Britaniyaning mintaqadagi rolini yoritadi. Muallifning Afg‘onistondagi kuch dinamikasi va mojarolar tahlili Kaspiy mintaqasidagi mavjud geosiyosiy muammolarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. G. Hidoyatov XIX asr oxirida O‘rta Osiyodagi Angliya-Rossiya munosabatlari tarixini o‘rganib, mintaqadagi ikki imperiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar haqida bir qancha ma’lumotlarni beradi. M. Bartorp esa 1839-1947-yillar oralig‘ida Afg‘oniston urushlari va shimoli-g‘arbiy chegara haqida to‘liq ma’lumot beradi, bunda Buyuk Britaniya va Rossiyaning mintaqadagi roliga e’tibor qaratiladi. Umuman olganda, ko‘rib chiqilgan adabiyotlar XIX asr oxirlarida Kaspiy bo‘yidagi Rossiya va Britaniya o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvining murakkab ekanini anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni o‘rganish maqsadida bir qator tarixiy tadqiqotlar va tahlillar olib borildi. Xususan, adabiyotlarni ko‘rib chiqish, hujjatlar tahlili, qiyosiy tahlil, sintez va boshqalar. Adabiyotlarni ko‘rib chiqish davomida Rossiya va Britaniya imperiyalarining Kaspiy bo‘yi hududidagi tarixiy konteksti, voqealari va o‘zaro munosabatlari haqida ma’lumot to‘plash uchun ko‘rsatilgan vaqt oralig‘ida batafsil adabiyotlar tahlili o‘tkazildi. Mintaqadagi manfaatlar to‘qnashuvining murakkabligini tushunish uchun birlamchi va qo‘shimcha manbalar, jumladan, tarixiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va kitoblar bilan tanishildi.

Hujjatlarni tahlil qilish jarayonida Rossiya va Britaniya imperiyalarining Kaspiy dengizi hududidagi rasmiy pozitsiyalari va strategiyalarini o‘rganish uchun tarixiy hujjatlar, shartnomalar, diplomatik yozishmalar va boshqa tegishli matnlar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil uchun ikki imperiyaning Kaspiy dengizi hududiga nisbatan yondashuvlaridagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil o‘tkazildi. Ularning diplomatik sa’y-harakatlari, harbiy harakatlari va iqtisodiy manfaatlarini solishtirib, ular o‘rtasida ziddiyatga olib kelgan qarama-qarshi manfaatlarni ko‘rsatishni maqsad qildik.

TAHLIL VA NATIJALAR

1853–1856-yillardagi Qrim urushida Angliyaning ishtiroki Rossiya hukmron doiralarining Qora dengizda hukmronlik o‘rnatish rejalarini amalga oshirishga to‘sqinlik qildi. Bir qator rus generallari Angliyaning Qrim urushidagi aralashuvi uchun qasos olish maqsadida Hindistonga hujum qilishda Kaspiy dengizining sharqiy sohillaridan foydalanishni taklif qiladilar. Xususan, uning janubiy-sharqiy sohilida joylashgan Oq Qal’a tayanch nuqta bo‘lib qolishi lozim edi. Ushbu generallar Hindistonga qarshi hujum harakatlari olib borish uchun eng qulay yo‘l Kaspiy

dengizidan Shimoliy Eron, turkman qabilalari, Hirot va Qobul orqali deb hisoblardilar. Bu kabi harakatlarni amalga oshirish bilan Markaziy Osiyodagi ingliz hukumatining, xususan, “Ost-Indiya” kompaniyasining manfaatlariga zarba berish ko‘zda tutilgan edi. Bu masalada bir necha yig‘ilishlar o‘tkazilib, qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun bir qator variantlar ilgari suriladi.

Birinchi variantning muallifi maxfiy maslahatchi baron N.Y.Toranu bo‘lib, Astrobod viloyati masalasi Eron bilan shartnoma tuzish, shu orqali Hirotga rus qo‘shinlarining borishi bilan shug‘ullanish va u yerda tayanch bazani qurishni nazarda tutardi.

Ikkinchi variant ingliz-hind hukmronligiga deyarli shunchaki namoyish uchungina chora-tadbirlar ko‘rishdan iborat edi. Turkiston general gubernatori fon Kaufman Angliyaning Osiyodagi manfaatlariga tahdid qilish uchun ikkita mustaqil otryadni jo‘natishning o‘zi yetarli deb hisobladi: biri (Turkiston otryadi) Buxoroga tegishli bo‘lgan Sherobod yaqiniga, ikkinchisi Kavkaz harbiy okrugi qo‘shinlaridan birini Marvga jo‘natish lozim deb bildi. Bu tadbirlarning muvaffaqiyati Afg‘oniston tarafining reaksiyasiga bog‘liq edi. Shuningdek, u Afg‘on amiriga siyosiy elchilar jo‘natishni ham shart deb hisoblardi.

Uchinchi variant Orenburg general gubernatori general-adyutant N.A.Krijanovskiy rejasi bo‘lib, Astrobod va Hirot orqali Hindistonga olib boradigan asosiy yo‘lga 150 ming kishilik qo‘shin jo‘natishni nazarda tutardi. Muallifning fikricha, aynan shu yo‘l ingliz hukumatini Rossiya imperiyasining Sharqqa nisbatan siyosatiga aralashishini keskin kamaytirishiga majbur qilardi.

Harbiy vazirlik birinchi va uchinchi loyihalarni rad qildi. Biroq Kaspiy dengizining sharqiy sohillarida bazani yaratish, quruqlik orqali aloqa o‘rnatish uchun qulay yerlarni qidirib topish, Kaspiy dengizining sharqiy sohillarida kemalar to‘xtashi uchun qulay dengiz ko‘rfazi qidirib topish haqida qaror qabul qilindi. Birinchi va uchinchi variantni rad qilinishining asosiy sabablari moliyaviy resurslarning yetarli emasligi va “Yevropadagi siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda bundan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatlarga tayyor turish” uchun Yevropa armiyasini tutib turish edi.

Rossiya Tashqi ishlar vazirligi Turkmanistonda shoshilinch harakatlarga qarshi chiqdi va turli xil bahonalar bilan sharqiy sohillarga qo‘shinlarni jo‘natishni orqaga surdi. Rus diplomatlari Turkmanistonda rus askarlarining paydo bo‘lishi Eron bilan munosabatlarni yomonlashtirib yuborishidan cho‘chirdilar. Chunki talablarini asoslab berishda moddiy va huquqiy asoslar bo‘lmasa-da, Fors podsholari Kaspiyortining bir qismiga da’vo qilib kelardilar. Aftidan, Rossiya Fors hukmron doiralarida Rossiyaga nisbatan salbiy munosabatlar shakllanib qolishidan xavfsirardi. Rus askarlarining turkman yerlarida paydo bo‘lishi o‘sha davrda Eronga qaram bo‘lgan Xuroson bilan to‘qnashuvlarning kelib chiqish ehtimolini oshirar edi. Chunki o‘sha davrda Eronda

ingliz hukmron doiralarining ta’siri ancha kuchli bo‘lib, turli xil yo‘llar bilan Erondagi yuqori tabaqa vakillarini o‘z taraflariga og‘dirib olishgandi. Shu boisdan Streouxov Kaufmanga 1869-yilda yozgan maktubida uning Xivaga qarshi yurishlariga qarshi chiqqan edi. U Krasnovodskda rus askarlarining paydo bo‘lishi va u yerda rus eskadrilyasining muqim bo‘lishi Eron davlati bilan aloqalarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligidan ogohlantirgandi (Хидоятов Г., 1969: 132). Aynan shu kabi xavfsirashlar tufayli rus tashqi ishlar vazirligi deyarli 10 yil davomida rus hukumatini Kaspiy dengizining sharqiy sohillarida faol harakatlardan tiyilishga majbur qildi va harbiy rahbarlarning Krasnovodskka rus askarlarini jo‘natishni tezlashtirishga bo‘lgan barcha urinishlariga xalaqit qilishga urindilar.

1960-yillarning oxiriga kelib vaziyat birmuncha o‘zgardi. Rossiya Turkistonga o‘rnashib oldi va amalda Buxoro amirligi ustidan nazorat o‘rnatdi. Turkistonda to‘plangan rus qo‘shinlari Rossiyaning markaziy hududlaridan uzilib qolgan edi. Orenburg orqali temir yo‘l hali-beri bitmasligidan kelib chiqib, yagona aloqa Xiva va turkman yerlaridan o‘tishi mumkin bo‘lgan yo‘l orqali bo‘lishi mumkin edi. Asosan Xiva xonligiga qarashli bo‘lgan Amudaryoning butun oqimi bo‘ylab nazoratni o‘rnatmasdan Markaziy Osiyoning janubi-g‘arbiy qismi bilan savdo-sotiq ishlarini kengaytirib bo‘lmasdi. Shuningdek, Xiva xonligini egallash kun tartibida turar va buni Turkiston general gubernatorligi hamda Kaspiy dengizi tarafidan hujum qilmasdan amalga oshirib bo‘lmasdi. Oxir-oqibat rus ofitserlari tomonidan 1850-yillarda ilgari surilgan Kaspiy dengiz bo‘yida harbiy bazani shakllantirish to‘g‘risidagi takliflar, 1863-yildagi polyak qo‘zg‘olonidagi Angliya diplomatiyasining dushmanona pozitsiyasi Rossiya hukumatining Kaspiy dengizining janubi-sharqiy qismidagi siyosatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Bunday sharoitlarda Rossiya tashqi ishlar vazirligi Kaspiy dengizi hududidagi harakatlarga rahbarlik qilishni kamaytirdi va buni to‘liqligicha harbiy idoralar ixtiyoriga topshirdi. Harbiylar o‘z navbatida sharqiy sohillarda faol harakat qilish tarafdori bo‘lib, bu harakatlarning oqibatlari to‘g‘risida o‘ylashmas va hech kim bilan hisoblashishni istashmasdi. Asosan Kavkaz boshliqlari va ofitserlaridan iborat bo‘lgan harbiylar hukumatning Kaspiyortidagi xohishlarini amalga oshirishlari, Tashqi ishlar vazirligi bo‘lsa yordamchi vazifani, ya’ni ularning harakatlarini “savdo manfaatlaridan kelib chiqqan holda” oqlashlari kerak bo‘lardi.

1869-yil oktyabr oyining oxirida rus qo‘shinlari Krasnovodskka tashlandi va Kaspiybo‘yi turkmanlari (yovmutlar, go‘klanlar va boshqalar) o‘z yerlarida ruslarning nazorati o‘rnatilishini xohlamay, ularga qarshi urushga tayyorlana boshladilar. 1870-yillarda nufuzli qabila boshliqlari bo‘lgan Safixon, Avaz Murod sardor va Nurberdixon boshchiligida rus qo‘shinlariga qarshi ittifoq tuzildi va rus qo‘shinlariga birinchi zarbani berdilar.

1872–1873-yillarda qo‘mondon Markozovning turkmanlarga qarshi harbiy harakatlari, repressiyani kuchaytirib yuborishi mahalliy aholining Rossiyaga qarshi harakatlarining yanada kuchayishiga olib keladi. Shuningdek, Kaufman tomonidan Xivaga yurishlar vaqtida qarshilik qilgan turkmanlarni jazolash uchun general Golovachev jo‘natiladi va turkman qabilalariga qarshi janglarda qaqshatqich zarbalar beriladi. Garchi turkman qabilalari qattiq qarshilik qilib, rus qo‘shinlariga qarshi partizanlik kurashini olib borgan bo‘lsa ham Rossiya imperiyasi Turkmaniston yerlarini egallab oladi.

1874-yil martida “Kaspiyorti o‘lkasida harbiy boshqaruvni joriy qilish to‘g‘risidagi vaqtinchalik holat” tasdiqlandi. Unda Kaspiyorti harbiy bo‘limining chegaralari, bo‘lim boshlig‘ining huquq va majburiyatlari, Mang‘ishloq va Krasnovodsk pristavlari aniqlab olindi. Shuningdek, ushbu hujjatda rus boshqaruvi va mahalliy boshqaruv, yig‘imlar, soliqlar, mahalliy aholining huquqlari belgilab olinadi.

Kaspiyorti o‘lkasining chegaralari shimolda O‘lik qo‘ltiq, janubda Artek daryosi va Kaspiy dengizidan Xivaning g‘arbiy chegaralariga qadar etib belgilandi (Хидоятов Г., 1969: 136). Shimoliy, g‘arbiy va janubiy chegaralar shunchalar erkin belgilangan ediki, ularni janubiy-sharqiy deb aytish qiyin edi. Bu harbiylarga yangi harbiy yurishlar uchun keng imkoniyatlar yaratardi, xolos.

Shuni ham ta’kidlash joizki, ruslar joriy etgan yangicha tartiblar mahalliy aholining diniy va milliy qadriyatlarini birmuncha hurmat qilinishini ham ta’minlar edi. Bu mahalliy aholining orasida norozilik harakatlari kuchayib ketishining oldini olish maqsadida qilingan xatti-harakatlar natijasi edi.

Turkmanlar bilan munosabatlarda Rossiya uchun eng katta qiyinchilik shunda ediki, turkmanlar joylashgan yerlar fors shohlari hukmronligiga moslashib qolgandi. Ular o‘rtasida qat’iy belgilangan chegaralar ham yo‘q edi. Bu esa Eron shohlarini tashvishlantirishi, buning natijasi Rossiya-Eron munosabatlarining sovuqlashishiga olib kelardi. Bunday vaziyatdan foydalanib qolishga harakat qiladigan Angliya esa o‘z navbatida Turkmaniston yerlarida rus siyosatiga bo‘lgan e’tirozlarini bildirdi.

Rus qo‘shinlarining Krasnovodskka tushirilishi, Eron tashqi ishlar vaziri Mirza Sayyidxonning rus elchisi Begerga bildirishicha, shoh hukumatini tashvishlantiradigan biron narsaga sabab bo‘lmayotganini aytadi (Хидоятов Г., 1969: 135). Lekin, buni Eron shohining turkman yerlarida bo‘lib o‘tayotgan voqealarga shunchaki beparvolik bilan qarayotgani bilan emas, balki o‘sha davrda yuzaga kelgan murakkab bir sharoitda qulay vaziyatni kutayotganligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, o‘sha paytda rus elchilari Eron shohi bilan boshqa hududlar masalasida muzokaralar olib borishayotgan edi. Eron shohi ham rus bosqinlariga qarshi turish uchun harbiy jihatdan kuchsizligini tushunib turardi. Shu bilan birga, Turkmanchoy bitimiga ko‘ra Rossiya imperiyasi Kaspiy dengizida harbiy flotga ega bo‘lishi mumkin edi. Qonuniy tarafdan olib qaraganda, Eronning norozilik bildirishi uchun asoslari ham yo‘q edi.

Eron shohi vaziyatni to‘g‘ri anglagan holda yon berishga qaror qiladi. U turkman yovmutlari ustidan Rossiya hukmronligini tan olish evaziga Atrek va Gurgan daryolarida harbiy bazalar qurishdan voz kechishni talab qiladi. O‘z navbatida Eron bilan aloqalarni keskinlashtirishni istamagan Rossiya imperiyasining tashqi ishlar vazirligi Angliya tomonidan turli xil provokatsiyalar uyushtirilishidan xavfsirab, bu shartlarga rozi bo‘ladi (Хидоятов Г., 1969: 136).

Kaspiyorti viloyatining tuzilishi bilan Rossiya imperiyasining bu hududdagi hukmronligi uzil-kesil ta’minlanmadi. Eron bilan o‘zaro chegaralar aniqlab olingan bo‘lsa-da, Afg‘oniston bilan janubi-sharqiy chegaralar masalasi ochiqligicha qolmoqda edi. Shu boisdan Kaspiyorti hududining keyingi taqdiri Afg‘oniston bilan munosabatlarga ham ko‘p jihatdan bog‘liq edi.

General-mayor Stoletov boshchiligidagi rus delegatsiyasi diniy ishlar bo‘yicha mutaxassislar, Zagunuv (turkiy va ingliz tillari tarjimoni), tibbiyot sohasining malakali bir shifokori va bir leytenant, kazaklarning yigirma bir nafar qobiliyatli askarlari bilan Kobulga keldilar. Sankt-Peterburgdan tayinlangan bu delegatsiya Turkiston viloyati rahbari general Kaufman tomonidan Toshkentda tuzilgan edi. Kutilmagan bir paytda ular Amudaryo bo‘yiga yetib keldilar va amir bilan muzokara olib borishni mahalliy xalq vakillariga aytdilar. Mozori-Sharif rahnamosi Sherdilxon bu holatni Sheralixonga yetkazdi va u bu mehmonlarning rasmiy qabul qilishini xohlayotganliklarini aytdi. 1877-yil 22-iyulda Kobulga yetib keldilar va amir ham ularni kutib oldi.

Ular Kaufmanning nomasini amirga berdilar va Afg‘oniston bilan Rossiya o‘rtasida do‘stlik shartnomasi yuzaga kelishi, bu shartnomada qadrli amirning nevarasi(Abdullaxon) ham rasmiy ishtirok etishi aks ettirilgandi. Yetib kelgan bu delegatsiya inglizlarga tahdid bo‘lmasa-da, inglizlar bundan juda sarosimaga tushib, amir bilan muzokara olib borishni umid qila boshladilar.

Ruslarning uddaburon boshqa vakillari aynan shu vaqtda Yevropa davlatlarining rahbarlari yig‘ilgan Berlin konferensiyasida bo‘lib, inglizlarni San-Stefano kelishuvi darz ketishidan xavotirga solardi. San-Stefano shartnomasida baribir inglizlarga imtiyoz berildi va Afg‘oniston yuzasidan o‘zaro kelishib oldilar. Ularning kelishuvlarida shunday ma’lumotlar keltirilgan edi: Afg‘oniston inglizlarning ta’sir doirasidagi joy va Bolqonga inglizlar aralashmasligi hamda bolgarlarni oradan olib tashlash qayd etilgan. Ruslar ayni mana shu vaqtda amirni gijgijlash maqsadida Stoletovni Afg‘onistonga jo‘natdilar. Bu ruslarning katta yolg‘oni edi. Ruslar konferensiyani imzolayotgan vaqtda Stoletov Kobulda edi. Bu maxfiy nomani amirga berdi va amir hech qanday shartnoma imzolamasligini unga bildirdi (Кoргун В., 2004: 223).

Ammo, baribir Inglizlar va amir o‘rtasida keskinlik yuzaga keldi hamda rus delegatsiyasi paytdan foydalanib amirni himoya qilish yuzasidan o‘zining kuchli askarlarini jo‘natishi kerakligini amirga tushuntirdilar. Shundan so‘ng Stoletov bir

bahona qilib Kobuldan chiqib ketadi. Inglizlar Afg‘oniston sarhadlariga hujum qilgan vaqtda amir Kaufmanga xabar qildi. Javob esa quyidagicha qaytarildi: “Zaytun bargini qo‘lga olib inglizlarga murojaat qil. Zaytun bargining ma’nosi inglizlar bilan murosa qilishdir” (Жигалина О., 1990: 45).

Amir o‘z ishini davom ettirib, bir noodatiy tadbir qo‘lladi. Uning odami Sankt-Peterburgga bordi va u yerda inglizlarning tajovuzlari yuzasidan jahon hamjamiyatlariga o‘z shikoyatlarini yetkazdi. Inglizlar vakili Leytin amirga noma jo‘natib, ketidan bir delegatsiyani jo‘natishni ham aytdi. Lekin amir ularning hech bir talabini qabul qilmadi. Mana shu kunda ingliz askarlari Afg‘onistonga kirgan edilar va bu fojia keyinchalik Afg‘onistonni Angliya manfaatlariga xizmat qiladigan qo‘g‘irchoq mamlakatga aylantirib qo‘ydi (Barthorp M., 2002: 178-179). Angliya esa mazkur ta’sir kuchidan keyinchalik Rossiyaning Kaspiyortidagi manfaatlariga zarba berish yo‘lida foydalanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning ikkinchi yarmida Kaspiy bo‘yidagi Rossiya va Britaniya imperiyalari o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi mintaqaning geosiyosiy landshaftini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan muhim va murakkab masala edi. Rossiya imperiyasining Kaspiy dengizi mintaqasi ustidan o‘z ta’siri va nazoratini kengaytirishga urinishlari Britaniya imperiyasining manfaatlariga zid ravishda vaziyatni taranglashtirdi. Har ikki imperiya qo‘llagan strategiyalar, shuningdek, ularning Xiva xonligi, turkman yerlari va Afg‘oniston kabi mahalliy kuchlar bilan o‘zaro munosabatlari Kaspiy bo‘yida hukmronlik uchun kurashning qizg‘inligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, bu davrdagi Kaspiy mintaqasi uchun kurash, dunyoning boshqa mintaqalarida bo‘lganidek, imperialistik raqobatning murakkab dinamikasini ko‘rsatadi. Ushbu ma’lumotlarni bilish bugungi kunning ziddiyatlarini anglashga yordam beradi va jamoatchilikning geosiyosiy bilimdonlik darajasi ortishiga, xabarlarni tahlil eta olish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Жигалина О. (1990) Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. – Москва.

2. Коргун В. (2004) История Афганистана. XX в. – Москва.

3. Хидоятов Г.А. (1969) Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. – Ташкент: Фан.

4. Barthorp, Michael (2002) Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. – pp. 178-179.

5. Madeline Lazer. (2005) Why They Played: The British and Russian Motivations for Expansion in Nineteenth-Century Central Asia. Senior Honors Thesis, George Washington University.

6. John L. (1984) “Introduction,” in Mission of N. P. Ignat’ev to Khiva and Bukhara, 1858 by Nikolai Pavlovich Ignat’ev (Newtonville, MA: Oriental Research Partners)

7. Муҳаммаджанов Р., Неъматов Т. (1957) Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси.

8. Conoly A. (1838) Journey to the North of India overland from England through Russia, Persia and Afghanistan. London. – pp. 232-233.

9. Зияев З. (1983) Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI – XIX вв Ташкент. – Ташкент.

REFERENCES:

1. Jigalina O. (1990) Velikobritaniya na Srednem Vostoke. XIX – nachale XX v: Analiz vneshnepoliticheskix konsepsiy. – Moskva. (In Russian)

2. Korgun V. (2004) Istoriya Afganistana. XX v. – Moskva. (In Russian)

3. Xidoyatov G.A. (1969) Iz istorii anglo-russkix otnosheniy v Sredney Azii v konse XIX v. – Tashkent: Fan. (In Russian)

4. Barthorp, Michael (2002) Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. – pp. 178-179.

5. Madeline Lazer. (2005) Why They Played: The British and Russian Motivations for Expansion in Nineteenth-Century Central Asia. Senior Honors Thesis, George Washington University.

6. John L. (1984) “Introduction,” in Mission of N. P. Ignat’ev to Khiva and Bukhara, 1858 by Nikolai Pavlovich Ignat’ev (Newtonville, MA: Oriental Research Partners)

7. Muhammadjanov R., Ne’matov T. (1957) Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba’zi manbalar. – Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi. (In Uzbek)

8. Conoly A. (1838) Journey to the North of India overland from England through Russia, Persia and Afghanistan. London. – pp. 232-233.

9. Ziyayev Z. (1983) Ekonomicheskiye svyazi Sredney Azii s Sibiryu v XVI – XIX vv Tashkent. – Tashkent. (In Russian)

TURKISTON JADIDLARIDAN SHOKIR MUXTORIYNING FAOLIYATI VA UNING JAMIYATDAGI IJTIMOIY MUAMMOLARGA NISBATAN QARASHLARI

THE ACTIVITY OF SHOKIR MUKHTARI, ONE OF THE JADID REPRESENTATIVES IN TURKISTAN, AND HIS ATTITUDES ON SOCIAL PROBLEMS IN THE SOCIETY

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ШОКИРА МУХТАРИ, ОДНОГО ИЗ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДЖАДИДОВ В ТУРКЕСТАНЕ, И ЕГО ОТНОШЕНИЕ К СОЦИАЛЬНЫМ ПРОБЛЕМАМ В ОБЩЕСТВЕ

Ochilova Gulmira Mardonovna,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Tarix instituti katta ilmiy xodimi, PhD
Tel.: +998 93 557-45-53
ochilovagulmira86@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada XX asr boshida Turkistonda keng yoyilgan ma’rifatparvarlik harakatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Shokir Muxtoriyning hayoti, u haqda zamondoshlarining xotiralari va asarlarida asosiy e’tibor qaratilgan ijtimoiy hayot masalalari haqida ma’lumot beriladi. Jadidchilik harakatining faollaridan bo‘lmish Shokir Muxtoriyning millatni yuksaltirish yo‘lida qilgan mulohazalari, aytgan fikrlari, bu boradagi amaliy harakatlari haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Xususan, o‘g‘il bolalar ta’limi bilan birga qizlar ta’limiga ham birdek e’tibor berish nima uchun lozim degan savolga juda o‘rinli fikr bildirilgani qayd etilgan. Xorijda tahsil olayotgan yoshlar masalasida ham uning so‘zlari aytilar ekan, boshqa taraqqiy etayotgan davlatlarning ilg‘or talabalari miqdori bilan solishtirganda, bizning talabalarimiz soni juda oz ekanini asoslaganiga guvoh bo‘lamiz. Qolaversa, to‘y-ma’raka sababidan yoshlarning ta’limiga yetarlicha e’tibor berilmaganligi holatlariga ham Shokir Muxtoriy munosabat bildirib yozgan maqolalari eslab o‘tiladi. Shokir Muxtoriy o‘z davrining ma’rifatparvar shaxslaridan bo‘lgani, pedagogik va muharrirlik ishlarida katta tajriba to‘plagani, bu bilan xalqning hurmati va e’tirofiga sazovor bo‘lganini maqolada anglab yetamiz. Maqolada mazkur insonning hayoti va faoliyatini yoritish uchun arxiv manbalarida saqlanayotgan, hamda ba’zi kitoblarda chop etilgan esdaliklarga murojaat qilindi.

Kalit so‘zlar: *Shokir Muxtoriy, jadidchilik, ta’lim, millat, taraqqiyot masalasi, muharrirlik, xotiralar, e’tirof.*

Annotation: The article provides information about the life of Shakir Mukhtari, one of the prominent representatives of the enlightenment movement that was widespread in Turkistan at the beginning of the 20th century, and the memories of his contemporaries, as well as the issues of social life focused on in their works. Information was given about Shakir Mukhtari, one of the activists of the Jadid movement, his comments about development, opinions, and practical actions in this regard. In particular, it was noted that a very appropriate opinion was given to the question of why it is necessary to pay equal attention to the education of girls along with the education of boys. When speaking about the issue of young people studying abroad, we can see that the number of our students is very small compared to the number of advanced students of other developing countries. In addition, the articles written by Shakir Mukhtari reacting to the cases of not paying enough attention to the education of young people due to the wedding and mourning are remembered. In the article, we understand that Shakir Mukhtari was one of the enlightened persons of his time, gained great experience in pedagogic and editorial work, and thus earned the respect and recognition of the people. In order to illuminate the life and activities of this person, the article referred to memories kept in archival sources and some published books.

Keywords: *Shakir Mukhtari, Jadid movement, education, nation, issue of development, editorship, memories, recognition.*

Аннотация: В статье приводятся сведения о жизни Шакира Мухтари, одного из видных представителей просветительского движения, распространенного в Туркестане в начале XX века, и воспоминания его современников, а также вопросы общественной жизни, которым уделялось внимание в их трудах. Приведены сведения о Шакире Мухтари, одном из активистов движения джадидов, его рассуждениях о развитии, мнениях и практических действиях в этом направлении. В частности, отмечено, что очень уместно было дано мнение по вопросу о том, почему необходимо уделять равное внимание образованию девочек и образованию мальчиков. Говоря о проблеме обучения молодежи за рубежом, мы видим, что количество наших студентов очень мало по сравнению с количеством продвинутых студентов других развивающихся стран. Кроме того, следует вспомнить статьи Шакира Мухтари, в которых он реагировал на случаи не уделения должного внимания образованию молодежи из-за свадьбы и траура. В статье мы понимаем, что Шакир Мухтари был одним из просвещенных людей своего времени, приобрел большой опыт в педагогической и редакторской работе, чем заслужил уважение и признание народа. Для освещения жизни и деятельности этого человека в статье

использованы воспоминания, хранящиеся в архивных источниках и опубликованные в некоторых книгах.

Ключевые слова: *Шакир Мухтари, движения джадидов, образование, нация, проблема развития, редакторство, воспоминания, признание.*

KIRISH

XIX asr oxiri va XX asr boshlari buyuk ilmiy kashfiyotlar davri sifatida, shu bilan birga texnologik ustunlikka erishgan davlatlarning imperialistik ambitsiyalari kuchaygan davr sifatida tarixda qoldi. Bunday vaziyatda xalqimizni jahonda bo‘layotgan o‘zgarishlardan xabardor etish, yoshlarimizni taraqqiyot uchun xizmat qila oladigan darajada bilimli qilish, shu orqali qoloqlik iskanjasidan xalos bo‘lish zamon talabiga aylangan edi. Buni chuqur his etgan ma’rifatli shaxslar ta’limga va islohotlarga qattiq e’tibor berishdi. Odamlarga ma’rifatparvar g‘oyalarni yetkazish uchun bosmaxonalar tashkil etib, gazeta va jurnallar chop eta boshlashdi. Shunday insonlar qatorida Shokir Muxtoriyni eslab o‘tishimiz mumkin. Shokir Muxtoriyning xizmatlari ulug‘ bo‘lsa-da, bu inson haqida bizgacha juda oz ma’lumot yetib kelgan. Asosan, Shokir Muxtoriyning zamondoshlari tomonidan yozib qoldirilgan iliq fikrlar maqolada keltirib o‘tiladi.

Tarixiy ildizlarimizga tayangan holda uchinchi renessansga qadam qo‘yar ekanmiz, bu borada jadid ajdodlarimizning ibratli hayot faoliyati hamda o‘gitlariga ehtiyoj sezamiz. Shuning uchun, jadidchilik harakatiga nisbatan e’tibor ortgan bugungi kunimizda, jadidlarning faollaridan bo‘lmish Shokir Muxtoriyni eslab o‘tish, bu inson haqida qimmatli fikrlarni yetkazish lozim va manfaatlidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Shokir Muxtoriy haqida ma’lumot to‘plash uchun asosan XX asr birinchi choragidagi mahalliy gazeta va jurnallarga murojaat etildi. Jumladan, Hoji Muinning “Inqilob” jurnali, 1922-yil, 3-sondagi maqolasi, Vadud Mahmudning “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida 1921-yil 12-fevralda chop etilgan “Marhum Shokir Muxtoriy” nomli maqolasi, “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining bir qancha sonlari, “Yurt” jurnali, Shokir Muxtoriyning o‘zi yozib nashr ettirgan “Yana to‘y masalasi” nomli felyeton (“Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 8-iyun, 27-son), yana “Islohni nimadan boshlarg‘a?” nomli maqolasi (“Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 3-aprel, 1-son), Shokir Sulaymon qalamiga mansub “Ovrupoda Turkiston o‘quvchilari” nomli maqola (“Turkiston” gazetasi, 1923-yil, 1-yanvar soni), nihoyat, Vadud Mahmudga tegishli “Turkiston” gazetasi 1923-yil, 25-mart sonida chop etilgan “Maorif ishlarimiz” sarlavhasi ostidagi maqolada Shokir Muxtoriy haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Ulardan tashqari bir qancha jadidshunos olimlar ham (Naim Karimov, Begali Qosimov) Shokir Muxtoriy haqida ma’lumotlarni qayd etib o‘tishgan, biroq bu inson haqida maxsus tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga oid tadqiqotni amalga oshirishda asosan manbashunoslik yo‘nalishida ilmiy izlanish olib borildi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasidagi dissertatsiya va kitoblar, arxiv manbalar orasida mavjud asl materiallar o‘rganib chiqildi. To‘plangan ma’lumotlar qiyosiy-mantiqiy usulda tahlil qilindi. Tadqiqot davomida asosan bosma ommaviy axborot vositalariga tayanilgani uchun jurnalistik fakt-chekking usulidan ham foydalanib maqola tayyorlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunga kelib Turkistonda jadidchilikning paydo bo‘lishi, unda ishtirok etgan shaxslar faoliyatiga e’tibor kuchaymoqda va bu davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shunday vaziyatda olimlar oldiga jadidlar safida bo‘lib, ular bilan yelkama-yelka turgan barcha shaxslarning faoliyatini o‘rganish vazifasi qo‘yildi. Ulardan biri Turkistonda taraqqiyparvarlikning yoyilishiga katta hissa qo‘shgan Shokir Muxtoriydir. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, 1920-yilda taqriban 40 yoshlarida vafot etgani hisobga olinsa, u 1880-yillarda tug‘ilgan. O‘zining maqolalarida “biz tatarlar” deb yozishicha, millati tatar bo‘lgan. U haqda ko‘p ma’lumot saqlanib qolmagan. Asosiy qolgani ham zamondoshi va yaqin do‘sti bo‘lgan jadidlarning yirik vakili Hoji Muin tomonidan berilgan quyidagilardir: “Turkistonda taraqqiy va tajaddud yo‘lida ko‘p xizmat qilg‘onlardan biri marhum Shokir afandi Muxtoriydir.

Shokir afandi Turkistonda taxminan 15 yil ta’lim va tarbiya yo‘lida xizmat qilib kelgan ma’ruf muallim va muharrirlarimizdan edi. 1920-yil 26-dekabrda Jizzax kasalxonasida chixutqa (sil) xastalig‘i ila vafot etdi.

Shokir afandi muqtadir bir muallim, o‘tkur qalamli bir muharrir edi. Turkistonda qahatu-r-rijollik bir zamonda eng kerak bo‘lg‘on shunday zotdan ayrilishimiz biz uchun zo‘r musibat va ulug‘ ziyondir.

Shokir afandi 1906-yillarda Farg‘onag‘a kelib shunda 10 yildan ziyoda bir muddat muallimlik etdi. 1917-yil fevral inqilobidan so‘ng oilasi bilan Samarqandg‘a ko‘chub kelib, shunda tura boshladi. 1918-yil iyun boshlarida chiqa boshlag‘on “Mehnatkashlar tovushi” gazetasig‘a kirib o‘n oy chamasi qalami ila xizmat qildi. Ondan so‘ng dorilmualliminda va turli kurslarda muallimlik qilib turdi. 1920-yil xastalangan bo‘lsa-da, shul hol bilan yana bir necha oy muallimligida davom etdi. Oxiri xastalig‘i zo‘rayib xeyli vaqt o‘z uyida va so‘ngra bir necha oy Samarqand kasalxonasida yotdi.

So‘ngra 1920-yil yoz faslida bir do‘stining dalolat va yordami bilan qimiz ila davolanmak uchun oilasini olib Jizzaxg‘a ko‘chdi va shunda kasalxonada vafot etdi.

Shokir afandi, bir yoqdan, ilmi ila xalq bolalarini tarbiya etdigidek, ikkinchi yoqdan, qalami ila matbuot oshiqlarini istifodalandirub turar edi. Aning she’rlari

O‘rinburg‘da chiqaturg‘on “Sho‘ro” majallasida, istifodali maqolalari Turkiston va Farg‘onada chiqaturg‘on ro‘znomalarda bosilib turar edi.

Shokir afandi taqriban qirq yoshida edi. Marhumdan bir xotun, Midhat va Tal’at ismlarida ikki o‘g‘ul, Faiza va Noila ismli ikki qiz qoldi. Bulardan Midhat 16 yoshlarida bo‘lub, ilgari Samarqand dorilmualliminida o‘qur edi, hozirda ziroat maktabida o‘qumoqdadir” (Hoji Muin, 1922: 2). Ushbu tarjimayi hol u haqda saqlanib qolgan asosiy ma’lumot hisoblanadi.

Uning yana bir yaqin do‘sti va maslakdoshi Vadud Mahmud Turkiston uchun qilgan xizmatlarini xotirlab, Samarqandda chiqadigan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida chop etilgan maqolasida “Shokirali Muxtoriyning xizmatlari g‘oyat taqdirdir. O‘z kasalining yoyilg‘oniga qaramasdan kecha-kunduz ishladi, tirishdi, o‘zining ahlidan bir necha yil burun o‘lishga sabab bo‘ldi. Shokirali Muxtoriy oddiy bir muharrir, anchayin bir muallim edi. Lekin bizga qorni bilan yuragini ayira olmayturg‘on turkistonlilarga farqli bir kishi edi. U o‘lgach, uning o‘rniga qolaturg‘on bir muallim, u ketgach, o‘rnini bosaturg‘on bir muharrir qolmasligi uchun topilmas bir kishi edi. Ay, buyuk ishchi! Tinch yot sag‘anangda, sening qilg‘on xizmatlaring esdan chiqmas, sening chekkan zahmatlaring unutilmas. Sen o‘z bo‘yningga yuklangan vazifangni ado qilding. Koshki sendek kishilarimiz bir necha bo‘lsa edi. O‘zining keyin qolg‘on xalqi uchun umridan kechaturg‘on kishilar koshki topilsa edi. U vaqt sening tutgan yo‘ling ochiqroq bo‘lar edi. Tikilgan yulduzingga tezroq yetishar edik. Har holda sen shuhratlisan” (Vadud Mahmud, 1921) deya keltirgan so‘zlari bilan bu shaxsning jadid ma’rifatparvarlari orasidagi mavqeini ko‘rsatadi.

O‘rganishlar davomida uning bir qancha asarlari, risolalari va matbuotda chiqqan bir qancha maqolalari ham aniqlandi. 1910-yillarda yozilgan “Kim qozi bo‘lsun” asari, 1917–1918-yillarda “Sotsializm nimadir?”, “Er haqida ikki turli fikr”, “Turk tilining usuli ta’limi” risolalari shular jumlasidandir. Bundan tashqari “Yana to‘y masalasi” (“Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 8-iyun, 27-son), “Islohni nimadan boshlarg‘a”, va “Mafiy isloh al-isloh” (“Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 8-iyun, 1-son), “Chin musulmon yoki ahil irfon bo‘laylik!” (“Yurt” jurnali, 1919-yil, 1-son: 11–12) kabilar shular jumlasidandir.

Ma’lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida xalqning ijtimoiy hayoti, undagi o‘zgarishlar, turmush tarzi va uni yaxshilashga oid masala jadidlar tomonidan ko‘tarilgan asosiy mavzu bo‘ldi. Ushbu muallif ham o‘zining ijodiy faoliyati davomida deyarli barcha maqola va asarlarini ushbu masalada yozdi. Masalan, “Yana to‘y masalasi” nomli maqolasida “Rusiyada to‘y majlislarida maktab, madrasa va jamiyat xayriyalar foydasiga ionalar jami qilindig‘i har zamon g‘azetalarda yozilub ko‘rsa ham bizim Xo‘qandda birdan rasmiy jamiyatimiz yo‘qlig‘i uchun va birdan hukumat adolatimizdan zakun musoidasida istefoda qila olmoq kabi qoidalik ishlar qilmoq odatni bizda hanuzda yo‘qliqdan, Xo‘qand to‘ylarida diniy va milliy ishlarga iona

qilmoq kabi ishlar aslo yo‘qdur. Binobarin bu to‘y ham shundog‘ qorin yorilguncha yemoqdan iborat bo‘ldi-qoldi”, - (Shokir Muxtoriy, 1914-yil, 8-iyun) deya bergan ma’lumoti asrlar davomida mavjud bo‘lgan muammoni ko‘rsatib beradi.

Shokir Muxtoriy jadidlar tomonidan jamiyatni isloh qilishga qaratilgan yana bir ijtimoiy masala hisoblanmish ta’limni isloh qilish va tarbiya xususida o‘zining barcha maqolalarida to‘xtalib o‘tgan. Uning bergan ma’lumotlari o‘z davri, qolaversa bugungi kun uchun ham juda dolzarbdir. Shu sababdan ushbu maqoladagi fikrlar to‘liqroq keltirildi. “Man Ovrupa xalqining bu darajada taraqqiy va tole’liklarining bosh va birinchi sababini ko‘b axtardim. Lekin ibtidoiy tarbiyalarining mukammalotidan boshqa sabab topa olmadim.

Misol olaylik, ruslarning ibtidoiy maktab shogirdlari ila bizning eski madrasalarimizda o‘n-o‘n besh sana tahsil ko‘rgan shogirdlarimizni. Agar biz bularni tashrih etub qarasaq, bularning hosil bo‘lg‘an va tahsil qilg‘an ilmlari orasinda ulug‘ tafovut toparmiz. Shundoqki, bizning ul zavolli ko‘hna madrasa shogirdida Muxtasarning kalima xaraji, Kifoyaning alif va lomi, Tahzib va qozilarning birorta qoziyasindan boshqa hech shey topilmas, aning o‘z tarixi milliysi ilan turkiy tilining adab va qoidasindan aslo xabari yo‘q. Turkiy sarf va turkiy nahv deb gapursak, aning ishongisi ham kelmaydi. Turkiy tilning ham sarf va nahvi bo‘larmi? deb istibad va taajjub etadur. Men buni latifa tariqa ilangina yozmasman, shogirdlardan va hatto ba’zi mudarrislardan ham eshitub yozaman. Madrasa talabalarining hisob o‘qutmoq odati bizda yamturuk yoki aslo yo‘q. Jug‘rofiya va sa’r ilm riyoziya darslarini albatta mudarrislarimiz o‘zlari ham o‘qumag‘anlar, shogirdlariga o‘qutmaydurlar.

Demak tashrih bobinda bizning madrasa shogirdimiz nihoyatda past qadam bo‘lub qolmoqdadur. Ammo ibtidoiy rus shogirdi boshqadur. Ul o‘zining ona tilini qonun va qoidi ila bilar. Jug‘rofiya, hisob va o‘zining tarix milliysidan xabardor. Tog‘larining takun va surat tashkindan, nabototning nishu va namasindan va soridan ham va lovki ijmoli bo‘lsa ham xabardordir. O‘qug‘an va tahsil qilg‘an ilmlari keraklik, dunyocha foidalik bo‘lub, har qiyosiy ilm haqiqiya ana andandir.

Bizning shogirdimizning ko‘ngrak chiritub topqan amalkorining ba’zisi dinga taalluqi yo‘q, dunyocha foidasiz, ba’zilari mavhumot kalimaya va xurofot yunoniyadan iboratdur. Madrasalarimizda ozgina va sath sirtidagina bo‘lsa ham, agarda fiqh darslari bo‘lmasa edi, shaharlarimizda va madrasalarimizda ilm nominda bir narsa ham mavjud bo‘lmas edi.

Mana men ushbu ikki shogird va tahsil qilg‘on amallari orasinda ushbu qadar tafovutni ko‘raman va shu taftish juz’iy natijasi o‘laliq Ovrupa sar malal matamdinai g‘ayr muslimalarni bu qadar taraqqiy qildurg‘an narsa tarbiya ibtidoiyalarining mukammaloti deyman. Va binobarin biz ham islohotimizni maktab ibtidoiylarimizdan boshlamoq darkor deb maqola jegma natija beraman. Gazetamizda maktab va madrasa talaba va shogirdlarimizg‘a va alarning asl ta’lim va tadrislariga oid ko‘b narsalar

yozilajakdir. Avvalgi yuqorida ham bayon qildig‘imiz kabi gazetamizning maslaki hurmatlik millatning taraqqiysiga xizmatdur. Bu xizmatni kamolila ifo etmak ichun ham madrasa, mudarris va talabalarimizning ahvolindan bahs etmak lozimdur” (Shokir Muxtorov, 1914-yil 3-aprel). Muallifning bu fikrlari Turkiston jadidlarining barchasi tomonidan bosh g‘oya sifatida ko‘tarilgan edi. Turkiston xalqlari turmush tarzini yaxshilashda asosiy islohni ta’limdan boshlash kerakligi, o‘z ona tili va tarixini mukammal o‘rgatish zarurligi shu kabi matbuot materiallarida aks ettirilgan. Shu davrdagi ta’lim tizimining yuqori bosqichi bo‘lgan madrasalarda ham o‘qish va o‘qitishning ahvoli Muxtoriyni befarq qoldirmadi. Xususan, u madrasa talabalariga milliy tarix va matematika o‘qitilmasligi ayanchli ahvol ekanligini, hatto mudarrislarning geografiya va riyoziyotni ham o‘qimasliklari, shuning uchun ularning shogirdlari bu ilmlardan bexabar qolayotganliklarini taassuf bilan bayon qiladi.

Ta’limni, maorifni rivojlantirishgina xalqning turmush tarzini isloh qilishi haqidagi fikrlarni deyarli barcha ma’rifatparvarlarning maqolalarida ko‘rish mumkin. Jumladan, Shokir Muxtoriyning zamondoshi Shokir Sulaymon “So‘nggi kunlarda yurtni idora qilarliq siyosiy, ilmiy, fanniy muqtadir kuchlarimizning yo‘qlig‘i ochiq va qattig‘ sezildi. Zamonimiz Turkistondan o‘zini o‘zi idora qila olaturg‘on ustolar talab qila boshladi. Mana shul hollarni ko‘rgan Turkiston yoshlari borliq hayotimiz, najotimiz maorifda, maorif ham Ovrupoda ekanligini bilib, Ovrupo sari og‘ila boshladilar. Natijada, Qafqoz Bokuda 50, Maskov Peterburg‘da 150, Berlinda 70 nafar, butun Ovrupoda borlig‘i 270ga yaqin Turkiston o‘quvchilarini ko‘ramiz. Bu ko‘rinish har holda Turkistonning kelgusi porloq, tarixi jonliq ekanligini bildiradir. Unday bo‘lsa-da bir oz umid bog‘latadi. Biroq, hayhotki bu sonlar boshqalarg‘a qaraganda yo‘q darajasidadir” (Shokir Sulaymon, 1923).

Maorifni isloh qilishni bosh maqsad etishning foydali jihatlari haqida yuqoridagi ma’rifatparvarlar fikrini Vadud Mahmud ham qo‘llab-quvvatlaydi: “Hol shunday ekan, butun Turkistonimizda barmoq bilan ko‘rsatilurliq bir maktabimiz yo‘qdur. Bizda tarbiya ishlarimiz shunday muhim ekan, bilim yurtlarimiz xarob, bizda o‘qug‘on kishilar qancha bo‘lmasa, fakultetlarimiz shuncha buzuq. Hozir biz tartiblik suratda o‘qituvchi chiqara olaturg‘on bir ilmiy muassasaga ega emasmiz. Hozir hech bo‘lmasa, ta’lim-tarbiya ishlariga rahbarlik qila olaturg‘on bir jurnalimiz yo‘q. Ochiqcha aytganda, bizda hali asoslik bir narsa yo‘q... Tuzukkina bir o‘qituvchimiz yo‘q ekan, ibtidoiy maktab uchun tuzilgan programmda 15 turlik fan kirgizamiz, ish talab qilamiz. Hali maktabda talaba yo‘q ekan, biz Amriqo usuli bilan ta’lim yo‘llarig‘a mashg‘ul bo‘lamiz. Bu ishlarning hammasi bizdagi maorif ishlarining bir markazga bog‘lanmag‘oni va shu ishlarni ishlab chiqoraturg‘on bir muassasamizning bo‘lmag‘onidir” (Vadud Mahmud, 1923).

Shokir Muxtoriy kelib chiqishi jihatdan tatar millatiga mansub bo‘lsa-da, Turkiston yoshlarini ilm-ma’rifatli qilishda boshqa hamkasblari bilan birday jon

kuydirgan, buni o‘zining maqolasida berilgan “biz tatarlar qancha sanalar farz, nizoh va maslal jadallardan keyin hamdlar o‘lsun Xo‘qandda ikki birda qizlar maktabi ochmoqg‘a muvaffaq bo‘ldiq. Bu juda yaxshi va juda asosli ishdir. Binobarin bu ishga sathi nazar ila nazar qilmay asosli va ilmiy nazar ila nazar qilmoqimiz lozimdur. Biz tatarlar sovuq rizq ilanmi, boshqa bir sabab ilanmu, bu viloyatlarga kelib usul savtiyaning umuman Turkistonda intishorini bir jihatdan sabab bo‘lg‘an edik. Emdi: o‘zimizgagina maxsus bo‘lsa ham maktab ochmoqimiz ilanda mahalliy musulmonlarg‘a namuna o‘laroq tarixda go‘zal nom olmoq sharafig‘a noil o‘lalim”, kabi jumlalari isbotlaydi (Shokir Muxtoriy, 1914-yil 8-iyun).

Bu o‘rinda uning xotin-qizlar maktabi ochganligi haqidagi ma’lumoti e’tiborni tortadi. Shokir Muxtoriy ijodi davomida ijtimoiy hayotda ayollar ta’limi va tarbiyasiga alohida e’tibor qaratganligini uning asarlaridagi fikrlari isbotlaydi. Jumladan “tamaddun va maorifning insonlari orasiga surat ila mutashir bo‘lmog‘i uchun ham onalarimizni yoxud ona bo‘ladurg‘an qizlarimizni tarbiya va ta’lim qilmoqimiz zarurdur. Bizki er bolalarimizni ham durust tarbiya qilg‘onimiz yo‘q! Lekin er bolalarimizni qancha yaxshi tarbiya qilsaq ham kelajak asrda ona bo‘ladurg‘on qizlarimiz tarbiya qilinmag‘onda biz hamon yarim jonlikdan, mag‘lubchilikdan najot topa olmasmiz. Chunki xotun demak Nuh basharning yarimi demak bo‘lg‘anligi uchun xotunlar, qizlar tarbiya qilinmasa, yarim millat tarbiyasiz qoldi demak bo‘lurki, bu esa ma’niy va ruhan mag‘lublik demakdur” (Shokir Muxtoriy, 1914-yil 8-iyun).

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, Turkistonlik boshqa ma’rifatparvarlar qatori Shokir Muxtoriy ham rus mustamlakasidan og‘ir ahvolga tushgan xalqni bu qiyinchilikdan faqat ilm-ma’rifat va ta’lim-tarbiya olib chiqishiga umid qilib, butun hayotini shu yo‘lga bag‘ishlagan. Asarlarida ham asosiy ko‘targan masala shu kabi ijtimoiy hayot bo‘lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Shokir Muxtoriy Markaziy Osiyo xalqlarining ta’lim-tarbiya va ma’rifatida muhim rol o‘ynagan fidoyi shaxs edi. Uning jadidchilik harakatida ishtirok etishi, o‘quvchilarni Yevropaga o‘qishga jo‘natish harakati, muharrir va yozuvchi sifatidagi faoliyati xalqning yuksalishi va taraqqiyoti uchun amalga oshirilgan edi. Muxtoriyning ijtimoiy sharoitlarni isloh qilish, barcha uchun ta’lim olish imkoniyatlarini targ‘ib qilish borasidagi fidoyiligi chindan ham ilg‘or fikrli ajdodlarimiz har zamonda bo‘lganini ifoda etadi.

Muxtoriy merosi haqida mulohaza yuritar ekanmiz, ta’lim-tarbiya shaxsning imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirishda muhimligini eslatib o‘tamiz. Uning vatandoshlari hayotini yaxshilash yo‘lidagi tinimsiz sa’y-harakatlari barchamiz uchun yorqin ibrat bo‘lib xizmat qilmoqda. Ta’lim olish

imkoniyati hali ham ko‘pchilik uchun oson bo‘lmayotgan bugungi dunyoda Muxtoriy fikrlari yoshlar uchun ruhiy quvvat taqdim etadi.

Ta’lim olishda teng huquqlilikni targ‘ib qilish, ma’rifat va tanqidiy fikrlashni targ‘ib qiluvchi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli va farovon jamiyat qurish yo‘lida harakat qilish orqali Muxtoriy xotirasini ulug‘lashimiz mumkin. Shokir Muxtoriy kabi shaxslar ilgari surgan g‘oyalarni tatbiq etishda davom etsak, kelajak avlodlar uchun bundan-da farovon hayot yaratamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hoji Muin. “Inqilob” jurnali. 1922-yil, 3-son.
2. Vadud Mahmud. “Marhum Shokir Muxtoriy” // “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1921-yil 12-fevral.
3. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 8-iyun, 27-son.
4. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 3-aprel, 1-son.
5. “Yurt” jurnali, 1919-yil 1-son, 11–12-betlar.
6. Shokir Muxtoriy. “Yana to‘y masalasi” // “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 8-iyun, 27-son.
7. Shokir Muxtorov. “Islohni nimadan boshlarg‘a?” // “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 3-aprel, 1-son.
8. Shokir Sulaymon. “Ovrupoda Turkiston o‘quvchilari” // “Turkiston” gazetasi, 1923-yil 1-yanvar.
9. Vadud Mahmud. “Maorif ishlarimiz” // “Turkiston” gazetasi, 1923-yil 25-mart.

REFERENCES:

1. Hoji Muin. “Inqilob” jurnali. 1922-yil, 3-son. (In Uzbek)
2. Vadud Mahmud. “Marhum Shokir Muxtoriy” // “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1921-yil 12-fevral. (In Uzbek)
3. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 8-iyun, 27-son. (In Uzbek)
4. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 3-aprel, 1-son. (In Uzbek)
5. “Yurt” jurnali, 1919-yil 1-son, 11–12-betlar. (In Uzbek)
6. Shokir Muxtoriy. “Yana to‘y masalasi” // “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 8-iyun, 27-son. (In Uzbek)
7. Shokir Muxtorov. “Islohni nimadan boshlarg‘a?” // “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 3-aprel, 1-son. (In Uzbek)
8. Shokir Sulaymon. “Ovrupoda Turkiston o‘quvchilari” // “Turkiston” gazetasi, 1923-yil 1-yanvar. (In Uzbek)
9. Vadud Mahmud. “Maorif ishlarimiz” // “Turkiston” gazetasi, 1923-yil 25-mart. (In Uzbek)

XORAZM ARXEOLOGIYA-ETNOGRAFIYA EKSPEDITSIYASIDA ETNOGRAFIK TADQIQOT GURUHLARINING TASHKIL ETILISHI

ORGANIZATION OF ETHNOGRAPHIC RESEARCH GROUPS IN THE KHORAZM ARCHEOLOGY-ETNOGRAPHY EXPEDITION

ОРГАНИЗАЦИЯ ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ГРУПП В ХОРАЗМСКОЙ АРХЕОЛОГО-ЭТНОГРАФИЧЕСКОЙ ЭКСПЕДИЦИИ

Isaqov Rustamjon O‘ktamjon o‘g‘li,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
Tel: +998 93 492-98-54
kvazarlar1998@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir qancha arxeologlar tomonidan Xorazmdagi qadimgi manzilgohlardagi aholining ijtimoiy tuzumi, xo‘jaligi va madaniyati, Amudaryoning qadimgi oqimlari tarixi, u bilan bog‘liq bo‘lgan qadimgi O‘rta Osiyo sug‘orish muammosi, aholining madaniy-maishiy turmush tarzi tadqiq etilgani haqida ma’lumot beriladi. Xususan, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining XX asr 50-yillari va undan keyingi davrdagi faoliyati haqida qisqacha fikr yuritiladi. Ekspeditsiya tarkibida tashkil etilgan etnografik tadqiqot guruhlari va ularning tadqiqot obyektlari, guruh rahbarlarining ilmiy faoliyati, tadqiqotlar tahlili, natijalari va ular asosida nashr etilgan ilmiy adabiyotlar tahlili amalga oshiriladi. Tashkil etilgan turli ilmiy-tadqiqot guruhlari faoliyati natijalarini umumlashtirgan holda qoraqalpoqlarning qabilaviy tuzilishi, boshqaruv tabiati, soliqqa tortish, yerdan foydalanish, oila va nikoh munosabatlari, moddiy madaniyatning muhim tarkiblari, turar-joylar, hunarmandchilik, xalq liboslari va amaliy san’at, xususan, kiyim-kechak masalalari bo‘yicha ma’lumotlar jamlandi.

Kalit so‘zlar: *Etnografiya bo‘limi, Qoraqalpoq etnografik tadqiqot guruhi, shimoliy va janubiy o‘zbeklar, Turkman tadqiqot guruhi, S.P.Tolstov, T.A.Jdanko, K.L.Zadixina, M.V.Sazonova.*

Annotation: In this article, the social structure, economy and culture of the population in the ancient settlements of Khorezm, the history of the ancient streams of the Amudarya, the ancient Central Asian irrigation problem related to it, the cultural and household lifestyle of the population are described on the works of the several archaeologists. In particular, the activities of the Khorezm archeology-ethnography expedition in the 50s of the 20th century and later are briefly discussed. Ethnographic

research groups and their research objects, scientific activities of group leaders, research analysis, results and scientific literature published based on them will be analyzed. Summarizing the results of the activities of various scientific research groups, the tribal structure of Karakalpaks, the nature of governance, taxation, land use, family and marriage relations, important elements of material culture, settlements, handicrafts, folk costumes and applied arts, in particular, information on clothing matters were collected.

Keywords: *Department of Ethnography, Karakalpak Ethnographic Research Group, Northern and Southern Uzbeks, Turkmen Research Group, S.P. Tolstov, T.A. Zhdanko, K.L. Zadikhina, M.V. Sazonova.*

Аннотация: В данной статье рассмотрена социальная структура, экономика и культура населения на древних поселениях Хорезма, история древних ручьев Амударьи, связанная с ней древнецентральноазиатская ирригационная проблема, культурно-бытовой уклад населения описаны по трудам ряда археологов. В частности, кратко освещена деятельность Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 50-е годы XX века и позднее. Будут проанализированы этнографические исследовательские группы и объекты их исследований, научная деятельность руководителей групп, анализ исследований, изданные результаты и научная литература на их основе. По результатам деятельности различных научно-исследовательских групп были собраны сведения о родоплеменном составе каракалпаков, характере управления, налогообложения, землепользования, семейно-брачных отношениях, важных элементах материальной культуры, поселениях, ремеслах, прикладном искусстве, народном костюме и одежде.

Ключевые слова: *Отдел этнографии, Каракалпакская этнографическая исследовательская группа, Северные и южные узбеки, Туркменская исследовательская группа, С.П. Толстов, Т.А. Жданко, К.Л. Задихина, М.В. Сазонова.*

KIRISH

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi turli yo‘nalishdagi tadqiqotchilardan iborat katta guruhdir. Islomgacha bo‘lgan davr Xorazm ijtimoiy tuzumi, xo‘jaligi va madaniyati, Amudaryoning qadimgi oqimlari tarixi, u bilan bog‘liq bo‘lgan qadimgi O‘rta Osiyo sug‘orish muammosi, O‘zbekiston aholisining madaniy-maishiy turmush tarzi Xorazm ekspeditsiyasida o‘rganilgan masalalar hisoblanadi. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibida etnografik tadqiqot guruhlarining tashkil etilishi Orolbo‘yining etnik tadqiqida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ushbu jamoalarning tadqiqoti davomidagi so‘rovnomalari tugagandan so‘ng ular tomonidan nashr etilgan kitoblar, maqolalar va monografiyalari bugungi kunda

ham dolzarbligicha qolmoqda. Ekspeditsiya tarkibida tashkil etilgan “Etnografiya bo‘limi”ga va “Qoraqalpoq etnografik tadqiqot guruhi”ga boshchilik qilgan T.A.Jdanko tomonidan chop etilgan nashrlarda qoraqalpoq xalqi etnografiyasi tadqiqot obyektiga aylandi.

Xorazm ekspeditsiyasi tarkibida ilk etnografik tadqiqot guruhlaridan biri 1945-yilda “Qoraqalpoq etnografik tadqiqot guruhi” tashkil etiladi, 1946-yilda “Shimoliy va Janubiy o‘zbek”, 1948-yilda “Turkman tadqiqot guruh”lari ish boshladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi ish olib borgan davr mobaynidagi faoliyati shu qadar keng ko‘lamli nashrlarda o‘z aksini topdiki, ularning ro‘yxatini tuzishning o‘zi ancha vaqt olishi mumkin. Bu nashrlar butun bir kutubxonani tashkil qilgan bo‘lar edi. Hozirga qadar Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi “Asarlar”ining 16 jildi, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi “Materiallar”ining 10 ta juzi, 18 ta tematik to‘plami chop etilgan. Shuningdek, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining maqolalari «Вестник древней истории», “Вопросы истории”, «Советская археология», «Советская этнография», «Этнографическое обозрение» va boshqa jurnallarda bosilib chiqqan. Guruhlarning ishlari haqidagi hisobotlar КСИИМК (Moddiy madaniyat tarixi institutining qisqa axboroti) hamda КСИЭ (Etnografiya institutining qisqa axboroti)ning yillik nashrlarida, “Археологические открытия” va boshqa nashrlarda berib borildi.

Ekspeditsiya xodimlarining maqolalari ko‘plab xorijiy jurnal va to‘plamlarda nashr qilingan. Ularning Encyclopedia (Kolumbiya universiteti nashri) va “History of civilizations of Central Asia” (YUNESKO nashri) kabi fanning hozirgi rivojini aks ettiruvchi nufuzli nashrlardagi ishtirokini qayd etish kerak. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining 60 yildan ziyod faoliyati natijalari jamlangan yuqorida qayd etilgan nashrlar bizning tadqiqot manbayimiz hisoblanadi. Bunda ularning mazkur ish mavzusiga muvofiqligi nazarda tutilgan. Ushbu nashrlardagi asarlar shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lingan.

Birinchi guruh: Xorazmni ilmiy jihatdan o‘rganishga asos solgan Sergey Tolstovning fundamental ishlari.

Ikkinchi (asosiy) guruh: Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi “Asarlar”idir. Mazkur guruhdagi manbalarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining faoliyati to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar aks etgan.

Uchinchi guruhga yuqorida aytib o‘tilgan ekspeditsiya xodimlarining monografik tadqiqotlari mansubdir. To‘plam va davriy nashrlarda, jurnallarda bosib chiqarilgan ayrim maqolalar, “Археологические открытия” yillik to‘plamidagi materiallar to‘rtinchi guruhni tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasida etnografik tadqiqot guruhlarining tashkil etilishi” deb nomlangan ushbu maqolada etnografik tadqiqotlarni xronologik, muammoviy, tarixiy tahlil metodlaridan foydalangan holda islomgacha bo‘lgan davr Xorazm va uning atrofidagi o‘zbek, turkman va qoraqalpoq xalqlari ijtimoiy tuzilishi, an’anaviy xo‘jaligi, hunarmandchiligi va urf-odatlarini o‘rgangan tadqiqotchilarning ilmiy ishlari etnologik tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilk boshda tashkil etilgan “Qoraqalpoq etnografik tadqiqot guruhi”ning ishlari 1945-yildan 1959-yilgacha bo‘lgan davrda Qoraqalpog‘istonning barcha viloyatlarida olib borildi. Guruh ishining boshida eng dolzarb deb belgilangan mavzular: *qoraqalpoqlarning qabilaviy tuzilishi, boshqaruv tabiati, soliqqa tortish, yerdan foydalanish, oila va nikoh munosabatlari, moddiy madaniyatning muhim tarkiblari turar-joylar, hunarmandchilik, xalq liboslari va amaliy san’at* ***xususan, kiyim-kechak masalalari*** bo‘yicha ma’lumot to‘plandi.

Tadqiqotchilarga rahbar etib T.A.Jdanko tayinlanadi. T.A.Jdanko Qoraqalpog‘iston tarixi va etnografiyasi bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar yozgan. Uning shogirdlari orasida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Sobir Kamolov ham bor edi.

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining “Qoraqalpoq etnografik tadqiqot guruhi” 1957-yilda mavsumiy tarzda Kegeyli, Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot viloyatlarida qayta-qayta izlanishlar olib bordi. XIX asr – XX asr boshlarida qabila guruhlari joylashishi va ularning suvdan foydalanish tizimining sxematik xaritasi tuzildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida ba’zi qabila guruhlari *(keneges va mang‘itlar)* o‘rni yaqinligini ko‘rsatadigan yangi materiallar topildi. Ular ba’zi hollarda iqtisodiy faoliyatda, xususan, suvdan foydalanishda hamkorlik qilishlari haqida ma’lumotlar aniqlanadi. (Курбанова З., 2013)

Tadqiqotchi guruh ish rejalarida moddiy madaniyat, xususan, kiyim-kechak masalalarini o‘rganish ham kiritilgan bo‘lib, bu masala bo‘yicha dala materiallari O‘rta Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklariga oid bir qancha maqolalar uchun asos bo‘ladi. Mintaqa hududida sodir bo‘lgan va madaniyatning umumiy rivojlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan murakkab etnik jarayonlar xalqlar libosining shakllanishida ham katta rol o‘ynaydi.

S.K.Kamolov, R.K.Kosbergenov, U.Shalekenov kabi qoraqalpog‘istonlik aspirant-tadqiqotchilar ham qoraqalpoq etnografik jamoasi tarkibida ish olib borishgan. Ular etnografik otryadda to‘plagan dala materiallari keyinchalik ularning keyingi tadqiqotlari uchun asos bo‘ldi.

“Shimoliy o‘zbek etnografik tadqiqot guruhi”ning boshlig‘i esa K.L.Zadixina edi. Jamoa ishi 1946, 1947, 1948 va 1952-yillarda asosan Qoraqalpog‘iston hududidagi Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli va Shumanay viloyatlari hamda Qipchoq viloyatida olib borilgan (1952-yilda bu viloyat Mang‘it bilan birlashtirilib, Qoraqalpog‘istonning Amudaryo viloyati tarkibiga kiritilgan). Ular bilan bir qatorda Amudaryoning quyi oqimidagi o‘zbeklar, Qarshi va Surxondaryo o‘zbeklari, Farg‘ona vodiysi va Toshkent o‘zbeklari tarixi bilan shug‘ullangan. K.L.Zadixina Qashqadaryo havzasida aholining tarqalishi xaritasini tuzadi. *“Qashqadaryo havzasi va O‘zbekiston SSR Surxondaryo viloyati aholisining etnik tarkibini o‘rganishning ba’zi masalalari”* maqolasi xuddi shu mavzuga bag‘ishlangan. (Задыхина К., 1952)

1946-1948-yillarda tadqiqotchi guruh tomonidan to‘plangan delta o‘zbeklarining kiyim-kechaklari haqidagi ma’lumotlar eski zamonlarda o‘zbek ayollari, qoraqalpoq va qozoq ayollari hozirda ham *saukele va kasava* kabi bosh kiyimlarini kiyishligini tasdiqlaydi. (Задыхина К., 1952)

Janubiy o‘zbek etnografik tadqiqot jamoasiga M.V.Sazonova rahbarlik qiladi. Bu guruh 1946-1949-yillarda O‘zbekistonning Xorazm viloyatida olib borgan dala tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari Xonkin, Xiva, Xazorasp va Qo‘shko‘pir hududlari bo‘lgan. Fasllarning birida o‘zbeklar ko‘p bo‘lgan Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l va Shabaz (hozirgi Beruniy) viloyatlarida ham tadqiqot o‘tkaziladi.

M.V. Sazonova Xorazm vohasi tub o‘zbek aholisining xo‘jalik faoliyatiga diqqatini qaratadi. Birinchi marta Xorazm o‘zbeklari (O‘zbekiston SSR Xorazm viloyati doirasida) xo‘jaligining asosiy tarmoqlari tadqiqot obyektiga aylantiriladi. Dala ekspeditsiya tadqiqotlari natijasida to‘liq bo‘lgan katta hajmdagi materiallar ilmiy muomalaga kiritildi, O‘zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi (Toshkent) va Markaziy davlat tarix arxividan olingan arxiv ma’lumotlaridan SSSR (Leningrad) foydalangan holda monografiyalar chop etiladi. (Сазонова М., 1978)

Xorazm vohasining salmoqli qismini – sug‘oriladigan yerlari bo‘lgan shimoli-g‘arbiy chekkalarini, Sariqamish havzasini va Qoraqum cho‘lining unga tutash ulkan shimoliy qismini o‘z ichiga olgan Turkmanistonning Tashauz viloyati turkmanlarining etnografiyasini o‘rganish ekspeditsiyasi tarkibidagi turkman etnografik otryadining rahbari G.P. Vasilyeva boshchiligidagi bir guruh olimlar 1948-1966-yillar davomida qisqa tanaffuslar bilan faoliyat yuritadi.

O‘zbekistonning Xorazm viloyati – Xiva, Xazorasp, Xonqa shaharlari va viloyatlarida, qisman qo‘shni Shimoliy Turkmaniston (Kunya-Urganch) va Qoraqalpog‘istonda (Beruniy) dala tadqiqotlarini olib borgan yana bir o‘zbek etnografik tadqiqot guruhiga G.P.Snesaryov boshchilik qiladi. Ushbu guruh 1954–1959, 1961, 1966 va 1968-yillarda faoliyat yuritgan. (Снесарев Г., 1983)

Tadqiqot guruhi tomonidan urug‘ va guruhlarning yashash joylari o‘rganilib, nasabnoma va rivoyatlar to‘plangan. Urug‘larning kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlar,

rivoyatlar, boshqa qabila va urug‘lar bilan munosabatlari, boshqaruv tabiati, soliqqa tortish, yerdan foydalanish, oila va nikoh munosabatlari haqida ma’lumotlar yig‘iladi. Keyingi yillarda qoraqalpoq otryadining vazifalari XIX asr – XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlarning ovul yer-suv munosabatlarini tarixiy-etnografik o‘rganishga qaratildi. Shu bilan birga, oilaviy hayot, qoraqalpoq oilasi hayoti bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar, qadimiy e’tiqod yodgorliklari haqida ham ma’lumotlar to‘plandi. Dala tadqiqotlari rejalarida moddiy madaniyatning muhim tarkiblari turar-joylar, hunarmandchilik, xalq liboslari va amaliy san’at asosiy o‘rinni egalladi (Сазонова М., 1978). Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining qoraqalpoq etnografik tadqiqot guruhi 1957-yilda mavsumiy tarzda Kegeyli, Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot viloyatlarida qayta-qayta izlanishlar olib bordi. XIX asr va XX asr boshlarida qabila guruhlari joylashishi va ularning suvdan foydalanish tizimining sxematik xaritasi tuzildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida ba’zi qabila guruhlari *(keneges va mang‘itlar)* o‘rni yaqinligini ko‘rsatadigan yangi materiallar topildi, ular ba’zi hollarda iqtisodiy faoliyatda, xususan, suvdan foydalanishda hamkorlik qilishlari haqida ma’lumotlar aniqlanadi.

Qoraqalpoqlar va o‘zbeklarning bir xil nomdagi etnonimlari Qanjig‘ali, Ashamayli, Balg‘ali, Qang‘li, Qiyot, Tartullar – o‘zbeklar orasida Qo‘ng‘irotlar va Ashamayli, Balg‘allar, Qiyot kabi urug‘lar qoraqalpoqlar orasida ham borligi, hududiy birlik va shunga o‘xshash xo‘jalik turlari asosida vujudga kelgan bu xalqlarning etnogenezi, etnik tarkibi va an’anaviy kundalik madaniyati birligi aniqlanadi. Janubiy Orolbo‘yi xalqlarining madaniy tarixini, xususan irrigatsiya tizimini o‘rganish natijasi janubiy Orolbo‘yida irrigatsiya va dehqonchilik tarixiga bag‘ishlangan “Orolbo‘yining qadimiy irrigatsiya tizimlari” deb nomlangan monografiya shakllantirildi (Жданко Т., 1959).

Moddiy madaniyat, xususan, kiyim-kechak masalalarini o‘rganish ham etnografik tadqiqot guruhlari manfaatlari doirasiga kiritilgan bo‘lib, bu masala bo‘yicha dala materiallari O‘rta Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklariga oid bir qancha maqolalar uchun asos bo‘ladi. Mintaqa hududida sodir bo‘lgan va madaniyatning umumiy rivojlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan murakkab etnik jarayonlar xalqlar libosining shakllanishida ham katta rol o‘ynaydi.

Qoraqalpoq etnografik tadqiqot guruhi tomonidan o‘z respublikasidan tashqarida, asosan, O‘zbekiston va unga qo‘shni viloyatlarda istiqomat qiluvchi mahalliy qoraqalpoqlarning etnik tarixi masalalari ham o‘rganildi.

S.K.Kamolov, R.K.Kosbergenov, U.Shalekenov kabi qoraqalpog‘istonlik aspirant-tadqiqotchilar ham qoraqalpoq etnografik jamoasi tarkibida ish olib borishgan. Ular etnografik otryadda to‘plagan dala materiallari keyinchalik ularning keyingi tadqiqotlari uchun asos bo‘ldi. Dala etnografik materiallari, tarixiy adabiyotlar va arxiv ma’lumotlari asosida yozilgan bu tadqiqotlarda qoraqalpoqlarning

Sirdaryodagi hayoti davomida ham, Xivada yashagan davrlarida ham qoraqalpoq xo‘jaligining xususiyatlariga munosib o‘rin berilgan. (Камалов С., 1958) Xorazm ekspeditsiyasining etnografik tadqiqotlariga Xorazm vohasi o‘zbeklarini o‘rgangan etnografik tadqiqot jamoalari katta hissa qo‘shdilar. Otryadlar oldida turgan vazifalar Xorazm o‘zbeklari orasida alohida ajralib turadigan ikki katta guruhning etnografik xususiyatlaridan kelib chiqib belgilandi.

K.L.Zadixina ta’kidlashicha, shimoliy o‘zbeklarning qabila etnonimlarini Orolbo‘yining boshqa xalqlari etnonimlari bilan taqqoslash etnogenezning ayrim xususiyatlarini yoritib beradi. Shimoliy o‘zbeklar orasida etnonimlarning katta qismi o‘rta asr qabilalari va xalqlari nomlarini takrorlagan holda qo‘llaniladi. Etnonimlarni tahlil qilganda, shimoliy Xorazm o‘zbeklarining etnogenezi, birinchi navbatda, qoraqalpoqlar va qozoqlar, shuningdek, no‘g‘aylar bilan bog‘liqligi aniq bo‘ladi.

Xorazm o‘zbeklarining qabilaviy tuzilishi tahlili ko‘plab urug‘-aymoq guruhlari va ular o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarning yaqinligini ko‘rsatadi. Katta ehtimol bilan, K.L.Zadixinaning yozishicha, XI – XIII asrlarda qayd etilgan bu mo‘g‘ul (yoki turkiy-mo‘g‘ul) an’anasi XVII asrda Abulg‘ozi Bahodirxon tomonidan Xorazm o‘zbeklarining to‘rtta guruhga – har birida ikkita urug‘ga bo‘linishi bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Shunday qilib, Xorazm o‘zbeklari o‘rtasida yaqin-yaqingacha “sovchi” munosabatlarini saqlab kelgan qang‘li va kanjig‘ali qipchoq urug‘lari o‘rtasidagi juftlik munosabatlari arxaik xarakterga ega bo‘lib, ular o‘rtasidagi nikoh munosabatlarini “bir paytlar bu urug‘lar o‘rtasida mavjud bo‘lgan majburiy nikohning qabilaviy qoldiqlari deb hisoblash mumkin” (Задыхина К., 1952).

Shimoliy o‘zbek otryadining faoliyati natijasida birinchi marta o‘zbek xalqining bu yirik, ilgari o‘rganilmagan, noyob etnografik guruhining madaniyati va turmush tarzida sodir bo‘lgan barcha o‘zgarishlar va saqlanib qolgan an’analari 1940-yillarda o‘rganib ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi va ularning etnografik tavsifi yaratildi.

Janubiy o‘zbeklar otryadining qiziqish doirasiga janubiy o‘zbeklarning irrigatsiya va dehqonchiligiga oid tarixiy va etnografik materiallar kiritilgan. Olimlarning asarlarida to‘plangan sug‘orish haqidagi ma’lumotlar dehqonlarning ko‘p asrlik tajribasi, bugungi kungacha saqlanib qolgan xo‘jalik va madaniy an’analari asosida etnografiya ma’lumotlar bilan birga sezilarli darajada boyitildi (Курбанова З., 2013).

G.P.Snesarev boshchiligidagi o‘zbek etnografik guruhining tadqiqotlari asosan diniy e’tiqodlarni o‘rganishga e’tibor qaratdi. Jamoa Xorazm o‘zbeklarining e’tiqod va marosimlarida musulmonlardan oldingi yodgorliklarni o‘rgangan. O‘zbekiston viloyatlari, Qoraqalpog‘iston va Xorazm hududida joylashgan diniy binolar va mozorlarning kelib chiqishi va vazifalari tahlil qilinadi. Turkmanistonning Tashauz viloyati, O‘zbekistonning Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston va boshqa joylardan dindorlar ziyoratga boradigan Xo‘jayli viloyatidagi Shamun Nabiy va Jumart-Kassab, Beruniy viloyatidagi Sulton Uvays bobo va boshqa qadamjolar o‘rganiladi. Shu bilan

birga, Sulton Uvays boboga bo‘lgan ixlos turli millatdagi dindorlarni birlashtiradi (Снесарев Г., 1983).

